Molekulada elektronning harakat momenti proektsiyasini atom yadrolarini bo'shashtiruvchi o'qqa nisbatan kattaligini xarakterlash uchun magnit kvant soni

m ga o'xshash molekulyar kvant son - λ kiritilgan.



$\lambda = 0$, bunday holat σ holat deyiladi, bu holatni qabul qiladigan lektronlarning maksimal soni 2ga teng.

$\lambda = \pm 1$ bo'lsa, π holat deyiladi. Bu holatda eng ko'pi bilan 4ta elektron bo'lishi mumkin.

Molekulyar orbitallarning elektronlar bilan to'lib borishi ham xuddi atom orbitallardagi kabi Pauli printsipiga va Xund qoidasiga bo'ysunadi. MO usulida bog'lovchi orbitallardagi elektronlar soni bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar sonidan ko'p bo'lsa, kimyoviy bog' hosil bo'ladi. Kimyoviy bog'lar sonini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.




$$b.t. = \frac{2-0}{2} = 1,0$$





$$b.t. = \frac{1-0}{2} = 0,5$$







$$b.t. = \frac{2-1}{2} = 0,5$$



$$b.t. = \frac{6-0}{2} = 3$$





Molekular orbitallarning afzalliklari. Valent bog'lanishlar usulidan molekular orbitallar usuli bir qancha afzalliklarga ega:

-bu usul har qanday yadrolar sistemasi va elektronlar barqarorligini tushuntira oladi;

-molekular orbitallar usuli molekularlarning va kompleks birikmalarning magnit va optik xossalarini to'g'ri tushunturadi;

-molekuladagi har bir elektronning holatini baholash imkoniyatini beradi.

MOLEKULARARO TA'SIRLAR

Molekulalar orasida orientatsion, induksion va dispersion ta'sirlar mavjud. Ular 3 ga bo'linadi: orientatsion, induksion va orientatsion.

Dispersion- molekular orasida bir lahzada yuzaga keladigan mikrodipollar hosil bo'lishiga asoslangan. Molekulalar yaqinlashganda mikrodipollar paydo bo'ladi, bunda molekular tortiladi. Agar ikki molekulada mikrodipollar baravariga paydo bo'lmasa ular bir-biridan uzoqlashadi.

Orientatsion ta'sirlar- qutblangan molekular orasida yuzaga keladi. Molekulalarning tartibsiz issiqlik harakati tufayli bir xil zaryadlangan dipollarning uchlari bir-biridan uzoqlashadi, qarama-qarshi zaryadlangan uchlari esa bir-biriga tortiladi.

Molekulalar qanchalik qutblangan bo'lsa ular bir-biriga shunchalik kuchli tortiladi.

Induksion ta'sir - molekularlarda yuzaga keladigan induktsiyalangan dipollar hisobiga sodir bo'ladi. Faraz qilaylik, qutblangan va qutblanmagan molekularlarning uchlari uchrashdi. Qutblangan molekular ta'sirida qutblanmagan molekular egiladi va unda qoldiq (induktsiyalangan) dipol paydo bo'ladi. Induktsiyalangan dipol o'z navbatida polyar molekulaning elektrik dipol momentini kuchaytiradi. Ko'rib chiqilgan molekularo ta'sir 2 ta narsaga bo'qiliq. 1) molekulaning qutblanganligiga 2) molekulaning deformatsiyalanishiga.

Agar qutblanganlik ko'p bo'lsa orientatsion ta'sir ustun bo'ladi.

Agar deformatsiyalanish ko'p bo'lsa dispersion ta'sir ustun bo'ladi. Induksion ta'sir ikkala holatga ham bog'liq.

Elektron berilmasdan yuzaga keladigan ta'sirlar Van-der-vaals ta'sir kuchlari deyiladi.

Molekulalaro elektrik o'zaro ta'sir kuchlarini o'rganish gaz, suyuq va qattiq moddalarning xossalari va tuzilishini tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega.

Van-der-vaals kuchlari molekulalarning tortilishi va agregatsiyalanishida, gaz moddalaraning suqlikka va qattiq moddalarga aylanishiga sababchi bo'ladi.

Kovalent bog'lanishga nisbatan van-der-vaals ta'sir kuchlari juda bo'sh bo'ladi. Masalan, xlor molekulasining atomlarga ajralish energiyasining qiymati 243 kJ/mol, xlor kristallarining gazga aylanish energiyasi 25 kJ/mol.

Kimyoviy boglanishni yaxshi bilish dorivor moddalarning eritmalardagi ta'sir mexanizmini to'g'ri anglashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. N. A. Parpiyev, N. Rahimov, A. G. Muftaqov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T., "Ozbekiston", 2002.
5. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov, Anorganik kimyo. "O'zbekiston", 2003.
6. Д.А.Князев. Неорганическая химия: учеб. для ВУЗов /Д.А.Князев, С.Н.Смарыгин.-3-изд.испр.-М.:Дрофа, 2005.- С.591.
7. Общая химия. Биофизическая химия. Химия биогенных элементов: Учебник для ВУЗов/ Ю.А.Ершов, В.А.Попков, А.С.Берлянд и др.; под ред. Ю.А.Ершова- 4 изд.,-М.: Высш.шк.,2003.- 560 с. ил.
8. Е.Я.Левитин, А.Н.Бризицкая, Р.И.Клюева Общая и неорганическая химия: Учебник для студентов фармац. ВУЗов и фармац. Фак. медВУЗов.Х.:Изд-во НФАУ: Золотые страницы, 2002.- С. 536 .
9. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya "-5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
10. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
11. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika in스티tuti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirh uchun savollar

1. Kimyoviy bog'lanish tabiati.
2. Kovalent bog'lanish.kovalent bog'lanish hosil qilish usullari.
3. Bog'ning yo'naluvchanligi va to'yinuvchanligi.
4. Gibridlanish nazariyasi.Markaziy atomdagi bo'linmagan elektronlar juftining molekula tuzilishiga ta'siri.
5. Molekulyar orbitallar usuli. Ikki atomli gomoyadroli birikmalar.. Ikki atomli geteroyadroli birikmalar.
6. Ion bog'lanish.Vodorod bog'lanish.Metall bog'lanish.
7. Molekuladagi o'zaro ta'sirlar.

5 ma'ruza

The structures of simple solids

3

3.4. Oddiy qattiq moddalarning tuzilishi¹. Sharsimon joylanish.

Metallar va qotishmalarning tuzilishi. Ion birikmalarning asosiy turlari

Ma'ruzaning maqsadi: Talabalarni oddiy qattiq moddalarning, metallar va qotishmalarning hamda ion birikmalarning tuzilishi bilan tanishtirish.

Ajratilgan vaqt: 2 soat

Ma'ruzaning rejasi:

1. Oddiy qattiq moddalarning tuzilishi;
2. Sharsimon joylashuvlar;
3. Kristall sistemalarning holatlari;
4. Oktaedrik va tetraedrik bo'shliqlar;
5. Metall va qotishmalarning strukturas;
6. Ion tuzilishli birikmalarning kristall strukturas.

Tayanch iboralar: kristallar, kristallokomyo, sharsimon joylasuvlar, metallarning kristall panjarasi, ion kristalar.

Oddiy qattiq moddalarning tuzilishi¹⁸

Kimyoviy boglar ichida eng oddiysi metal boglanish bo'lib, uni hosil bo'lishida element atomi umumiy foydalanish uchun elektronlar beradi (bir yoki bir nechta). Bog'ning barqarorligi qolgan kationlar va elektronlarning o'zaro ta'siriga bog'liq. Metallardagi plastiklik, quyish mumkinligi elektronlarning kationdan oson ajralishiga bog'liq, metallga xos yaltiroqlik elektronlarning kationdan oson ajralishiga va elektromagnit tolqinlarga sezgirligi va unga javob berishiga bog'liq.

Metall bog'lanishda elektronlarning umumiy foqdalanish uchun o'tib qolishi s-,d- va ba'zan p- elementlarga mansub va ular kichik ionlanish energiyasiga ega elementlardir.

Metall bog'lanishdan murakkab bo'lmagan ikkinchi xil bog'lanish bu ion bog'lanishdir, bunda ion karkas va simmetriya qarama-qarshi zaryadli ionlar

¹⁸ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 65-104.

orasida uyzaga keladi. Ion bog'ning hosil bo'lishi ham elektronlarning yo'qotilishiga bog'liq bo'lib, asosan bu bog' metallar bilan elektromanfiyligi uyqori elementlar orasida uyzaga keladi. Lekin, ko/p chetlanishlar ham mavjud: hamma metallarning birikmalar ionli emas va metallmaslarning ham ionli birikmalari(masalan ammoniy nitrat) bor.

Sharsimon joylashuvlar

Metall va ionli birikmalarning eng muhim joyi atom va ionlarning kristall hosil qilishida joylashuvidir. Oddiy strukturalarda atom va ionlarning kristallda joylashuv strukturasi har xil strukturasi qattiq sharlar vositasida ko'rsatish hisoblanadi. Metallik strukturalarda sharlar neytrall atomlar bo'lib, haqiqatda har bir kation atrofida etarli qoshimcha elektronlar mavjud. Ionli strukturalarda sharlar kation va anionlardan iborat bo'lib, bu holatlarda elektronlarning bir atomdan ikkinchisiga o'tishi kuzatiladi.

2.1. Elementar yacheykalar va kristallik strukturani tuzilishi

Kimyoviy elementning kristalli (oddiy modda) yoki uning birikmasi doimiy takrorlanadigan atomlar, ionlar va molekulalarning assimetrik to'plamlaridan iborat bo'ladi. Fazoviy panjara shu struktura elementlarini nuqtalar bilan joyini ko'rsatadigan nuqtalar bilan ko'rsatadigan ob'ektdir. Rasmiy jihatdan hajmiy pangara kristallik struktura poydevorini ko'rsatadigan uch o'lchamli cheksiz nuqtalarning joylashuv o'rni hisoblanadi. Ba'zan assimetrik qismlar kristall panjaraning tugunlarida yotadi va doim ham shunaqa emas. Panjara tugunlari bir xil struktura birliklari bilan to'ldirilganda, har bir panjara tugun assimetrik qismdan iborat bo'lganida kristall struktura hosil bo'ladi. Kristallning elementar yacheykasi bu faraz qilinadigan paralliliped bo'lib undan parallel o'tkazish yo'li bilan kristallning hamma qismlarini qurib chiqish mumkin (rasm 2.1).




Fig. 3.1 A two-dimensional solid and two choices of a unit cell. The entire crystal is reproduced by translational displacements of either unit cell, but (b) is generally preferred to (a) because it is smaller.

Rasm. 4.1. Elementar yacheykanin ikki o'lchamli tuzilishi va ikki variantda elementar yacheyka tanlash.

Butun kristallyacheykalardan birortasini parallel ko'chirib hosil qilinishi mumkin, lekin variant (a) imtiyozga ega, chunki unda maksimal simmetriya kuzatiladi, ayni paytda variant b) bo'lmaydi.

Elementar yacheykalar tanlashning keng imkoniyatlari mavjud. Misol sifatida ikki o'lchamli struktura olingan. Bunda kam o'lchamli va eng uyqori simmetriyaga ega bo'lgan elementar yacheykalar bo'lgani ma'qul. 4.1 a rasmdagi elementar yacheyka 2.1 b dan ko'ra n ma'qul hisoblanadi. Qog'oz varag'ida ikki o'lchamli hajmda uch o'lchamli strukturani tasvirlash anchagina mushkul, lekin kristallik modellar fazoviy tuzilishni tasvir qilishga imkon beradi.

Uch o'lchamli fazoviy strukturalarni tassavur etishda animatsiya yordam beradi. Odatdagi elementar yacheykada panjara tugunlari faqat qirralarda joylashgan. Ko'pgina ion va metallik birikmalar zarrachalardan (atomlar, ionlar) qattiq doirachalar kabi yasab chiqilishi mumkin. Agar kovalent bog'ning yo'nalishi bo'lmasa elektrik neytral atomlar fazoda erkin joylashadi va juda zich joylashgan struktura hosil qilinadi, bunda to'ldirilmagan fazo imkoni boricha kam bo'lishi kerak.

Zich joylashgan bir xil sharlardan har birining 12 ta qo'shnisi bo'lishi kerak, bu geometrik jihatdan eng bo'lishi mumkin eng katta sonidir., ayni paytda to'ldirilmadgdn fazoning hajmi 26 % ni tashkil etadi. Agar kovalent bog'da yo'nalish ahamiyatga ega bo'lsa struktura zich joylashmagan, atomning koordinatsion soni 12 dan kichik. Ion zaryadlangan sferik zarrachalar orasidagi itarilish va tortilish kuchlari, ion modelni tushuntirishda zich joylanish yoki boshqachaligini ahamiyati bor.

Elementar yacheyka – kristallning qismi bo'lib, uni aylantirishsiz va nusxa ko'chirishsiz butun kristallni hosil qilish mumkin bo'ladi. Qattiq moddalarning strukturasi qattiq sharlarning joylanishi bo'lib ionlar va atomlarning joylanishini o'z ichiga oladi. Zich joylashuvlarda to'ldirilmagan hajmning miqdori eng kam boladi.




Fig. 3.2 The seven crystal systems.

4.2-rasm.Kristall sistemaning 7 xil holati

2.2. Zich sharlarning joylashuvi

Bir xil zich joylasgan bir xil sharlarni birini ustiga ikkinchi qavat qo'yilgan sharchalar qatlami deb qarash mumkin. Birinchi qavat sharlarning uchburchakda biriga tegib joylanishidan hosil boladi (1). Uzoqroq qavatlar sharlarning ichlarida joylashgan qavatlarining ichida shakllanadi. To'la zich joylasgan qavat tekislikda 6 ta qo'shni sharlarga tegib turishidan uyzaga keladi (2.2 rasm).



1 zich joylanish


Rasmda bu qora kul rang sharlar bilan ko'rsatilgan. Ikkinchi qavat (kul rang) birinchi qavatning chuqurlariga sharlarning joylanishidan hosil bo'ladi. Uchinchi qavat (och-kul rang) ikki xil usulda joylanishi mumkin. Ula bir xil politiplardan iborat(tekislikda) , kekin uchunchi o'zgarish har xil. Bir politipda uchunchi qavat sharlari birinchi qavatning tagida yotadi. Bu qavatlarining takrorlaishi A B A B(bu erda A A qavatning shakllangan sharlari bo'lib B qavat ham shu taqlid sharlarning joylanib takrorlanisgiga sabab bo'ladi.) geksagonal elementar yacheykalarining strukturasi hosil bo'ladi, bunday politip geksagonal zich joylanish deyiladi.(гексогональная плотнейшая упаковка -ГПУ) рис. 2.3 b.

Ikkinchi politipda uchunchi qavatning sharlari birinchi qavatning chuqurlari tagida yotadi. Ikkinchi qavatning sharlari birinchi qavatdagi chuqurlarning yarmini egallaydi, uchunchi qavatdagi sharlar chuqurlar tagida qoladi. Bunday takrorlanish ABSABS..... joylanishga olib keladi, bu yerda C A va B bilan qavatlarda takrorlanishi bir xil emas, lekin aniq holatda C ning kelishini takrorlaydi. Bunday holat (rasm 2.3.b) kubsimon elektron yacheykaga mos keladi va kubsimon zich joylanish yoki yoqlari markazlashgan kub joylanish deyiladi (КПУ) yoki (ГЦК).


Bir xil sharlarning zich joylanishi har xil politiplar hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin, ulardan geksagonal va kubsimon zich joylanish keng tarqalgan.

2.3. Zich joylanishdagi bo'shliqlar

Yuqorida ko'rilgan modellar oddiy metallardan boshqa murakkab strukturalarni zich joylanishi borligini, bo'sh, band qilinmagam fazoni ikki xil bo'shliqlarni mavjudligini bayon etishda ishlatilishi mumkin. Zich joylasgan sharsimon joylanishlar barcha strukturalar hajmini band qilinmagan hajmi 26% ni tashkil etadi.



4.2. rasm. Zich joylanishning ikki xil politiplarining hosil bo'lishi: a — uchunchi qavat birinchi qavatning hosil bo'lishini takrorlaydi va ABA tuzilish uyzaga keladi.b) uchunchi qavat bo'shliqlari birinchi qavat boshliqlari ostida yotadi ABS strukturalar hosil bo'ladi.



4.3 rasm. Yachykalarning geksagonal zichlanishi(ГПЧ) A B A B ... (a) и гексagonal куб zichlanish (ГЦК) politplarning kelish ketmaketligi ABC A BC ... (б).

Bu qiymatlar kubsimon zich joylanish yacheykalarni ko'rishda r sharning radiusi uchun olingan. Bunday yacheyka tomoni $8^{1/2}r$, uni hajmi esa $8^{3/2} r^3$ teng bo'ladi. Elementar yacheyka 4 ta doirani o'z ichiga oladi, uni hajmi $4(4/3 \pi r^3)$. Mos ravishda to'lgan qism $16 \pi / 8^{3/2} \cdot 3$, yoki butau hajmni 0,74 qismini tashkil etadi.

Bo'shliqlarni turi va joylanish holati juda muhim, juda ko'p moddalar turli xil ion birikmalar va shuningdek metallar ham kengaygan zich joylashuvlar deb qaralsa, atom va ionlar hamma bo'shliqlarni yoki uni bir qismini egallaydi.

Oktaedrik bo'shliqlar bir-biriga nisbatan burilgan uchburchaklarni orasida qoshni sharlar orasida yotadi. Agar N sondagi atomlar zich joylashuvni hosil qilsa, bunda N sondagi oktaedrik boshliqlar hosil bo'ladi. 4.4 rasmda bu bo'shliqlarni geksagonal kub zichlanish uchun ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha bo'shliqlar oktaedrik simmetriyaga ega va 6 ta yaqin sferik zarrachalarni hosil qilgan. Ularning markazlari iktaedr qirralarida joylashgan.





Рис. 4.4. Oktaedrik boshliqlarning geksagonal kub zichlanishda joylashivi sxemasi. Panjara tugunlariga nisbatan joylashgan oktaedrik boshliqlarni nomlashda panjara tugunlariga qaratiladi.

Рис. 4.5. Geksagonal kub zichlanishda tetraedrik bo'shliqlarni atomlarga nisbatan joylasuvi. Ikki xil holatda tetraedrning ikki xil orientatsiyasi krsatilgan.

Haqiqiy strukturalarda bo'shliqlar haqiqatan bo'sh emas, chunki electron bulut zichligi birdan nol bo'lib qolmaydi. Agar har bir sfera r radiusga ega bo'lsa oktaedrik bo'shliq radiusi $0,414 r$ ortiq radius bilan band bo'lishi mumkin emas.



2 Oktaedrik bo'shliqlar

Tetredrik bo'shliqlar T 5 bir-biriga tegib turga ntekis uchburvhakdan hosil bo'lgan va o'zi hosil qilgan chuqurlikda yotadi. Har qanday zichlanishda ikki xil tetraedrik bo'shliqlar bor. Ularning birida tetraedr uyqoriga yo'nalgan, boshqa birida pastga yo'nalgan.

Zich joylashgan r radiusli doirada N ta tetraedrik bo'shliqlar bo'lsa, ularda $2N$ tetraedrik boshliqlarga ega va har bir bo'shliq $0,225 r$ radiusli doiralarni sig'dirishi mumkin. Tetraedrik bo'shliqlarni kubsimon gesksagonal zichlanish strukturada mavjud bo'lishi 2.5 rasmda berilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, har bir bo'shliq 4 doira qo'shniga ega, ular qirralarda joylashgan. Dastlabki struktura ancha qattiq bo'lsa, kata o'lchamli doiralalar bo'shliqda joylashadi.

Ko'pgina qattiq moddalarnin strukturasi taxminan bir xil turdagi atomlarning zich joylanishi tipidabayon etilishi mumkin, bunda okaedrik va tetraedrik boshliqlar boshqa atomlar bilan band etilgan bo'ladi. Okraedrik bo'shliqlar $0,414 r$ radiusli doiralarni joylashtirishi, tetraedrik bo'shliqlar bo'lsa har qanday $0,225 r$ radiusli doiralarni joylashtirishi muki.

Metallarning strukturasi

Ko'p metallar zich joylasuvga ega ekaligi rentgenografik usullarda o'rganilgan, bunda metall atomlarining yo'nalgan kovalent bog' hosil qilish qobiliyati bosh ekanligini ko'rsatadi (2.1 jadval). Zich joylanis oqibatlaridan biri metallarning zichligi uyqori ekanligidir, chunki kichik hajmda kata massa to'plangan. Haqiqatda d-metallarinig o'rta qismida joylashgan elementlar (iridiy va osmiy yonidagilar) odatdagi holatda eng zichligi katta qattiq moddalardir. Geksagonal zich joylasuvga ega elementlar uchun ideal zich joylasuvdan chetlanish odatiy holat va ko'p holatlarda qavatlar orasidagi masofalar nazariy ko'zda tutilganidan ancha katta bo'ladi.

2.1 jadval. 25 °S 101,3 kPa(1 bar) bosimda ba'zi metallarning strukturasi

Kristallik struktura	Elementlar
Zich geksogonal joylashuv (ΓIIY)	Be, Cd, Co, Mg, Ti, Zn
Kubsimon zich joylashuv (KIIY, ΓIIK)	Ag, Al, Au, Ca, Cu, Ni, Pb, Pt
Kubsimon hajmi markazlshgan joylasuv (OIJK)	Ba, Cr, Fe, W, ishqoriq metallar
Kubsimon (kub P)	Po

2.4. Politipiya

Metall ega bolgan strukturalar turlari (zich geksagonal joylasuv ΓIIY yoki kubsimon zich joylashuv ΓIIK), uning elektron tuzilishiga bog'liqd, atomlar

orasidagi ikkinchi qavatdagi o'zaro ta'sirga va bog'larnin qoldiq effektiga bog'liq bo'ladi. Aslida zich joylashuv ikkita odatdagi politiplardan biriga A BAB.... yoki ABCABC... Zich joylashuvlar qavati yanada murakkab shaklda bir-biri bilan bog'lanishi va cheksiz sondagi joylashuvlar mavjud bo'lishi mumkin.


Kobalt ana shunday murakkab politipiyaga misol bo'la oladi. 500K da u kubsimon zich joylashuvga ega, lekin sovutilganda fazalar o'zgarishi amalga oshadi. Olingan struktura tasodofiy bog'langan (ABACBABABC....) zich joylasuv qavatlaridan iborat. Kobaltning ba'zi namunalarida (shunngrek SiC da ham) politipiya tasodifiy emas, ketma-ketlik bir necha yuz qavatdan song takrorlanadi. Bu hodisani valent kuchlar ta'sirida tushuntirish qiyin. Uzoq davrli takrorlanish sababi kristallarning spiralsimon o'sishi oqibatida uyzaga kelishi mumkin, spiralning bir necha uyz aylanishi ketma-ket takrorlanadi. Zich joylashgan strukturalarda ham poitipiya hodisasi ba'zan kuzatiladi.

2.5. Zich joylashuv kuzatilmaydigan strukturalar¹⁹

Hamma metallar ham zich joylasuvga ega bo'lavermaydi, boshqacha joylasuv usullari ham bor, ularda ham fazo xuddi shunday samarali ishlatiladi. Zich joqlashuvga ega metallar ham qizdirilganda fazaviy o'zgarishlarga uchrabzichligi kam joylashuvga o'tib atomlarning issiqlik tebranish amplitudalari ortib boradi.

Eng keng tarqalgan strukturalardan biri hajmi markazlashgan kub strukturadir(kub-1 yoki HMK), unda doiralar qirrada va kub qmarkazida joylashgan (rasm 4.6). Shunday strukturaga ega bo'lgan metall atomlari coordination soni 8 ga teng. Hajmi markazlashgan kub strukturalarda geksoqonal zich joylasuv (GKS) va kubsimon zich joylasuvga (KZS) (ularda koordinatsion son 12 ga teng) kora joylasuvi zich bo'lmasa ham, farqi juda kata emas. HMK strukturada markaziy atom ikkinchi koordinatsion sferada 6 ta qo'shniga ega bo'lib, eng yaqin qoshnilardan bor yo'g'i 15 % uzoqlikka ega. Zich joylashuvlarda to'ld'rilmagan bo'shliq 26% bo'lgan holda bu joylanish 32 % to'ldirilmagan bo'shliqqa egaligi aniqlangan.

Metallarning ichida kam uchraydigani primitive kub struktura bo'lib (kub -P), ularda doiralar faqat kub qirralarida joylshgan (rasm 4.7). Kub-P strukturada koordinatsion son 6 ga teng. Polloniy shakl o'zgarishlaridan biri(o-Po) normal sharoitda shunday strukturada uchraydigan elementlarga birdan-bir misoldir. Qattiq simob ham shunaqa o'xshash strukturaga ega:u oddiy doiralarni kubga terish orqali hosil qilinadi va kubni hajmiy diagonal bo'yicha tortoiladi.



¹⁹ Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.

Рис. 4.6. Hajmi markazlashgan yacheyka-HMY (OЦK) (a) va uni panjarasi (б).




Рис. 4.7. Primitiv kub yacheykasi -kub -P (a) va uni panjarasi (б).


Vismut odatdagi sharoitda qavasimon tuzulishga ega bo'lsa ham, bosimni ko'tarilishi bilan avval primitive kubsimon va keyin hajmi markazlashgan kub strukturaga o'tadi. Uyqorida keltirilgan strukturalardan merakkabroq tuzilishga ega bo'lgan metallarda oddiy strukturalarning buzilgan variant ko'rsatilgan bo'ladi.

Ruz va kadmiy, masalan deyarli geksagonal zich joylasuvga ega, atomlarning zich joylashgan qatlamlari ideal geksagonal zich joylasuvdan anchagina kattaroq masofada joylashgan bo'ladi. Bu farq qatlamlardagi atomlarning o'zaro ta'siri tekislikda ancha kuchli ekanligidan dalolat beradi, bu esa atomlarni yaqinlashtirib, qoshni atomlarni chiqarib uyborishga intiladi.

Zich joylashuvlarga kirmaydigan va eng ko'p tarqalgan strukturalardan biri hajmi markazlashgan kub struktura; primitive kub struktura kamdan-kam uchraydi. Uyqorida ko'rsatilgan strukturalardan metallarning murakkab strukturalari oddiy strukturalarning buzilgan variantlaridir.


2.1. Rengenostrukturaviy analiz

Qattiq jismlar va molekualarda atomlarning joylashgan joyini aniq ko'rsatadigan eng tarqalgan va aniqligi uyqori bo'lgan usullardan biri bu rengenostrukturaviy usuldir. Noorganik kimyoda rentgenostrukturaviy usul organik kimyodan ham ahamiyati kata, chunki noorganik moddalar molekulari va qattiq jismlarning strukturalari juda xilma xildir. Organik modda molekularining taxmin qilingan struturasi spektroskopik usullar bilan aniqlanishi mumkin, lekin noorganik moddalarda bu usullarni yaroqligi kam. Buni ustiga noorganik modda molekularida bog'lar ancha ko'p e'tiborga olinadi va noorganik kimyogarlar kimyoviy bog'tabiatini baholashda bog' uzunligi va valent burchaklar to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanadilar.



4.8- rasm. Rentgen difraktometrining sxemasi.

Odatda monokristalli rentgen difraktometri (4.1-rasm) aniq to'lqin uzunligiga ega bo'lgan Rentgn nurlanishi manba'sidan, monokristallni ushlagichdan va detektordan iborat. Detektor va kristallning holati, u odatda anchagina kichik o'lchamga ega (tomonlari 0,2 mm dan) , u kompyuter tomonidan nazorat qilinadi. Kristallning aniq yoylanishida rentgen nurlari oqimi ma'lum burchak ostida difraksiyalanadi va uni intensivligi signallari difraksiyalangan oqim yo'nalaishida detektor yordamida o'lchanadi. Kompyuter nazoratida detektor har bir nurlanish, qaytish va ravshanliklar o'zgarishini nusxasini oladi. Odatda 1000 dan ortiq reflekslar holati va intensivligi ro'yxatga olinadi va ravshanligi yoziladi, shunda har bir struktura parametri uchun 10 dan ortiq kuzatiladigan parametrlar olinib (atomlarning holati va issiqlik parametrlar, atomlarning issilik harakati kuzatiladigan fazonong aniqlanish sohalari,- ellipsoid issiqlik tebranishlari).



4.2- rasm. Rentgenostrukturaviy tahlil asosida $K_4 [Re(CN)_7] \cdot 2H_2O$ tarkibidagi $[Re(CN)_7]^{4-}$ ioning tuzilishi.


Ayni strukturani biror modeli talanib yoki tanlash «to'g'ri usul» yoki difraksiyon qo'shilish usullari bilan atomlarning qanday joylanish imkoniyatlari borligi tanlanadi. Ushbu struktura modeli atomlar holatlarini sistematik siljishi hisoblanadigan va tajribalarda aniqlangan reflekslar ravshanligini solishtirib

aniqlanadi. 4.2-rasm rentgenostrukturaviy tahlilning grafik taqdim etilgan natijalarini namoyish etadi.

Bunday diagrammalarda qattiq jism molekulasi tarkibidagi bog' uzunligi, valent burchaklar ko'rsatiladi. Buni ustiga atomlar ellipsoidlar bilan belgilanib, atomlarning issiqlik tebranish amplitudalari va yo'nalishlari mos kelishi e'tiborga olinadi²⁰.

2.6. Metallarning polimorfizimi

Polimorfizmning keng tarqalishiga sabab metal atomlari hosil qiladigan bog'larning yo'nalishi ozligi hisoblanib u har xil sharoitda (bosim va haroratda) turlicha kristallik shakllar uyzaga kelishini ko'rsatadi. Masalan, temir qiziridirilganda atomlar har xil zich joylasuvni hosil qilib bir necha qattiq fazali otishga uchraydi. Polimorf metallar odatda (har doim ham emas) α, β, γ ... holatlarda harorat ortishi bilan belgilanadi. Ba'zi bir metallar o'zlarining past temperaturali shakllariga uyqori haroratda ham qaytadilar.



4.3. Rasm. α -Sn tuzilishining ikkita usuli.

Ularning geksagonal kub zichlanish bilan bir xil ekanligini aytib o'tamiz(4.3 rasm), bunda qo'shimcha qalay atomlari tetraedrik bo'shliqlarning yarmini egallagan. Xuddi shunday struktura olmos, kremniy va germaniyda uchraydi.

Temir masalan, quyidagi polimorf shakl o'zgarishga ega: α -Fe u hajmi markazlashgan kub kristall panjaragali yacheykaga ega u 906 °S gacha mavjud bo'ladi, γ Fe geksagonal kub kristall panjarali holatda u 1401 °S gacha saqlanadi. Keyin α -Fe yana paydo boladi va suyqlanish harorati 1530 oS gacha saqlanadi. β -Fe geksagonal zich joylashuvga ega uyqori bosimda hosil bo'ladi. Juda uyqori bosimlarda zichligi katta fazaning erkin Gibbs energiyasi uyqori zichlikka ega bo'lgan fazadan uyqori bo'ladi, ana shu tufayli zichligi kata fazaga o'z-o'zidan o'tish amalga oshadi.


Xona sharoitida qalay oq qalay holatida bo'ladi (β -Sn) 14,2 °S haroratda u kul rang qalayga (α -Sn) o'tadi, lekin o'tish past haroratda metallni ancha uzoq vaqt ushlab turgandagina amalga oshadi. Kul rang qalay olmosga o'xshash tuzilishga ega (rasm 2.8). Oq qalayning tuzilishi juda boshqacha. Undagi har bir atom 4 ta eng yaqin qo'shniga ega bo'lib, ular kul rang qalayga nisbatan anchagina kattaroq masofada, ya'ni uyqori haroratli shakl o'zgarishga nisbatan kutilgan holatda joylashgan. Lekin oq qalay ancha cezilarli zichlikka ega(7,1 gr/sm³ kul rang qalay 5,75 gr/sm³). Bu holat oq qalaydagi ikkinchi koordinatsion sferadagi

²⁰ Stout G.H., Jensen L. X-ray structure determination: a practical guide. Wiley, New York, 1989.

doiralarning joylanishi kul rang qalayga nisbatan ancha yaqin masofada ekanligini ko'rsatadi, ushbu holat atomlarning ancha zich joylashganligini bildiradi.

Shuning uchun ham qalayning konsentrlangan xlorod kilotada erishida oq qalay SnCl_2 va kul rang qalay SnCl_4 hosil qilishi strukturaning kimyoviy xossalarga ta'sirini ko'rsatadigan juda qiziq faktlardan biri hisoblanadi. Bu xulosa $dG_m = V_m dp$ termodinamik munosabatdan kelib chiqadi va unga ko'ra Gibbs energiyasining molyar miqdori molyar hajm kata bo'lganida bosimga kuchli bog'langanligini ko'rsatadi.

Hajmi markazlashgan kub strukturani past haroratda zich joylasuvlar hosil qiladigan metallar uyqori haroratda hosil qiladi, chunki ular issiqlik tebranma amplitudalarini ortishi uyqori haroratli shakllarda zichligi kam holatlarni talab qiladi. Ko'p metallarda (masalan, Ca, Ti va Mn) fazalar o'tish harorati xona haroratidan uyqori ; ayni paytda boshqa metallarda (masalan Li, Na) xona haroratidan pastda. Empirik jihatdan hajmi markazlashgan kub struktura valent elektronlari soni kam bo'lgan atomlar uchun xos ekanligi aniqlangan. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, kationlarni zich joylasuvga yig'ish uchun ularning elektron zichligi katta bo'lishi kerak, ishqoriy metallar bo'lsa buning uchun etarli elektronlarga ega emaslar.



Polimorfizm metallik bog'larning bo'sh yo'nalganligidan kelib chiqqan holatdir. Hajmi markazlashgan kub struktura past haroratlarda zich strukturalarga ega metallar uchun odatiy holat bo'lib, atomlarning tebranma amplitudalarini ortishi zich joylashuvi kam bo'lgan strukturalar hosil bo'lishiga olib keladi.

Table 3.2 The crystal structures adopted by metals under normal conditions

Crystal structure	Element
Hexagonal close packed (hcp)	Be, Ca, Co, Mg, Ti, Zn
Cubic close-packed (ccp)	Ag, Al, Au, Cd, Cu, Ni, Pb, Pt
Body-centred cubic (bcc)	Ba, Cr, Fe, W, alkali metals
Primitive cubic (cubic-P)	Po

2.8. Qotishmalar

Qotishmalar – suyqlantirilgan metallarning aralashtirishdan tayyorlangan, so'ngra aralashmani sovutib olingan bir jinsli tizimlardir. Ular bir metallning atomi boshqasida taqsimlangan, ma'lum aniq tarkibga ega birikmalar va ichki strukturali ega bo'lgan bir jinsli qattiq eritmalar hisoblanadi.

Qattiq eritmalar ikkiga : qattiq «mehmon» eritmalarga va qattiq almashingan eritmalarga bo'linadi. Metall erituvchining joylaridagi ma'lum holatlar erigan metal atomlarinig almashinuvi natijasida qattiq eritmalar hosil qiladi(rasm 2.9 a). qattiq «mehmon» eritmalarda metal erituvchining panjarasidagi tugunlar orasidagi bo'shliqlar erigan metallning atomlarini mehmon bo'lib kirib borishi natijasida qattiq eritmalar hosil bo'ladi(4.4- rasm). Lekin bunday bo'linish doim ham to'g'ri kelavermaydi , ba'zan qattiq «mehmon» eritmalar boshqa strukturalardagi atomlarni ba'zi qismlarining almashinuvi deb ham qaraladi.





Fig. 3.26 (a) Substitutional and (b) interstitial alloys. (c) In some cases, an interstitial alloy may be regarded as a substitutional alloy derived from another lattice.

4.4 rasm. Almashingan (a) va «mehmon» qotishmalar (b). Ba'zi holatlarda qattiq eritmaga atomlarning boshqa strukturasiga atomlar qismlari kirib qolgan mahsulotlar (b) deb qaralishu mumkin.



4.6-rasm. Fe va [rom qotishmalarini kristall panjarasi.

Yaxshisi qattiq eritma – bu yangi modda uni strukturasini dastlabki metal strukturasini bilan bog'laishi tasodifiy tavsifga ega. Juda yaxshi misol sifatida latunni olsa bo'ladi(misdagi 40 % rux bo'lishi), bronza(boshqa metallning misda erishi, quyilgan bronza (10 % qalay va 5 % qo'rg'oshin) va zanglamaydigan po'lat (temir tarkibida 12 % xrom).

a) Qattiq almashingan eritmalar

Qattiq almashingan eritmalar quyidagi 3 holatda hosil bo'ladi:

- 1 . Elementlarning atom radiuslari bir-biridan hech bo'lmasa 15 % ga farq qiladi.
2. Toza holatlarda metallarning kristall strukturalari bir xil; bu metallarning ikki turi bir-biriga kirishish qobiliyatiga ega orasidagi o'zaro ta'sir yo'nalgan hisoblanadi.
3. Komponentlarning elektromusbat xarakteri bir-biriga yaqin, aks holda birikma hosil bo'lish ehtimolligi katta bo'lar edi.

Zero, natriy va kaliy kimyoviy juda o'xshash elementlar bo'lib, ular hajmi markazlashgan strukturaga ega, natriyning atom radiusi (1,91 A) kaliyning atom

radiusidan 19 % ga kam(2,35 A)va ikkala metal qattiq eritma hosil qiladi.Boshqa tarafdin, qo'shni d-blok elementlari bo'lgan mis va nikel bir xil geksagonal kub kristal zichlanishga ega bo'lgan holda , ularning atom radiuslari (Ni ,25 A, Cu 1,28 A farq bor yo'g'i 2,3 %) va ular toza nikeldan toza misgacha bo'lgan uzluksiz qattiq eritmalar qatorini hosil qiladi. Misning IV davrdagi boshqa qo'shnisi rux ham yaqin atom radiusiga ega (1,37 A 7% ga farq qiladi), lekin ruxning strukturasi geksagonal zich joylasuvga ega element. Shuning uchun bu elementlar faqat qisman aralashadi va qattiq eritmalar chegaralangan konsentratsiyalar oralig'idagina hosil bo'ladi.

Qattiq almashungan eritmalar agar uyqoridagi shartlar bajarilsa hosil boladi.


6) Metallmaslarning qattiq «mehmon» eritmaları

Metallmaslarning qattiq «mehmon» eritmaları metallmaslar ishtirokida hosil bo'ladi (masalan bor va uglerodda), bu holatlarda ularning atomlari erituvchining chuqurlariga kirishi mumkin bo'lar dajada kichik bo'lishi kerak. Kichik atomlar «mezbon» metallning dastlabki panjara strukturasi saqlashi kerak. Bunda metal atomlarining soni bilan «mehmon» atomlari orasida eng oddiy nisbat (Fe_3C), ya'ni metallarning bo'shliqlarida kichik atomlarning joylanishi tartibsiz taqsimlanishi kerak bo'ladi. Birinchiholatda kimyoviy birikma hosil bo'ladi va kkinchi holatda qattiq eritma hosil bo'ladi. Atomlarning o'lchamini tahlil etish qattiq eritma hosil bo'ladimi yoki yo'qmi hal etishga yordam beradi. Xullas, eng katta «mehmon» atomlarning o'lchami ham zich joylanishni buzmasdan qabul qilinishi va ayni paytda oktaedrik bo'shliqlar o'lchamiga ham mos bo'lishi , yani 0,414 r radiusga (agar struktura qattiqqlarga mos kelsa) yaqin bo'lishi kerak. H,B,C va N «mezbon» metallning strukturasi «mehmon» bo'lishi uchun metall «mezbon»ning atom radiusi 0,90 A, 1,95 A,1,88 A va 1,80 A mos ravishda kichik bo'lishi kerak. IV davr metalli nikel (atomning radiusi 1,3 A) keng chegarada «mehmon» bor, uglerod va azot bilan «mezbon» qattiq eritmalarining hosil «mehmon» atomlar xo'jayin bilan oziga xos bog'lanishlar borligini ko'rstadi.

«Mehmon» va «mezbon» turidagi qattiq eritmalar metallmas atomlarining dastlabki metallda bo'sh chuqurlardan ancha kichik bo'lgan holatlarda uyzaga keladi.

В) Intermetallidlar

Qattiq holatdagi metal va metallmaslarning mehmon-mezbon eritmalaridan tashqari qattiq eritmalar sinfi borki, ularni yaxshisi elektromanfiyligi yaqinligiga qaramasdan ikki metalldan hosil bo'lgan kimyoviy birikmalar deb qarash kerak. Masalan, metallarning suyq aralashmasi sovutilganda ma'lum strukturaga ega bo'lgan va dastlabki strukturaga hech qanaqa aloqasi bo'lmagan yangi fazali strukturalar paydo bo'ladi. Bu fazalar intermetallidlar deyiladi. Ularga



4.7-rasm. Intermetallidlarining kristall tuzilishi.

misol qilib, β - latunni (CuZn) olsa bo'lad va tarkiblari MgZr_2 , Cu_3Au va Na_5Zr_2 ni olish nmumkin. Bu kimyoviy formulalar fazalar diagrammasidagi chegara tarkiblarni ko'rsatib odatdagi kimyoviy birikmalarga kirmaydi.

Intermetallidlar ikki metallardan hosil qilingan birikmalardir.

Ionli birikmalar

Ion birikmalar , masalan. Natriy xlorid kaliy nitrat, mo'rtligidan bilinadi, bu esa o'z navbatida kation hosil bo'lganidan so'ng bo'shagan elektronlar, qo'shni anionga harakat qiladi, ammo elektron gaz hosil bo'lmaydi. Ular qoidaga ko'ra uyqori suyqlanish haroratiga ega , ko'plari polyar erituvchilar, albatta suvda eriydi. Ammo, istisnolar ham bor, kasiy ftorid- uyqoro suyqlanish haroratiga ega modda, lekin suvda erimaydi. Ammoniy nitrati ion birikma, lekin suyqlanish harorati 170°S (juda beqaror). MgO va NH_4NO_3 dagi anomaliya ion bog' ta'rifini ancha aniqlshtirishni talab qiladi.

Ion birikmalar

Ion birikmalarning rentgenografiyasi ionli kristall strukturalarda koordinasion son kichik ekanligini ko'rsatadi. Bu kichik son ionli birikmalarning kichik zichligiga mos keladi. Shunga qaramay koordinatsion son metal bog'ning ion bog'dan farqlshga imkon beradi, ayni paytda kovalent strukturalarda ham kichik koordinatson son kuzatiladi (masalan olmos uchun koordinatsion son 4 ga teng), ana shu tufayli ham koordinatsion son juda aniq o'lchov bo'la olmaydi. Ion bog'ning ta'rifi uning xossalari ion modeldan kekib chiqadigan qattiq jismmda jamlangan qarama-qarshi zaryadli ionlarning jamlanishidan keib chiqadigan elektrostatik tortishuviga bog'langan (bir paytni o'zida elektron qavati tugallangan ionlar orasidagi itarilish kuchlari e'tiborga olingan). Qattiq moddaning termodinamik xossalari nazariy ion model asosida uyaga keladigan xossalarga tajrba natijalari mos kelganda ion bog' deb qabul qilinadi.

Ion model ta'rifiga ko'ra elektrostatik ta'sir kuchlari asosida qarama – qarshi zaryadlangan doiralar jamlamasidir. Bu model asosida qattiq moddaning tajribadagi termodinamik xossalari ion model asosida hisoblangan quymatlarga mos kelsa bu qattiq moddani ion birikma deb hisoblash mumkin.

2.9. Ion birikmalar turlarining asosiy strukturalari

Bu yerda tavsif etilgan ion strukturalar k'opdan qattiq moddalarning tuzilishiini bayon etishda andoza sifatida kerak bo'ladi. Misol sifatida, osh tuzi NaCl ko'pgina qattiq moddalarda ham uchraydi (2.3 jadval).

2.3 jadval. Moddalarni struktura tiplari bo'yicha taqsimlanishi

Kristall struktura	Moddalarga misollar
Antifluyorit	K_2O , K_2S , Li_2O , Na_2O , Na_2Se , Na_2S
Seziy xloridi	CsCl, CsS, TlSb, CsCN, CuZn
Fluyorit	CaF_2 , UO_2 , $BaCl_2$, HgF_2 , PbO_2
Nikel ersenidi	NiAs, NiS, FeS, PtSn, CoS
Perovskit	$CaTiO_3$, $BaTiO_3$, $SrTiO_3$
Tosh tuz	NaCl, LiCl, KBr, RbI, AgCl, AgBr, MgO, CaO, TiO, FeO, NiO, SnAs, UC, ScN
Rutil	TiO_2 , MnO_2 , SnO_2 , WO_2 , MgF_2 , NiF_2
Sfalerit (aldama rux)	ZnS, CuCl, CdS, HgS, GaP, InAs
Vuyrtsit	ZnS, ZnO, BeO, MnS, AgI ⁶ , AlN, SiC, NH_4F

¹qora chiziqli bilan belgilangan birikmaning nomi shu struktura tipiga berilgan.

2 kumush iodid tuzulishi sfalerit strukturasiga ega, lekin bu birikma metastabil holatda bo'ladi.

Ko'p moddalar strukturasini zich joylanishlar hosilasi deb qaralishi kerak, bunda anionlar (ba'zan kationlar) geksagonal kristall panjara yoki geksagonal kub kristall panjara hosil qilishi va eng asosiysi qarshi ionlarni panjaradagi oktaedrik yoki tetraedrik bo'shliqlarni egallashi e'tiborga olinadi.

a) Osh tuzining strukturasini


O'sh tuzining strukturasini geksagonal kub struktura bo'lib tugunlarda anionlar turadi va kationlar bo'lsa oktaedrik bo'shliqlarni egallaydi (2.10 rasm). Har bir ion 6 ta qarshi ion boglangan bo'lib, ular oktaedr qirralariga joylasgan. Har turdagi ionning koordinatsion soni 6 ga teng va bunda (6,6) koordinatsiya deyiladi. Bu yozivda birinchi son kationning koordinatsion soni, ikkinchi son bo'lsa anionning koordinatsion soni belgilangan.

Table 3.4 The crystal structures of compounds


Crystal structure	Example*
Antifluorite	K_2O , K_2S , Li_2O , Na_2O , Na_2Se , Na_2S
Caesium chloride	CsCl, TlI, CsAu, CsCN, CuZn, NbO
Fluorite	CaF_2 , UO_2 , HgF_2 , LaH_3 , PbO_2
Nickel arsenide	NiAs, NiS, FeS, PtSn, CoS
Perovskite	$CaTiO_3$ (distorted), $SrTiO_3$, $PbZrO_3$, $LaFeO_3$, $LiSrH_2$, $KMnF_3$
Rock salt	NaCl, KBr, RbI, AgCl, AgBr, MgO, CaO, TiO, FeO, NiO, SnAs, UC, ScN
Rutile	TiO_2 , MnO_2 , SnO_2 , WO_2 , MgF_2 , NiF_2
Sphalerite (zinc blende)	ZnS, CuCl, CdS, HgS, GaP, InAs
Spinel	$MgAl_2O_4$, $ZnFe_2O_4$, $ZnCr_2S_4$
Wurtzite	ZnS, ZnO, BeO, MnS, AgI, AlN, SiC, NH_4F

*The substance in bold type is the one that gives its name to the structure.

Osh tuzi ion strukturasi likan qurshovini tassavur etish uchun markaziy ionning yacheykadagi 6 ta eng yaqin qo'shnilari (4.10 rasm) kub qirralarida yotib, markaziy ion atrofida oktaedr hosil qiladi. Barcha qo'shnilar markaziy ionga teskari ishoraga ega. Ikkinchi koordinatsiyani hosil qiladigan 12 ta ion anchagina uzoqroq masofada elementar yacheyka qirralarini egallaydi va markaziy ion bilan bir xil zaryadga ega bo'ladi. Yacheyka qirralarida joylasgan uchinchi koordinatsion sferaga ega 8 ta ion markaziy ionga qarama-qarshi zaryadlangan. Elementar yacheykaga kiradigan har turdai ion sonini aniqlash uchun, shuni hisobga olish kerakki, yacheyka ichiga to'la kirmagan hamma ionlar, nafaqat yacheykaga, balki u bilan chegaradosh qo'shni ionlarga ham tegishli bo'ladi:



Rasm. 4.8. Osh tuzining strukturasi. E'tibor beramiz geksagonal kub struktura 4.4 rasmdagigi har bir oktaedrik boshliqlardagi anionlar strukturasi o'xshaydi. Boshqa tarafdin geksagonal kub panjara zich joylashgan anionlarning kationlar bilan oktaedrik boshliqlarda joylashganini ko'rsatadi.



Rasm 4.9. Seziy xlorid strukturasi.

E'tibor beramiz (4.9-rasm), cho'qqilardagi ionlar 8 ta yacheykaga tegishli va 8 ta qo'shni bilan o'ralgan. Kationlar bo'lsa kub bo'shliqlarni egallaydi.


1. Elementar yacheykadagi ion o'ziga tegishli uni hissasi 1 ga teng.
2. Chegaradagi ionlar ikkita yacheykaga tegishli uni bizni qiziqtiruvchi yacheykaga ta'siri $1/2$ ga teng.
3. Qirralardagi ionlar 4 ta yacheykaga tegishli bo'ladi va mos ravishda uni hissasi $1/4$ ga teng.
4. Tugunlardagi ion 8 ta bir biri bilan uchrasadiga cho'qqilar yacheykasiga tegishli va uning hissasi $1/8$.

Elementar yacheykada (4.10 rasm) 4 ta natriy ioni 4 xlor ioni turadi va har bir elementar yacheyka to'rtta NaCl birliklari saqlaydi.

Osh tuzi geksagonal kub strukturali anionlardan tashkil topgani va ularda oktaedrik bo'shliqlarda kationlar turadi (yoki teskarisi).

6) seziy xloridning strukturasida

Seziy xlorid (4.9 rasm) osh tuzi strukturasiga nisbatan kam tarqalgan. Shunaqa kristallanish CsCl , CsBr va CsI hamda ion radiuslari yaqin bo'lgan boshqa birikmalar (masalan NH_4Cl) 2.3 jadval. Seziy xlorid kub elementar yacheykaga ega, unda cho'qqilarda anion turadi, kationlar bo'lsa yacheyka markazida kub bo'shliqlarda turadi. Har bir ionning koordinatsion soni 8 ga teng. Ayni ionlar bir-biriga juda yaqin radiuslar, bu holda (8,8) struktura o'rinli bo'lib va boshqa qarshi ionlar uchun ham tegishli bo'ladi.




4.10- rasm. Kalsiy karbid va ammoniy xloridning kristall panjarasi.

Seziy xlorid kub elementar yacheykaga ega, uni har bir cho'qqisi anion bilan band, kationlar bo'lsa kub markazida turadi(yoki teskarisi).

8) sfarelit strukturasida

Sfarelit strukturasida (4.11 rasm) aldama rux nomi bilan mashhur u ZnS mineralining nomidan kelib chiqadi. U kengaygan geksagonal kub panjaragada anion turadi, kationlar bo'lsa tetraedrik bo'shliqlarni egallaydi. Har bir ion 4 qo'shni ion bilan bog'langan, shuning uchun bu yerda (4,4) koordinatsiya mavjud.



4.11-rasm. Sfalerit kristall strukturasida.

Sfarelit anionlarning kengaygan geksagonal kub kristall panjara boli'b, kationlar tetraedrik bo'shliqlarni egallagan.

9) Fluyorit va antiflyorit strukturalari


Fluorit strukturasida fluyorit minerali CaF_2 nomidan kelib chiqqan. Bu mineralda Ca^{2+} kationi kengaytirilgan geksagonal kub kristall panjara hosil qiladi, unda F^- anioni ikki xil turdagi tetraedrik boshliqlarni band etgan (4.12 rasm).

Antifluorit strukturasida bu fluyorit panjarasiga teskari bo'lgan holda u yuzaga kelib, ularda anion va kation turgan joylari almashtiriladi. Bunday struktura ishqoriy metallar oksidlari uchun o'rinlidir, masalan K_2O . Ularda kationlar

anionlarga nisbatan ikki marta katta bo'lib, ular geksagonal kub panjaradagi anionlarning barcha tetraedrik bo'shliqlarni egallagan.

Fluyorit strukturasidagi anionlar o'zlarinig tetraedrik turgan joylarida 4 ta eng yaqin qo'shniga ega. Kationlar bo'lsa kub qurshovga ega bo'lib 8 ta anion bilan o'rab olingan. Boshqacha qarashlarda anionning kum primitive panjarasida kationlar keb bo'shliqlarni yarmisini egallagan.



Fluyorit¹ deyilishining sababi u oson suyqlanadi va suyqlantiruvchi gorelka bilan qizdirilganda bug'lanib ketadi va shu tufayli uni qimmatbaho toshlardan farqlash mumkin. Ta'kidlaymiz², N atomlardan tashkil topgan panjara ikki baravar ko'p 2 N tetraedrik bo'shliqlarga ega.,



Rasm . 4.12. Sfaleritning (aldama rux) ikki xil usuldagi strukturası.

Uni 4.5 rasmdagi geksagonal kub kristall panjaraga o'xshashligini ta'kidlaymiz, uni tetraedrik bo'shliqlarini yarmi Zn^{2+} ionlari bilan band etilgan.

Rasm 4.13. Fluyorit strukturası (ikki xil usulda). Bu struktura kationlarning geksagonal kub panjaragasi bo'lib unda anionlar barcha bo'shliqlarni egallagan.



Boshqa tarafdin bu struktura kationlarning primitiv kub panjarasi bo'lib ularda anionlar kub bo'shliqlarni yarmini egallagan.

Ayni paytda bu struktura seziy xlorid bilan o'xshash bunda kub bo'shliqlarni barchasi band etilgan. Bu struktura (8,4) koordinasiyaga ega bo'lib, unda anionlar kationlarga nisbatan ikki baravar ko'p. Antifluyoritda bo'lsa teskari koordinasiya, yani (4,8).


Fluyorit strukturasida anionlarning primitive kub panjarasida kationlar kub bo'shliqlarni yarmini egallaydi. Boshqachasiga kationlarning kengaygan geksagonal kub panjaradasida anionlar tetraedrik bo'shliqlarning barchasini egallagan. Antifluyoritning strukturasida kation va anionlar o'z joylarini almashtiradi.

д) Vuyrtsit strukturası

Vuyrtsit strukturası oz nomini (4.14 -rasm) nruks sulfidining polimorf shakl o'zgarishidan olgan. Bu struktura sfalerit strukturasidan farqi geksagonal kub kristall panjaraning xususiy holi bo'lib, unda ham sfaleritga o'xshash kationlar

faqat bir xil tetraedrik bo'shliqlarni egallaydi. Vuyrtsit strukturasi (4,4) koordinasiyaga ega, bolib ZnO, AgI va SiC ning polimorf shakl o'zgarishlarida uchraydi (2.3- jadval). Sfarelit va vuyrtsit kation va anionlarining eng yaqin qurshov simmetriyasi bir xil, lekin ikkinchi koordinasiya farq qiladi.

Vuyrtsit strukturasi anionlarning kengaygan geksagonal zich joylanish holatining hosilasi bo'lib, rftionlar bir xil tetraedrik bo'shliqlarni egallagan.




4.14-Vyursit kristall strukturasi

e) Nikel arsenidining tuzilishi

Nikel arsenidining NiAs (4.15 rasm) strukturasi ham anionlarning kengaygan va buzilgan geksagonal zich joylanishiga (ГПГ) asoslangan, bunda Ni atomlari oktaedrik bo'shliqlarni egallagan, ayni paytda As atomlarishu atomlardan tashkil topgan trigonal prizma markazida turadi. NiS, FeS va boshqa ko'p sulfidlar shu tariqa kristallanadi. Nikel sulfidining strukturadiMX turdagi tarkibida qutblashadigan kationlar va qutblashadigan anionlar tutgan birikmalarga xarakterli bo'libularda bog'ning bu moddalarda kovalent tabiati ustunligi to'g'risida taxmin qilish mumkin bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki,kristallanadigan strukturalarda to'la geksagonal zich joylanish hosil qiladigan birikmalar yo'q, chunki qavatlar bir-biriga metal-metal ta'sit tufayli yaqinlasgan.

Nikel arsenidining tuzilishi anionlarning kengayib buzilgan geksagonal kristall panjarasiga asoslangan, unda kationlar okaedrik bo'shliqlarni egallagan.



4.14 rasm. Vuyrtsit strukturasi u geksagonal panjaraning xususiy holatidir (2.3 b rasm).

4.15 rasm. Nikel arsenidining strukturasi u geksagonal panjaraning xususiy holati bo'lib (2.3 b rasm). As va Ni atomlarining prizmatik va trigonal antiprizmatik lokal koordinasiasini etibotga olish zarur.

ж) Rutil strukturasi

Rutil strukturasi (4.16 rasm) o'z nomini rutil minerali TiO_2 olgan. Bu anionlarning geksagonal zich joylasuviga misol bo'lib kationlar oktaedrik bo'shliqlarning yarmini egallagan.


Bunday joylanish titan atomlarining oktaedrik qurshovda bo'lishga intilishiga olib keladi.

Har bir titan atomi 6 ta kislorod atomi bilan o'ralgan, har bir kislorod bo'lsa ucha titan atomi bilan o'ralgan, lemak, rutil strukturasi (6,3) koordinasiyaga ega. Ana shunday kristallanishga qalayning eng asosiy rudasi kassiterit ega, va qator ftoridlar (2.3 jadval) shunday kristallanadi.

Rutil strukturasi anionlarning geksagonal zich joylashiviga ega, unda kationlar oktaedrik bo'shliqlarning yarmini egallaydi.




3) Perovskit strukturasi

Mineral perovskit CaTiO_3 strukturasi ko'pdan ko'p birikmalar ABX_3 strukturasi andozasi boladi (2.3 jadval). Idial perovskit strukturasi (4.17 rasm) kubdagi A atomlarning 12 ta X atomlarni va B atomlari o'ralishidan hosil bo'lgan va ular yana 6 X atomi bilan o'ralgan. A va B kationlari zaryadining summasi 6 ga teng bo'lishi kerak, bu bir necha xil usulda amalga oshadi (ularni ichida $\text{A}^{2+} \text{B}^{4+}$ va $\text{A}^{3+} \text{B}^{3+}$), shuningdek aralash oksidli formulalar hosil bo'lishini ham e'tiborga olish kerak $\text{A}(\text{B}_{0,5}\text{B}'_{0,5})\text{O}_3$, shuningdek $\text{La}(\text{Ni}_{0,5}\text{Ir}_{0,5})\text{O}_3$. Perovskit strukturalari juda qiziq elektrik xossalarga ega materiallar: p'ezoelektriklar, ferroelektriklar, va uyqori haroratdagi o'ta kuchli o'tkazgichlarga tegishli.



4.16 rasm. Rutil strukturasi TiO_2 polimof shakl o'zgarishiga tegishli

4.17 rasm. Perovskit strukturasi ABX_3 turi mineral CaTiO_3 .



4.18 rasm. Titan atomining perovskitdagi local koordinasion o'ralishi.

4.19 rasm. Shpinellar strukturasi AB_2O_4 panjarada O^{2-} geksagonal kub zich joylanishga ega. Ularda A kation tetraedrik bo'shliqlarni $1/8$ qismini egallagan va B bo'lsa oktaedrik bo'shliqlarni yarmini egallaydi.

Perovskit strukturasi (ABX_3)- kubda A atomi 12 ta X atomlari va B atomi qurshovida ular esa 6 ta X bilan o'ralgan.

i) Shpinellar

Mineral shpinell formulasi — $MgAl_2O_4$, umuman shpinellar AB_2O_4 formulaga ega. Shpinellar strukturasi O^{2-} geksagonal kub panjarasidan iborat, ularda A kation tetraedrik bo'shliqlarni $1/8$ qismini, B katin bo'lsa yarmini egallaydi (4.19 -rasm). Ba'zan shpinellar formulasini $A[B_2]O_4$ holatida yoziladi, kvadrat qavsda oktaedrik koordinasiyadagi kationlar yozilgan. Shpinell tipida d-blokning bir qancha oddiy oksidlari masalan Fe_3O_4 , Co_3O_4 va Mn_3O_4 lar kristallanadi. Bunda A va B kationlar bir xil elementlardir. Ba'zan o'zgargan shpinellar uchraydi, ularda kationlar qayta taqsimlanishi amalga oshgan va formula $B[AB]O_4$ holatga o'tadi.







Fig. 3.44 (a) The spinel structure showing the tetrahedral oxygen environment around the B cations, (b) showing the octahedral oxygen environment around the A cations, and (c) its projection representation with only the cation locations specified.

Shpinellar strukturasi AB_2O_4 O^{2-} anionlarining geksagonal kub zich joylashuviga ega, bu erda A kationlar tetraedrik bo'shliqlarni $1/8$ qismini, B kation bo'lsa oktaedrik bo'shliqlarni yarmini egallaydi.



a) Ion radiuslar



4.20-rasm. Koordinatsion songa bogliq bo'lgan holda ion radiusini o'zgarishi.

4.21-rasm. Elektron zichlikni o'zgarishi Li-F dan LiF gacha.

Ion raduyslar uchun quyidagi umumiy qonuniyatlar kuzatiladi va ular atom raduysga ham tegishli bo'ladi:

- 1. Ion raduyslar gerehda uyqoridan pastga qarab ortib boradi. Faqat lantanidlarda 5-d elementlarda ortish cheklanadi n sabbab lantanidlardagi siqilish e'tiborga olinishi kerak.**
- 2. Davr bo'y labbir xil zaryadli ionlar uchun ionlar raduysi kamayib boradi.**
- 3. Agar ion har xil koordinasion qurshovda bo'lsa koordinasion son ortishi bilan ion raduysi ortib boradi.**
- 4. Agar element xar xil zaryadli kationlar hosil qilsa, zaryad ortishi bilan kamayadi.**
- 5. Odatda atom nomeri yaqin elementlarda kationlar anionlarga nisbatan kichik bo'lib, bu musbat zaryadlangan ionlar hosil bo'lishida elektron berilishi bilan amalga oshadi.**

Uyori oksidlanish darajasiga kationlar katta anionlar bilan barqarorlanadi. Katta kationlar kata anionlarni barqarorlaydi. Termik beqaror birikmalar barqarorligi kation radiuysi ortishi bilan ortib boradi. Reaksiyaning entalpiyasi uyqori bo'lsa parchalanish harorati ham uyqori boladi (4-20-4.21 –rasmlar).

Har xil raduysdagi ionlar tutgan birikmalar qoidaga ko'ra suvda eriydi. Va teskarisi suvda kam eriydigan birikmalar ion raduysi bir-biriga yaqin boladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" –5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir", 2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T., 2016.-512 b.

Blis so'rov uchun savollar:

- 1. Kristallar hosil bo'lish usullari;**
- 2. Oddiy qattiq moddalarning tuzilishi;**
- 3. Metallarning asosiy struktura turlari;**
- 4. Ionli birikmalarning tuzulishi;**
- 5. Ionli birikmalarning eng asosiy struktura turlari;**
- 6. Qattiq eirmalar.**

6-ma'ruza

3.3. Eritmalar kimyosi. Kislotalar va asoslar. Brensted kislotalari. Brensted bo'yicha asoslarning tavsiflanishi. Lyuis kislotalari. Lyuis kislota va asoslarining xossalari va reaksiyalari

Reja:

- 1) Eritmalar
- 2) Kontsentrasiyani ifodalash usullari
- 3) Gidratlar va kristallogidratlar
- 4) Qattiq, suyuq va gaz moddalarning eruvchanligi
- 5) Osmos hodisasi va osmotik bosim
- 6) Raul qonunlari
- 7) Kislota va asoslar to'g'risidagi zamonaviy tassavurlar.
- 8) Kislota va asoslar to'g'risidagi Brensted-Louri nazariyasi.
- 9) kislota va asoslar to'g'risidagi lyuis nazariyasi.
- 10) Akva va gidroksiionlar.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

Tayanch so'zlar: erituvchi, erigan modda, eritma, eruvchanlik, ritmalar kontsentratsiyasi. Molyar, normal, foiz, molyal kontsentratsiya. Molyar qism. Qattiq, gaz, suyuqliklarning erishi. Gidratatsiya, kristallogidratlar, Genri, Dalton, sechenev qonunlari. Lyuis kislotalari va asoslari. Oddiy oksikislotalar. Suvsiz oksidlar. Polioksi birikmalarining hosil bo'lishi.

Acids and bases

4

Inson o'zini tanigandan beri kislotalar nordon ta'mga, asoslar qo'lga ushlaganda sonli xossaga ega deb kelinadi. Keyinchalik Arrenius ishlariga ko'ra kislotalar tarkibida vodorod ionlari tutadigan moddalar deb qabul qilindi.

Bryonsted-Louri nazariyasi protonning ko'chishiga asoslansa, luyisning konsepsiyasi esa elektron juft akseptori va donori orasidagi ta'sirga asoslanadi.


Bryonsted bo'yicha kislotalik²¹

Daniyalik fiziko-kimyogar Ioxan Bryonsted va ingliz kimyogari Tomas Louri bir-biridan bexabar holatda kislota –asos reaksiyasining eng asosiy farqi zarrachalarning biridan biriga proton o'tishi amalga oshadi. Bryonsted-Louri ta'rifiga ko'ra proton bu vodorod ion. Ular protonlar donori vazifasini bajaruvchi har qanday moddani kislota deb, protonni biriktiradigan har qanday moddani asos deb atashni taklif qildilar. O'zini shunday tutgan kislota va asoslar **Bryonsted kislota va asoslari deb aytiladi.**


²¹ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P.111-145.

Bu ta'riflarda proton ko'chishi sodir bo'ladigan muhit tushunchasi hech qachon ishlatilmaydi, shunday qilib proton ko'chishi har qanday erituvchida va hatto erituvchisiz sharoitda ham amalga oshaveradi.

Bryonsted kislotasiga misol qilib HF olinishi mumkin, erish jarayonida u protonni boshqa molekula masalan suvga berishi mumkin :




Bryonsted asos sifatida – NH_3 ammiak olinishi mumkin, u protonni donordan oladi:



Bu tenglamalar reaksiyada suv amfoter modda ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday moddalar Bryonsted bo'yicha ham asos va ham kislota rolini bajarishini korsatadi.

Kislota pritonini suvga berganda u gidroksoniy ioniga aylanadi. Gidroksoniy ioning valent burchaklari va atomlari masofasi $H_3O^+ClO_4^-$ ni strukturasi asosida olingan. Agr eng oddiy formula kerak bo'lsa gidroksoniy ionini quyidagicha tassavur etish kerak $H_9O_4^+(2)$.



Gaz fazadagi suvning klasterlarini o'rganish va uni masspekttri, H_3O^+ atrofida 20 ta suv molekulasini kondensatsiyalangan pentagonal dekaedr hosil bo'lganini ko'rsatadi. Shu tufayli $H^+(H_2O)_{21}$ hosil bo'ladi. Natijalar u yoki bu modelni proton ishtirokida suvda hosil bo'lishi tajriba sharoitiga bog'liq ekan.



Bryonsted kislota protonlarning donori, Bryonsted asoslari protonlar akseptoridir. Eng oddiy holat suvdagi gidroksoniy ioni H_3O^+ orqali tushuniladi.

Suvdagi kislota asos muvozanati

Kislota va asos orasida protonning ko'chishi ikkala yo'nalishda ham bir pasda sodir bo'lib dinamik muvozanatga o'tadi



Bu reaksiyalar kislota HF va asos NH_3 ning o'zini suvdagi holatini to'laroq bayon etadi.

Bryonsted kislota va asosining o'zga xos tarafi proton ko'chishining tezda muvozanatga etishidir.

a) Tutash kislota va asoslar


Bryonstedning umumiy muvozanat tenglamasi kislotadan asosga proton o'tishi kuzatilib quyidagi to'g'ri va teskari reaksiya tenglamasi bilan ifodalanadi:



Asos 1 kislota 1 ga tutash hisoblanadi, kislota 2 asos 2 ga tutash bo'ladi. Kislota ga tutash bo'lgan asos, shunday zarrachaki, u kislota ning proron yo'qotishi natijasida hosil bo'ladi. Asos bilan tutash bo'lgan kislota esa o'ziga proton biriktirganda hosil bo'lgan zarrachadir. Masalan, F^- ioni asos u HF bilan tutash, H_3O^+ -kislota va u H_2O bilan tutash hisoblanadi. Umuman tutash kislota va asoslarning deyarli prinsipial farqi yo'q, chunki tutash kislota yana bitta kislota va tutash asos yana bitta asosdir. Eritmada tutash kislota va asoslar orasida muvozanat ro'y beradi.


6) Bryonsted kislotalarinig kuchi

Bryonsted kislota sinig kuchi , masalan HF uchun kislotalik konstantasi bilan ifodalanadi (yoki kislota ning ionlanish konstantasi) K_a :




Bu formulada $[X]$ molyar konsentratsiyaning raqamiy ifodasini ko'rsatadi, zarrachalar X (agar , HF ning molyar konsentratsiyasi 0,001 bo'lsa , unda HF molekularining konsentratsiyasi $[HF] = 0,001$)¹. Bunda qiymat $K_a < 1$ va kislota protonni mahkam ushlaydi. Tajribalar asosida HFning K_a normal sharoitdagi qiymati $3,5 \cdot 10^{-4}$, tengligi aniqlangan. Demak HF ning suvda uncha ko'p bo'lmagan molekulari deprotonlangan va bunday hisoblar K_a qiymati bilankimyo kurslarida beriladi.

Shunday fikr uyritib, asosning asoslik konstantasini aniqlash mumkin K_b :




Agar $K_b < 1$, asos protonlarning kuchsiz akseptori hisoblanadi va unga tutash kislota eritmada kichik konsentratsiyada mavjud bo'ladi. Ammiak uchun tajribada o'lchangan K_b ning qiymati $K_b = 5,6 \cdot 10^{-10}$ ga teng. Normal sharoitda NH_3 ning kam sondagi molekulari protonlashgan bo'ladi. Protonlashgan molekularlarning son qiymati K_b asosida oson aniqlanadi.

Suv amfolit elektrolit bo'lgani uchun pritonning o'tishi begona kislota yoki asos bo'lmasa hammuvozanat holati ro'y beradi. Protonng bir suv molekulasidan boshqasiga o'tishi avtoprotoliz deyiladi(yoki avtoionlanish). Avtoionlanish darajasi avtoprotoliz konstantasi bilan tavfsiflanadi (suvning ion ko'paytmasi) K_w .



Tajribada aniqlangan K_w ning qiymati 25°S da $K = 1 \cdot 10^{-14}$ ga teng. Toza suvda arzmagan sondagi ionlar mavjud. Erituvchining avtoprotoliz konstantasini bilish asosning kuchini unga tutash bo'lgan kislota orqali baholashga imkon beradi. K_b ning qiymati K_a ga bog'langan.



Bu tenglamadan:

$$K_a \cdot K_b = K_w \quad (6)$$

Bu formulani kislotalik konstantasi NH_4^+ va asoslik konstantalarini NH_3 bir-biriga bog'liqlikdan foydalanib topish mumkin. (6) tenglama K_b qancha kata bo'lsa K_a shuncha kichik bo'ladi, asos qancha kuchli bo'lsa unga tutash kislota shuncha

kuchsiz bo'lar ekan. (6) tenglamaning ma'nosi asosning kuchini, unga tutash bo'lgan kislotalarning kislotalik konstantasi orqali baholash mumkin.

Kislotalarning molyarligi va kislotalik konstantasi keskin farq qilgani uchun, ularni o'nli logarifmlar orqali ifodalash juda qulay:

$$pH = -\lg[H_3O^+] \quad pK = -\lg K \quad (7)$$

K uyqorida keltirilgan kislotalardan birining konstantasi. Masalan, 25 °S $pK_w=14,00$. Bundan quyidagi kelib chiqadi:

$$pK_a + pK_b = pK_w \quad (8)$$

Shunday ifodalar tutash kislota va asoslarning har qanday erituvchidagi kuchini baholash uchun ishlatish mumkin. Faqat bunda pK_w orniga har bir erituvchu uchun avoprotoliz konstantasi pK_{sol} olinishi kerak.

Bryonsted kislotalarining kuchi kislotalik konstantasi va Bryonsted asosligini kuchi asoslik konstantasi orqali ifodalanadi. Asos qanchalik kuchli bo'lsa unga tutash kislota kuchsiz bo'ladi.

b) kuchli va kuchsiz kislotalar

5.1. jadvalda ko'p uchraydigan kislotalarning kislotalik konstantasi keltirilgan. Birikma kuchli kislota bo'lishi uchun kislota asos eritmasidagi muvozanat protonning suv molekulasiga o'tishi tarafiga surilgan bo'lishi kerak.

Shunday qilib birikmada $pK_a < 0$ ($K_a > 1$ qiymatga ega bo'ladi. Agar $K_a \gg 1$) kuchli kislota bo'adi. Bunday kislotalar eritmada to'la protonidan ajralgan bo'ladi. Bunday bo'linish shartli albatta. Masalan, xlorid kislota eritmada gidroksoniy ioni va xlorid ioni bo'ladi. Ayni eritmada HCl molekullari konsentratsiyasi eritmada juda kam bo'ladi. Agar eritmada $pK_a > 0$ (bunda $K_a < 1$) kislota kuchsiz hisoblanadi. Bu eritmada zarrachalar orasidagi kislota asos munosabati ionlashmagan nmolekullar tarafa qarab surilgan. Vodorod ftorid suvda kuchsiz kislota. U eritmada gidroksoniy ion va ftorid ioni tutadi. eritmada ko'plab zarrachalar HF molekullari hisoblanadi.

3.1. jadval. Kislotalarning kislotalik konstantasi

Table 4.1 Acidity constants for species in aqueous solution at 25 °C

Acid	HA	A ⁻	K _a	pK _a	Acid	HA	A ⁻	K _a	pK _a
Hydriodic	HI	I ⁻	10 ¹¹	-11	Ethanoic	CH ₃ COOH	CH ₃ CO ₂ ⁻	1.74 × 10 ⁻⁵	4.76
Perchloric	HClO ₄	ClO ₄ ⁻	10 ¹⁰	-10	Pyridinium ion	HC ₅ H ₅ N ⁺	C ₅ H ₅ N	5.6 × 10 ⁻⁶	5.25
Hydrobromic	HBr	Br ⁻	10 ⁹	-9	Carbonic	H ₂ CO ₃	HCO ₃ ⁻	4.3 × 10 ⁻⁷	6.37
Hydrochloric	HCl	Cl ⁻	10 ⁷	-7	Hydrogen sulfide	H ₂ S	HS ⁻	9.1 × 10 ⁻⁸	7.04
Sulfuric	H ₂ SO ₄	HSO ₄ ⁻	10 ²	-2	Boric acid*	B(OH) ₃	B(OH) ₄ ⁻	7.2 × 10 ⁻¹⁰	9.14
Nitric	HNO ₃	NO ₃ ⁻	10 ²	-2	Ammonium ion	NH ₄ ⁺	NH ₃	5.6 × 10 ⁻¹⁰	9.25
Hydronium ion	H ₃ O ⁺	H ₂ O	1	0.0	Hydrocyanic	HCN	CN ⁻	4.9 × 10 ⁻¹⁰	9.31
Chloric	HClO ₃	ClO ₃ ⁻	10 ⁻¹	1	Hydrogencarbonate ion	HCO ₃ ⁻	CO ₃ ²⁻	4.8 × 10 ⁻¹¹	10.32
Sulfurous	H ₂ SO ₃	HSO ₃ ⁻	1.5 × 10 ⁻²	1.81	Hydrogenarsenate ion	HAso ₄ ²⁻	AsO ₄ ³⁻	3.0 × 10 ⁻¹²	11.53
Hydrogensulfate ion	HSO ₄ ⁻	SO ₄ ²⁻	1.2 × 10 ⁻²	1.92	Hydrogensulfide ion	HS ⁻	S ²⁻	1.1 × 10 ⁻¹⁹	19
Phosphoric	H ₃ PO ₄	H ₂ PO ₄ ⁻	7.5 × 10 ⁻³	2.12	Hydrogenphosphate ion	HPO ₄ ²⁻	PO ₄ ³⁻	2.2 × 10 ⁻¹³	12.67
Hydrofluoric	HF	F ⁻	3.5 × 10 ⁻⁴	3.45	Dihydrogenphosphate ion	H ₂ PO ₄ ⁻	HPO ₄ ²⁻	6.2 × 10 ⁻⁸	7.21
Formic	HCOOH	HCO ₂ ⁻	1.8 × 10 ⁻⁴	3.75					

* The proton transfer equilibrium is B(OH)₃(aq) + 2H₂O(l) ⇌ H₃O⁺(aq) + B(OH)₄⁻(aq).

Kuchli asos amaliy jihatdan suvdagi eritmada to'la protonlashgan bo'ladi. Masalan, O^{2-} ioni suvda darhol OH^- ioniga aylanadi. Kuchsiz asos qisman protonlashgan bo'ladi. Masalan, ammiak eritmada tola NH_3 molekulalari holatida bo'ladi va juda kam NH_4^+ ionlari saqlaydi.

Kuchli kislota bilan tutash bo'lgan asoslar kuchsiz asos bo'lib, uning uchun proton biriktirish termodinamik jihatdan va'qul emas.



Conjugate acid	Base	$A_p/kJ\ mol^{-1}$	$A_p^*/kJ\ mol^{-1}$
HF	F^-	1553	1150
HCl	Cl^-	1393	1090
HBr	Br^-	1353	1079
HI	I^-	1314	1068
H_2O	OH^-	1643	1188
HCN	CN^-	1476	1183
H_3O^+	H_2O	723	1130
NH_4^+	NH_3	865	1182

* A_p is the gas phase proton affinity, A_p^* is the effective proton affinity for the base in water.

Kislota yoki asosning kuchli yoki kuchsiz bo'lishi uning kislotalik konstantasiga bog'liq. Tutash kislota va asoslarning kuchi bir-biriga bog'liq.

б) Ko'p kislotali asoslar


O'zidan bittadan ortiq proton beradigan kislotalarni ko'p asosli kislotalar deyiladi. Misol sifatida ko'p asosli kislota sifatida H_2S olinishi mumkin. Bu kislota ikkita proton beradi va uning uchun



3.1. jadvalga ko'ra $K_{a1} = 9,1 \cdot 10^{-8}$ ($pK_{a1} = 7,04$) и $K_{a2} = 10^{-14}$ ($pK_{a2} = 14$). Odatda ikkinchi dissotsilanish konstantasi K_{a2} doim K_{a1} dan kichik boladi (pK_{a2} bo'lsa pK_{a1} dan katta). Keyingi bosqichda + zaryadlangan protonni chiqarish anchagina elektrostatik ish bajarishga tog'ri keladi.

Ko'p asosli kislota kislota asos eritmasidagi konsentratsiyasini belgilashda taqsimlanish diagrammasi aniq ko'rsatadi. Bu diagrammada X zarrachalar bilan ularning turi va pH hamda ularning qismlari orasidagi bog'lanishni grafigi chiziladi. uch asosli kislota H_3PO_4 uchta proton ajratganda turli ionlar : $H_2PO_4^-$, HPO_4^{2-} и PO_4^{3-} hosil bo'ladi. Bu ionlarni pH funksiyasi deb qaralsa(5.1 rasm). H_3PO_4 molekulalarining qismi quyidgicha topiladi:

$$\alpha(H_3PO_4) = \frac{[H_3PO_4]}{[H_3PO_4] + [H_2PO_4^-] + [HPO_4^{2-}] + [PO_4^{3-}]}$$



Rasm. 5.1. Ortofosfat kislota eritmasida hosil bo'ladigan turli zarrachalarning taqsimlanish diagrammasi (eritma tarkibi pH funksiyasi sifatida)


pH va a orasidagi bog'lanish har bir kislotaning va u bilan tutash asosning pH qo'shadigan hissasini ko'rsatib beradi. Diagramma shuningdek qaysi pH qiymatida u yoki bu zarrachalar ta'siri ustunligi to'g'risida ma'lumot beradi. Masalan, $\text{pH} > \text{pKa}_3$ tengsizlik gidroksil ionlarining eng kichik konsentratsiyasini ko'rsatadi, bunda PO_4^{3-} to'la protonlar ajratgan holatda mavjud bo'ladi. Oraliq holatlardagi zarrachalar mos pKa qiymatiga kora joylashgan bo'ladi.

Ko'p asosli kislota o'z protonlarini ketma-ket ajratadi, har bir proton ajratish jarayoni qiyinroq amalga oshadi; eritmada mavjud zarrachalarning konsentratsiyasining pH ga bog'liqligini diagramma ko'rsatib beradi.

Erituvchining ta'sir effekti

Kislota (yoki asosning) kuchi qanday bo'lishi kerakligi ayni erituvchining avtoprotolitik konstantasi qiymati bilan belgilanadi. Har qanday suvdan ko'ra kuchli kislota suvga proton berib H_3O^+ hosil qiladi. H_3O^+ dan boshqa kislota suvda protonlangan holda qolishi mumkin emas.


Kislotalar uchun ta'sir effekti pKa orqali ifodalash mumkin. HCN uchun, agar u HSol erituvchida erigan bo'lsa va $\text{pK}_a < 0$, bo'lganda ayni HSol erituvchidagi kislotalik konstantasi:




Bu tenglamaga ko'ra $\text{pK}_a < 0$ barcha kislotalar uchun HSol erituvchida ($K_a > 1$) kislotalikni H_2Sol^+ ko'rsatadi.

Shunaqa holat asoslarning suvdagi eritmasida amalga oshadi. Har qanday asos, u ancha kuchli bo'lsa har bir asos molekulasiga OH^- ionini hosil qiladi. Demak, OH^- eng kuchli asos ekan.

Ana shu holat tufayli NH_2^- va CH_3^- ionlarini suvda eritib amid va metilidlar hosil qilishini o'rganish mumkin emas, chunki ikkala ion ham suvda tola protonlanib NH_3 va CH_4 ga aylanib OH^- ionini hosil qiladi:




Erituvchi effektini ta'siri asoslar uchun pK_b orqali ifodalash mumkin, agar HSol da erigan asos kuchli bo'lsa $pK_b < 0$, erituvchi HSol da erigan asosning pK_b qiymati:



Demak, barcha $pK_b < 0$ asoslar ($K_b > 1$ bo'ladi) HSol erituvchida ionlar sifatida Sol^- mavjud bo'ladi.


Erituvchi HSol erigan kislota va asoslar ta'sir effektiga ega emas, agar kislotalik konstantasi qiymati **$pK_a = 0$ u pK_{sol}** orasidagi qiymatga ega bo'lsa. Har qanday kislota erituvchida ta'sir effektiga ega, agar ayni erituvchi HSol da $pK_a < 0$, bo'lsa erituvchi ta'sir effektiga ega bo'ladi. Har qanday asos erituvchida ta'sir effektiga ega agar **$pK_a > pK_{sol}$** holat uchun. Suv uchun $pK_w = 14$.

Suyq ammiak uchun avtoprotoliz muvozanati quyidagicha:



Sol ayni holatda suyq ammiak eritmasini anglatadi. Qiymatlar kislota va asoslarning ammiak eritmasida suvga nisbatan kam farqlanishini ko'rsatadi. Kislota va asoslarning kuchi diapazoni qiymatlari 5.2. rasmda keltirilgan.

Bu qiymatlar dimetilsulfoksidda (DMSO, $(CH_3)_2SO$) ancha keng va $pK_{DMSO}=37$



DMSO kislotalarning keng spektrida o'rgansa bo'ladi (H_2SO_4 dan PH_3 gacha). Bularni ichida suv eng kichik diapazonga ega erituvchi hisoblanadi. Buni sababi suvning dielektrik doimiyligi uyqoriligi hisoblanadi (81), shuning uchun suvda H_3O^+ u OH^- oson hosil bo'ladi.

Avtoprotoliz konstantasi uyqori bo'lgan erituvchini kislota va asoslarning kuchi bo'yicha farqlashda foydalanish qulay hisoblanadi.

Bryonsted kislotaligining o'zgarish qonunlari

Characteristics of Brønsted acids

Bryonstedning kislota va asosligi suvli eritmalarida ko'riladi. Eng keng tarqalgan kislotalar sinfi molekulada markaziy atom bilan bog'langan OH^- guruhdan proton ajratadigan moddalardir. Bunday proton kislota molekulasida mavjud bo'lib, qolgan barcha protonlardan farq qilishi uchun nordon proton ham deyiladi.(masalan CH_3COOH molekulasidagi metil guruhining protonlari).

Uch xil turdagi kislotalar qatorini ajratish mumkin:

1. Markaziy iondagi metallga koordinatsiyalangan suv molekulasida tarkibidagi proton nordon proton deb uyritiladi:




masalan:




(3) sxemada akvakislota hisoblangan geksakvatemir(III) ioning strukturasi ko'rsatilgan.

2. Hidroksokislotalar, nordon proton gidroksil guruhga tegishli bo'lib, molekulada =O guruh mavjud emas. Shunday kislotalar minerallar hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan $Si(OH)_4$ (4) ni olish mumkin.




3. Oksokislotalar, ularning molekulasida oksoguruh mavjud, ayni paytda gidroksil guruhi ham shu atom bilan bog'langan. Masalan, sulfat kislota H_2SO_4 (4) va $(O_2S(OH)_2)$ (5).

Uchala oksikislotalarni ham akvakislotalarning ketma-ket protonajratishidan jarayon amalga oshadi deyish mumkin:



Bu holatlarni amalga oshishiga misol qilib Ru(IV) oraliq oksidlanish darajasiga ega bo'lgan d-metallar akvaionlarini ketma-ket hosil bo'lishini misol qilib olish mumkin:




Akvakislotalar markaziy atomi s- va d- elementlar davriy jadvalning chap tarafida joylashgan p- bloki elementlari uchun xos hisoblanadi. Oksokislotalar uyqoti oksidlanish darajasiga ega elementlar orasida ko'proq uchraydi. p-blok elementlar uchun oraliq oksidlanish darajasida ham oksikislotalar hosil qiladi (masalan $HClO_2$).

Akvakislotalar, gidroksokislotalar va oksikislotalar davriy jadvalning turli qismlarida joylashgan elementlar uchun uchraydi.

Akvakislotalarning kuchi o'zgarishi qonuniyatlari

Akvakislotalarning kuchi, qoidaga ko'ra markaziy atomning oksidlanish darajasi ortishi va ayni ionning radiusi kamayishi bilan ortadi. Bu holatni ion

modeli nuqtai nazardan tushuntirish mumkin, bunda metal ioni zaryadi z ion esa sferik deb qaraladi. r_+ ion radiusiga ega va suvning diametri d bo'lsa pK_a gaz fazada bir nuqtadan elektronni chiqarish uchun kerak bo'ladigan ishga proporsional bo'ladi. Proton yonida kationlar borligi va ularning zaryadi katta hamda ion radiusi kichikligi va uni yoqotish osonligi tufayli ion model asosida z ortishi va r_+ kamayishi bilan kislotalik ortadi. Elektrostatik parametrlarning o'zgarishi $\xi = z^2 / (r_+ + d)$ kislotalikka mos keladi. Ushbu modeldagi gazlar uchun ishlab chiqilgan qonuniyatlar solvatsiya bir xil bo'lganida eritmalarga ham qo'llanilishi mumkin.



Rasm. 3.3. Elektrostatik parametr ξ bilan akvaionlarning kislotalik konstantasi orasidagi bog'lanish egriligi. Kichik zaryadli qattiq ionlar uchunchiziqli boglanish kuzatilib qolgan ionlar ancha kuchli kislotalikni namoyish etadi.

Kislotalarning ion kuchini baholashda ion model to'g'riligini 3.3. rasmdan baholash mumkin. Ion birikmalar hosil qiladigan (bular odatda s-elementlar) ion model pK_a bilan elektrostatik parametri mos kelgan. Ba'zi d-elementlarda (Fe^{2+} va Cr^{3+}) 3.3. rasmdagi to'g'ri chiziqqa yaqin boradi. Lekin ko'pchilik ionlar (kislotalar kuchi katta bo'lib ularda pK_a qiymati kichik) to'g'ri chiziqdan ancha chetlanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, metal ionlari ion model ko'zda tutganidan protonni kuchliroq itaradi. Kationning $+$ zaryadi markaziy ion bilan to'la lokallashmagan, lekin ligandlar bilan qisman lokallashgan va kation nordon protonga yaqinroq joylashgan.

Delokalizasiya tufayli M-O bog' qisman kovalent xarakterga ega. To'g'ri chiziqdan ko'proq chetlanish kovalent bog' hosil qiladigan ionlarda kuzatiladi. O'tish elementlarida d- elementlar oxiridan va p- metallarda (Cu^{2+} va Sn^{2+}) akva kislotalarning kuchi ion model ko'zda tutilganidan kora kuchliroqdir. Bu zarrachalar uchun ion model ishlamaydi, lekin kovalent bog' ancha moyilroq. Metall va kislorodning orbitallarini qoplanishi chapdan o'ngga qarab ortadi. Guruhlarda bo'lsa pastga qarab ortadi, shuning uchun og'ir d- elementlar ionlariga o'tganda akvakislotalarning kuchi ortadi.

Akvakislotalarning kuchi metal ionining musbat zaryadi ortishi va ion radiusi kamayishi bilan ortadi. Bu holatdan chetlanish, qoidaga ko'ra, kovalent bog'ning hissasi ortgan holatlarda kuzatiladi.

Oddiy oksokislotalar Simple oxoacids

Monoydroli oddiy oksokislotalar o'z tarkibida faqat bitta element tutadi. Bularga H_2CO_3 , HNO_3 , H_3PO_4 va H_2SO_4 . Ular davriy jadvaldagi uyqori o'ngda turgan elektromanfiy va uyqori oksidlanish darajasiga ega elementlardan hosil bo'lgan. (jadval 5.2). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, $\text{B}(\text{OH})_3$, H_2CO_3 va HNO_3 molekulari yassi tuzilishga ega, ayni paytda ularning keying davrdagi analoglari boshqacha tuzilishni namoyon etadi.

2 davr elementlari uchun π -bog' hosil qilish o'ziga xos xususiyat, shuhg uchun molekularlarga tekis holat afzalroq.

5.2-jadval. Oksokislotalarning strukturasi va pKa qiymati.

Table 4.3 The structure and pK_a values of oxoacids*

p = 0	p = 1	p = 2	p = 3
$\text{HO}-\text{Cl}$ 7.2	$\text{HO}-\text{C}(=\text{O})-\text{OH}$ 3.6	$\text{O}=\text{N}(\text{OH})-\text{OH}$ -1.4	
$\text{HO}-\text{Si}(\text{OH})_3$ 10	$\text{HO}-\text{P}(=\text{O})(\text{OH})_2$ 2.1, 7.4, 12.7	$\text{O}=\text{C}(\text{OH})-\text{OH}$ 2.0	$\text{O}=\text{S}(=\text{O})(\text{OH})_2$ -1.9
$\text{HO}-\text{Te}(\text{OH})_4$ 7.8, 11.2	$\text{HO}-\text{P}(=\text{O})(\text{OH})_3$ 1.6, 7.0	$\text{O}=\text{C}(\text{OH})-\text{H}$ 1.8, 6.6	$\text{O}=\text{C}(=\text{O})(\text{OH})_2$ -10
$\text{HO}-\text{B}(\text{OH})_2$ 9.1*	$\text{HO}-\text{B}(\text{OH})_3$ 2.3, 6.9, 11.5	$\text{O}=\text{B}(\text{OH})_2$ 2.6, 8.0	

* p is the number of nonprotonated O atoms.
 † Boric acid is a special case; see Section 13.5.


p —vodorod bilan bog'lanmagan kislrod atomlarining soni.

a) almashingan oksikislotalar

Bunday kislotalar oksokislotalar qatoridagi bir yoki bir necha OH –guruhni boshqa o'rinbosarlarga almashtirib olinadi. Ularning ichida ftorsulfon kislota O_2SFOH va aminosulfon kislota $\text{O}_2\text{S}(\text{NH}_2)\text{OH}$ (6) olish mumkin.

Ftor eng elektromanfiy element bo'lgani uchun u oltingugurt atomidan elektronlarni tortadi va uni musbat zaryadini ortishiga sababchi bo'ladi. Natijada almashingan kislota $\text{O}_2\text{S}(\text{OH})_2$ nisbatan kuchli bo'lib qoladi. Triftormetansulfon kislota $\text{CF}_3\text{SO}_3\text{H}$ tarkibidagi CF_3 elektron akseptor o'rinbosar hisoblanadi (yoki

$O_2S(CF_3)(OH)$. Agar elektron juftga ega NH_2 olinsa, teskarisi π -bog' hosil bo'lishi tufayli elektron bulut oltingugurt atomiga qarab surulishi mumkin. Bu holatda kislota kuchi kamayib, markaziy atomning musbat zaryadi kamayadi.




Hamma oksi kislotalarda ham markaziy atom kislorod va gidroksil guruh bilan o'ralgan dastlabki struktura modeli saqlanavermaydi. Ba'zan markaziy atom vodorod bilan boglangan, misol uchun, fosfit kislota, u ikki asosli kislota bo'lib, proton nordon emas ($P-H$ bog'idagi). $OPH(OH)_2$ formula YAMR va tebranma spektroskopiya usullarida tasdiqlangan. Ba'zan oksoguruhda ham o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga yaqqol misol tiosulfat ion $S_2O_3^{2-}$ (8), markaziy ionda O o'rniga S atomi kirgan.

Elektroakseptor o'rin bosar kuchiga qarab oksikislotalarning kuchi o'zgarishi mumkin, agar oksikislota markaziy atom bilan to'g'ridan to'g'ri H birikkan bo'lsa u kislotalik xossalarni namyon etmaydi.


Suvsiz oksidlar

a) Kislotali va asosli oksidlar


Kislotali oksid deb shunday oksidga aytiladiki, u suvda eriganda suvni biriktirib protonini erituvchiga beradi:




Kislotali oksid- bu shunday oksidki, asosning suvdagi eritmasi bilan ta'sir etadi (ishqor bilan):



Asosli oksid bo'lsa suvda eriganida proton biriktiradi




Boshqachasiga asosli oksid kislota bilan ta'sir etadiga iksiddir:



Metallar odatda asosli oksid hosil qiladi va metallmaslar kislotali oksidlar hosil qiladi.

б) Amfoterlik


Amfoter oksidlar kislotalar bilan ham va ham ishqorlar bilan ta'sir etadi (grekchasiga bu «ikkala» ma'nonin beradi. Aluyminiy oksid kislota bilan ham asos bilan ham ta'sir etadi:




Amfoterlik engil 2 guruh elementlarida va 13(III) guruh elementlarida kuzatiladi (BeO , Al_2O_3 va Ga_2O_3). Shuningdek d- guruh elementlarida ham uyqori oksidlanish darajasida (TiO_2 va V_2O_5) va ba'zi bir 14/IV va 15/V (SnO_2 va Sb_2O_5) kabi oksidlar ham amfoter hisoblanadi. da k. 14(и некоторых тяжелых элементов групп 14/IV и 15/V (SnO_2 и Sb_2O_5).

5.6. Polioksobirikmalarning hosil bolishi

Kislotalarning reaksiyon qobiliyatini baholashda eng muhimi $-\text{OH}$ guruhlarning kondensatsiyalanib polimerlar hosil qilishidir. Polikationning hosil bo'lishi kationning odatdagi gidratlanishi tufayli H_3O^{+} ni yo'qotadi:



Polianionlar hosil bo'lishida oksianionlardan kislorod atomining protonlanishi tufayli H_2O molekulalarining chiqib ketishi amalga oshadi:





Polioksianionlar er po'stlog'i tarkibiga kirib silikatli minerallar tarkibiga kiradi. Ular shuningdek tirik to'qimalarning energiya manba'si bo'lgan fosfatli polimerlar(ATF) ni hosil qiladi.

a) Akvaionlarning polimerlanib polikationlarga aylanishi


Polyoxo compound formation

Eritma pH ortganda asosli va amfoter xarakterli metallarning akva ionlari polimerlanadi va cho'kmaga tushadi. Bu xossadan ma'lum pH da miqdoriy chokish uyzaga kelganidan metal ionlarini ajratish uchun ishlatiladi.

Davriy jadvalning 1 va 2 guruhi metalari (Be^{2+} dan tashqari) akva ionlar holatida uchraydi. Amfoter elementlar suvdagi eritmalarining tarkibi ancha murakkab. Yer po'stlog'ida eng ko'p tarqalganl Fe(III) va Al(III) polimerlaridir. Kislotali muhitda ular geksakvaion hosil qiladi $[\text{Al}(\text{OH}_2)_6]^{3+}$ va $[\text{Fe}(\text{OH}_2)_6]^{3+}$. pH 4 da ular gidratlangan oksidlar holatida cho'ka boshlaydi.



Qoidaga ko'ra polimerlar kolloid holatda cho'kadi, songra kristallanib barqaror mineral shaklga o'tadi. Oraliq pH larda, gidratlangan ion va cho'kma tushish orasida aluyminiy vat emir o'zini har xil tutadi. Tarkibida Fe tutuvchi tarkiblar kam o'rganilgan. Ular ikkita monomer (9) va (10) hamda dimer (11) 90 temir atomi tutadigan polimerdan iborat. Al (III) bo'lsa qator polimer kationlaridan iborat, monomer birligi bo'lsa ion Al 34 tetraedrik o'ralgan 4 ta kislorod atomlaridan iborat (12). Eng « oddiy » polimer kation $[\text{AlO}_4(\text{Al}(\text{OH})_2)_{12}]^{7+}$, tarkibga ega va har bir Al atomiga taxminan +0,54 zaryad to'g'ri keladi. Bu kationning strukturasi 5.6 rasmda berilgan.



Al polimerlari uzun to'rsimon strukturalar hosil qiladi, joylanish uch o'lchamli strukturalardir. Uning analogi Fe ioni chiziqli polimerlar hosil qiladi. Al polikationlari anionlarni (masalan F⁻) cho'ktirish uchun ishlatiladi va oqava suvlarnu tozalashda qo'llaniladi.


6) Polioksoanionlar

Polioksianionlar o'tish elementlarining uyqori oksidlanish darajasida (ularning oksidlarini) kislotalar ta'siridan hosil bo'ladi. Kimyo uchun shu taqlid

polimerizatsiya katta ahamiyatga ega (V(V), Mo(VI), W (VI) va Nb(V), Ta(V), Cr(VI)).

Amfoter oksid V_2O_5 ni uyqori pHda erishidan rangsiz tetraedrik ion $[VO_4]^{3-}$ (rangsiz PO_4^{3-} ga o'xshash). Agar pH kamaytirilib kislota qo'shilsa rang paydo bo'ladi va asta-sekin zarg'aldoqdan sariqqa o'tiladi. Bu ketma-ket boradigan kondansatsiya va gidroliz reaksiyalariga bog'liq bo'lib, ular $[V_2O_7]^{4-}$, $[V_3O_9]^{3-}$, $[V_4O_{12}]^{4-}$, $[HV_{10}O_{28}]^{5-}$ va $[H_2V_{10}O_{28}]^{4-}$ hosil bo'lishiga olib keladi. Kuchli kislotali muhitda gidratlangan ion $[VO_2]^+$ (13) hosil bo'ladi va rang och sariq rangga bo'yaladi.

Eng oddiy ortofosfat ionini:



Reaksiya paytida suvning hosil bo'lishi protonlar konsentratsiyasini pasaytirib -2 ga kamaytiradi. Pirofosfat ion $[P_2O_7]^{4-}$ (14) tetraedr qirralarida kislorod atomi struktura hosil qiladi (15). Fosfat kislota fosfor (V) oksidini gidrolizidan olinadi $[P_4O_{10}]^{4-}$.

I bosqichda ozroq suv ishlatilsa metafosfat ion hosil bo'ladi va $[P_4O_{12}]^{4-}$ (16) olinadi. pH qiymati biologik bo'lganida (7,4 atrofida) $O=P-O$ bog'i gidrolizga barqaror bo'ladi. Energetik almashinuvda adenozintrifosfatning (17) adenozin difosfatga (18) gidrolizlanishi muhim ahamiyatga ega.



Luyis bo'yicha kislotalik²²

Bryonsted-Lourining kislota-asos nazariyasida asosiy e'tibor zarrachalar orasida proton ko'chishiga qaratilgan. Ushbu qarash juda umumiy bo'lsa ham zarrachalar orasida proton ko'chishi sorir bo'lmaydigan reaksiyalarni tushuntira olmaydi. Bryonsted-Louri nazariyasi taklif etilgan 1923 yildayoq, nazariyaning bu kamchiligi G.N.Luyis tomonidan ishlab chiqilgan va umumiy kislotalik nazariyasi deb uyritiladi. Luyisning qarashlari faqat 1930 yilga kebgina ommalashdi.

Luyis bo'yicha kislota- elektron juftning akseptoridir. Luyis bo'yicha asos tlektron huftning donoridir. Luyis kislotasi A harfi bilan, Luyis asosi bo'lsa :B harfi bilan belgilanadi, zarrachalardagi erkin(bog'lanmagan elektronlar) ko'rsatilmaydi. Kislota va asos orasidagi ozaro ta'sir kompleks hosil bo'lishi bilan amalga oshib A-B bilan umumiy elektronlar (A:B) vositasida bog'lanib qoladi.

Luyisning kislota va asoslariga misollr


Luyis bo'yicha proton kislota hisoblanadi, chunki u elektron jufti bor modda, masalan ammiakka birikishi NH_3 dan NH_4^+ hosil qilishi mumkin. Bundan har qanday protonlar manba'si Bryonsted bo'yicha kislota va u Luyis bo'yicha kislota xossasiga ega. Barcha Bryonstad bo'yicha asos hisoblangan moddalar bir

²² Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.

paytni o'zida Luyis bo'yicha ham asoslardir, chunki protonlar akseptori ayni paytda elektronlar donori hisoblanadi, masalan Luyis bo'yicha asos va Bryonsted bo'yicha ham asosdir. Lekin, Luyis bo'yicha kislotalar va asoslar anchagina kengroq sinf birikmalari kiradi, Luyis boyixcha protonng mavjud bo'lishi eng asosiy narsa emas. Luyis bo'yicha kislotalik va asoslikni belgilashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1 . Koordinatsion birikmalarda metal ioni asos tomonidan berilgan elektron juftni bog'lashi mumkin. Bunga misol, H_2O molekularini erkin elektronlarini qabul qilibmgitratlangan Co^{2+} ioni j olish mumkin $[Co(OH_2)_6]^{2+}$. Shunday qilib kationlar Luyis kislotalaridir. Kumush ioni Ag^+ benzol bilan hosil qilgan kompleksda kation (kislota)asosning π -elektronlari bilan ta'sir etib olinadigan moddaga alohida e'tibor berish kerak (19).

2 . To'la bo'lmagan oktet elektronlarga ega molekular elektron juft qabul qilish hisobiga elektronlarni to'ldirish mumkin. Luyisning kislota va asoslari muvozanatdagi jarayonlarni muhokama qilishda ishlatiladi.Realksiya tezligini baholashda electron juft nukleofil, elektronlar akseptori elektrofil deyiladi. Shuni ta'kidlash kerekki, Bryonsted kilotasi HA kompleks hisoblanib, u Luyis kislotasi H^+ va Luyis asosi A^- ta'siridan hosil bo'lgan. Shuning uchun ham Bryonsted kislotasi Luyisning kislotalik xossasini korsatadi, lekin Luyis kislotasi bo'laolmaydi



Misol, $B(CH_3)_3$, NH_3 va boshqa donordlardan erkin elektron juftlarni qabul qilishi mumkin:



Demak, $B(CH_3)_3$ —Luyisning kislotasi hisoblanadi.

3. To'la oktetli elektronlarga ega molekula va ion uchun valent elektronlarning qayta tuzulishi amalga oshishi mumkin. Misol, uchun HCO_3^- hosil bo'lishida CO_2 molekulasini OH^- ionidan elektron juft qabul qilib Luyis kislotasi vazifasini bajaradi:



Molekula yoki ion o'zining valent elektron qavatchalarini kengaytirib, yana 1 juft elektron qabul qilishi mumkin.Bunga misol SiF_4 (kislota) o'ziga F^- (Luyis kislotasi) ionini biriktirib $[SiF_6]^{2-}$ ga aylanadi.



Bunaqa kislotalik og'ir p-elementlar galogenidlari uchun xarakterlidir, masalan, SiX_4 , AsX_3 va PX_5 (bu erda X- galogen).


5. Elektron qavati to'lgan molekulalarda ekelektron juft bo'shashtiruvchi electron orbitallarga elektron juld joylanishi amalga oshishi mumkin.

Misol sifatida tetrasianoetenni olish mumkin (20) u bo'shashtiruvchi π -orbitallarga elektron qabul qilib kislota vazifasini bajaradi.

Luyis kislotalari elektronlar akseptori Luyis asoslari elektronlar akseptori hisoblanadi.

Bor va uglerod guruhi elementlari kislotalari


Yassi molekulalar BX_3 va AlX_3 tugallanmagan oktet va vakant p-orbitallarga ega, ular molekulaning tekisligiga perpendikulyar joylashgan(21) hamda Luyis asosining erkin juftini qabul qilishi:




Kompleks hosil qilgan kislota pyramidal shaklga ega boladi va B-X bog'i o'z yangi qo'shnilaridan qochadi.

a) Bor galogenidlari

Komplekslarning termodinamik barqarorligi: $\text{N}(\text{CH}_3)_3$ dan BX_3 tarafga qarab quyidagicha o'zgaradi: $\text{BF}_3 < \text{BCl}_3 < \text{BBr}_3$. Elektromanfiylik ortib borishiga bu qator teskariga bog'langan. Eng kuchli bog' BF_3 da bo'lishi kerak edi, chunki F atomi B ning + zaryadini jshirishi kerak edi. BX_3 molekulasidagi galogen atomlari 2p orbital hisobiga π -bog' hosil qilishi mumkin, bu bog'ni buzilsa,akseptorning orbitalidan qutulish mumkin bo'ladi. Kichik ftor atomi 2 p orbital hisobiga mustahkam π -bog' hosil qiladi:



Borning trifloridi sanoatda katalizator sifatida ishlatiladi. Uning roli uglerod atomi bilan bog'langanasosni tortib olish uchun karb kationni uyzaga keltirishdir:



Bor triflorid gaz modda , shuning uchun uni dietilefirdagi eritmasi ishlatiladi. Erish jarayoni ham Luyisning kislotalik xossasini bir ko'rinishidir, chunki erishda kislorod va erituvchi atomi bilan :O kompleks hosil bo'ladi.

Luyis kislotaligi borning trigalogenidlari qatorida ushbu qatorda ortib boradi:




6) Aluyminiyning galogenidlari

Gaz fazasida aluymimiy galogenidlari dimer holatda bo'ladi quyidagi molekulyar formulaga ega Al_2Cl_6 (23). Har bir aluymimiy atomi Cl atomiga nisbatan kislota rolini bajaradi.

Aluymimiy xlorod organik reaksiyalarda luyis kislotasi sifatida katalizator bo'ladi. Klassik misol, Fredil-Krafts alkylash (R^+ aromatik halqaga birikishi) va asillsh reaksiyalari(RCO^+ birikishi) keltirish mumkin. Katalitik sikl 5.9 rasmda keltirilgan


Aluyminiy galogenidlari gaz fazada dimer bo'lib, ularning eritmalari katalizator sifatida ishlatiladi.




Rasm. 3.9. Fredil-Krafts alkylash reaksiyalarida katalitik halqada aluyminiy xloridni rolini ko'rsatadigan sxema.

б) kremniy va qalay kislotalari

Ugleroddan farq qilib kremniy atomi o'zining valent elektronlarini kengaytiradi (u anchagina kata o'lchamga ega bo'la oladi) va gipervalent holatga o'tadi:



Shunaqa holatlar germaniyning reaksiyalarida ham kuzatiladi. Proton ishtirokida Luyis asosi F^- O^{2-} ni Si dan ajratib olgani uchun plavik kislota shishani eya oladi (SiO_2). SiX_4 kislota xossasini uzgarish qonuniyati quyidagicha: $SH_4 < SiBr_4 < SiCl_4 < SiF_4$. Bu erda I dan F ga qarab galogenning elektron tortish xususiyati ortib boradi. Bu qonuniyat BX_3 birikmalaridagi holatni teskarisidir. Si atomining koordinasion soni 4 va 6 bo'lishi mumkin, masalan $[SiF_6]^{2-}$ ionida. Ba'zan u trigonal bipiramida koordinatsion son 5 hosil qiladi (24).




Qalay (II) xlorid Luyis bo'yicha ham kislota yoki ham asos bo'lishi mumkin. Kislota sifatida u Cl^- ioni bilan ta'sir etadi va kompleks $[SnCl_3]^-$ ni hosil qiladi (21). Bu kompleksda erkin electron saqlanadi va uni $:SnCl_3$ yozish to'g'riroq bo'ladi. $[(CO)_5Mn-SnCl_3]$ (26) u asos rolini o'ynab metal-metal bog'ini hosil qiladi. Hozirgi paytda metal-metal bog'larini hosil qiladigan birikmalar noorganik kimyoda katta ahamiyatga ega.


Germaniy va kremniy galogenidlari Luyis kislotalari va ular 5 yoki 6 koordinatsiyali bo'ladi, qalay (II) xloridi Luyis bo'yicha ham kislota va ham asosdir.

Azot va kislrod guruhi elementlarining kislotalari


Azot guruhi ogir elementlari (15/V guruh) Luyisning muhim kislotalarini hosil qiladi, ulardan SbF_5 , eng yaxshi o'rganilganidir. Bu kislota Bryonstedning eng kuchli kislotasini olishda ishlatish mumkin:




Bu aralashma juda uyqori kislota u deyarli har qanday organik kislotalarni protonlashi mumkin, ulardan biri SbF_5 ni HSO_3F va SO_3 aralashmasida eritib olish mumkin. Bu jarayon uchun eng oddiy reaksiya:




Ikki marta protonlangan ftorsulfat kislota Bryonstedning eng kuchli kislotasi hisoblanadi. Oltinugurt (IV) oksidi Luyisning ham kislotasi va ham asosidir. Uning Luyis bo'yicha kislotaligi asos bilan hosil qilgan kompleksidir:



Luyisning asosi bo'lib SO_2 molekulasi o'z lektron juftini O ga yani Luyis kislotasiga beradi. SO_2 dagi kisloto atomi electron juftlar donori bo'ladi. Bunda kislota SbF_5 Agar kislota Ru(II) bo'lsa, Donor S atomi bo'ladi (28).




Oltinugurt (VI) oksidi juda kuchli kislota, lekin kuchsiz Luyis asosdir (donor kislorod) . Uning kislotalik xossasini quyidagi reaksiya ko'rsatadi:



SO_3 ni kislotalik xossasi suv bilan uyzaga keladigan juda kuchli ekzotermik reaksiyadir. Natijada sulfar kislota ishlab chiqarishda reaktordan issiqlikni olib turish kerak.

Bu shart sulfat angidridni suvda emas oleum eritmasida eritish orqali amalga oshiriladi. Bu reksiya haqiqatda Luyisning kislota asos tasiriga yaqqol misoldir.



Oligan $\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_7$ gidrolizlash paytida juda katta issiqlik chiqmaydi:




15 V guruh oksidlari va galogenidlari Luyisning kislotalari sifatida ta'sir etadi. Sulfit va sulfat angidridlar Luyisning ham kislota va ham asosidir.

Triiodid ion kislota (I_2) va asos (I^-) orasida kompleks hosil bo'lishiga misol bo'ladi. Bu kompleksning hosil bo'lishi iodning eritmaga o'tishiga va titrant sifatida ishlatishga imkon beradi:



Triiodid ion shunga o'xshash poligalogenidlar kata sinfining vakilidir.

Brom va iod Luyisning kuchsiz kislotalari qatoridan o'rin olgan.



Luyisning kislota va asoslarini sinflanishi



Luyisning kislota va asoslari orasida ko'pgina reaksiyalar amalga oshadi. Bu erda shu reaksiyalar keltirilgan va Luyis kislota asoslarinig kuchini navsivlash mumkinligi bayon etilgan.

Reaksiyalarning asosiy turlari


Gazlar muhitida va koordinatsiyalamaydigan erituvchilarda Luyisning kislota va asoslari orasida kompleks hosil bo'lishi amalga oshadi:



--- Quyida uchta misol berilgan:



Uchala reaksiyada ishtirok etayotgan Luyisning kislota va asoslari gazlar muhitida ham va erituvchi muhitida ham barqaror bo'lib muhit bilan komplekslar hosil qilmaydi. Demak, tajribalarda alohida zarrachalar(shuningdek komplekslar ham) o'rganilishi mumkin.



Rasm 3.11. Luyis kislotasi A va Luyis asosi B orasida kompleks hosil bo'lishida chegara orbitallarda lokallashgan molekulyar orbitallarning ko'rinishi

3.11 rasmda Luyis kompleksi bog'lari hosil bo'lishi uchun javobgar orbitallarning ra'siri keltirilgan .Kompleks hosil bo'lishining ekzotermik tabiati, yangi orbitallarning asos tomonidan taqdim etilgan ikkita elektron bilan band

qilinganligi, ayni paytda yangi bo'shashtiruvchi orbitallarning bo'shligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham bog' hosil bo'lishida sistemaning umumiy energiya zapasi kamayadi.

3.12 rasmda galogenid ionlar asos sifatida kompleks hosil qilinganda K_f ning o'zgarish qonuniyatlari berilgan. Kislota Hg^{2+} ishtirokida F^- dan I^- ga o'tgan sari natijalar Hg^{2+} ning kislota kuchi keskin ortib uymshoq kislotaligi ma'lum bo'ladi. Ayni holat Pb^{2+} juda yaqqol bo'lmasa ham qaytariladi. Shunga ko'ra Pb^{2+} qattiq va uymshoq kislotalar chegarasida joylashgan. Kislota Zn^{2+} da bo'lsa teskari qonuniyat kuzatiladi. Bu ion qattiq va uymshoq kislotalar chegarasida lekin qattiq kislotalar tomonida joylashgan. Al^{3+} ionning manfiy og'ishi uni qattiq kislotaligini ko'rsatadi.

a) O'rin olish reaksiyalari


Luyis asosining biri ikkinchisiga almashinuvi quyidagicha amalga oshadi:




Masalan:



Bryonsted bo'yicha protonning ko'chish reaksiyasi ham shu taqlid reaksiyalarga kiradi:



Bu reaksiyada Luyis asosi H_2O boshqa Luyis asosi S^{2-} ga almashadi. Shuningdek, bir kislota boshqasiga almashinish ehtimoli mavjud, masalan:




d-metallarning komplekslarida bu reaksiya bir ligandning ikkinchisini siqib chiqarishiga olib keladi.


O'rin olsh reaksiyalarida Luyis kompleksida kislota yoki asos boshqa kislota yoki asosni siqib chiqaradi.

6) almasinish reaksiyalari

Almashinish reaksiyalari o'rindoshlar o'zgarishidir:



:B' asosning :B asosga almashinuvi A' kislota orqali amalga oshadi. Masalan, quyidagi reaksiya



Bu reaksiyada I^- Br^- ioniga almashyapti, bu holatga mos Ag^+ ion panjara hosil bo'ladi.


Almashinuv reaksiyasi – bu boshqa kompleks hosil bo'lishiga olib keadigan reaksiyadir.

Luyisning kislota va asoslarining sinflanishi

a) kislota va asoslarning sinflanishi

Luyisning kislota va asoslarini o'zaro ta'sirini o'rganish davriy jadvalning turli qismlari elementlari uchun ikkita asosiy sinfga bo'lish muhimligini ko'rsatdi. Moddalarni «uymshoq» va «qattiq» kislota va asoslarga bo'lish R.G. Pirson tomonidan kiritilgan.

Birikmani u yoki bu sinfga tegishli ekanligi tajribalar asosida ligand sifatida galogenid ionlari olinib kompleksning muvozanat konstantasi K_f aniqlanadi



Rasm. 3.12. Komplekslarning barqarorlik konstantasini o'zgarishi va kationlarning qattiq, chegaradagi va uymshoq kislotalarga bo'linishi. Chegara chiziqlardagi ionlar uymshoq va qattiq kislotalar sohasida joylanishi mumkin.

[Burgess J., Metal ions in solution, Ellis Horwood, Chichester, 1988]; Diagrammadan qarab qattiqlik va uymshoqlik darajasi har xilligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

- **qattiq kislotalarning komplekslarini barqarorligi o'zgarish tartibi:**



- **uymshoq kislotalarning komplekslarini o'zgarish tartibi:**



Jadval 5.3. Luyisning kislota va asoslarini sinflanishi

	Qattiq	Chegarada	Uymshoq
Kislotalar	$H^+, Li^+, Na^+, K^+,$ $Be^{2+}, Mg^{2+}, Ca^{2+},$ $Cr^{2+}, Cr^{3+}, Al^{3+},$ SO_3, BF_3	$Fe^{2+}, Co^{2+}, Ni^{2+},$ $Cu^{2+}, Zn^{2+}, Pb^{2+},$ SO_2, BBr_3	$Cu^+, Ag^+, Au^+, Tl^+, Hg^+,$ $Pd^{2+}, Cd^{2+}, Pt^{2+}, Hg^{2+},$ BH_3
asoslar	$F^-, OH^-, H_2O, NH_3,$ $CO_3^{2-}, NO_3^-, O^{2-},$ $SO_4^{2-}, PO_4^{3-}, ClO_4^-$	$NO_2^-, SO_3^{2-}, Br^-,$ $N_3^-, N_2,$ C_6H_5N, SCN^-	$H^-, R^-, CN^-, CO, I^-,$ $SCN^-, R_3P, C_6H_6,$ R_2S

Kislota-asos ta'sirda ishtirok etadigan element tagiga chizib qo'yilgan.

Al^{3+} ioni uchun bog' mustahkamligi anionning elektrostatik parametri $\chi = z^2/r$ ortib borishi bilan bogning ion modeliga mos keladi. Hg^{2+} uchun esa anionning polyarlanishi ortishi bilan bog'lanish kuchi ortadi. Bu ikkala holat, qattiq kislotalar ion o'zaro ta'sir tufyili komplekslar hosil qilishi va 'lektrostatik o'zaro ta'sirning ustun kelishidan, uymshoq kislotalarda bo'lsa, hosil bo'lgan komplekslarda kovalent boglanish uzaga kelishi ustunligi ko'rinib turibdi.

Shunday sinflash neytral kislota va asoslar uchun ham o'rinlidir. Masalan Luyis kislotalari fenol $(C_2H_5)_2O$: bilan barqaror komplekslar hosil qilgani holda $(C_2H_5)_2S$: bilan komplekslar hosil qilmaydi. Bunday holat Al^{3+} ionida ham F^- da va Cl^- ionida kuzatiladi.

Luyis kislotalari I_2 teskarisi $(C_2H_5)_2S$: barqaror kompleks hosil qiladi. Demak, fenol qattiq kislota, I_2 bo'lsa uymshoq kislota.

Umumiy holatda hosil bo'ladigan komplekslarning termodinamik barqarorligi jihatidan galogenid komplekslariga o'xshash uymshoq va qattiq kislotalarga bo'linadi. Boshqa komplekslar uchun agar zarrachalar sifatida olinsa quyidagi qoidalar kuzatiladi:

•**qattiq kislotalar uchun komplekslar barqarorligi ortadi:**



•**uymshoq kislotalar uchun komplekslarning barqarorligi ortadi:**



Qattiqlik ta'rifi asosida:

•**Qattiq kislotalar qattiq asoslar bilan bog' hosil qilishga moyil.**

•**Uymshoq kislotalar uymshoq asoslar bilan bog' hosil qilishga moyil.**

Erituvchilar kislota va asoslar sifatida

Ko'p erituvchilar elektron juftning akseptori yoki donoridir, mos ravishda ular Luyisning yoki kislotalari yoki asosi hisoblanadi. Erituvchining kislotaligi yoki asosligi kata ahamiyatga ega, chunki ular suvli va suvsiz erituvchilardagi reaksiyalarni farqlash imkoniyatini beradi. Modda erituvchida eriganida orin olish reaksiyalari ketadi yoki almashinish ham borishi mumkin. Masalan, surma (V) ftorid brom trifloridi orasida o'rin olish reaksiyasi amalga oshadi:




Bu reaksiyada SbF_5 kuchli Luyis kislotalari bo'lib, u F^- ionini BrF_3^- mekulasidan dan tortib oladi. Bryonsted boyicha reaksiyada erituvchining roli

ancha keng tushuniladi. Bunda $[H^+]$ doim erituvchi bilan kompleks hosil qilishi qaraladi, yani H_3O^+ ioni hosil bo'lib erituvchi rovida suv keladi. Eritmadagi reaksiya protonning ko'chishi bilan amalga oshadi, yani proton erituvchidan-asosdan boshqa asosga o'tadi. Odatdagi erituvchilardan faqat to'yingan uglevodorodlarga aniq ifodalangan Luyisning kislotalik xossasiga ega emas.

a) Asos xossasiga ega erituvchilar

Luyisning asos xossalariga ega erituvchilari ancha ko'p uchraydi. Ularning ko'pi keng tarqalgan polyar erituvchilar, suv ham ular jumlasidan. Shuningdek, spirtlar, 'firlar, aminlar, dimetilsulfoksid (DMSO, $(CH_3)_2SO$), dimetil formamid, диметилформамид (DMFA, $(CH_3)_2NCHO$) va asetonitril (CH_3CN), Luyisning qattiq kislotalari qatoriga kiradi. Dimetisulfooksid juda qiziq misol, u bir paytni o'zida ham qattiq asos (donor O atomi) uymshoq asos (agar donor S atomi). Bu erituvchilarda kislota asos ta'siri asosan o'rin olish hisoblanadi:




Asos xossasini namoyon etadigan erituvchilar keng tarqalgan, ular erigan modda bilan komplekslar hosil qiladi va o'rin olish reaksiyalarida ishtirok etadi.

Juda muhim suvsiz erituvchilar

Tetragidrofuran (TGF) 66° s da qaynaydigan siklik, polyar bo'lmagan erituvchi. U juda yaxshi suvsiz erituvchidir. U kuchsiz qattiq asos xossasini namoyon etadi.

Bundan tashqari metilsianid (CH_3CN) va dimetilsulfoksid ham ko'p ishlatiladi.



D-1 Tetragidrifuran

Ammiak ham juda kuchli qattiq asos hisoblanadi. Juda ko'p suyq HF ham ishlatiladi.


Geterogen kislota -asos reaksiyalari

Juda ko'p Luyis va Bryonsted kislotaligiga ega noorganik moddalar ishtirokidagi reaksiyalar qattiq modda sathida amalga oshadi. Neft-kimyoviy ishlab chiqarishda ishlatiladigan uglevodorodlar konversiyasida qo'llaniladigan katalizatorlar qattiq moddalar bo'lib, ular kata sathga ega va luyisning kislotalik aktiv markazi mavjud bo'ladi.

Tuproq va suv kimyosida muhim o'rin tutadigan ko'p materiallar oz sathida Bryonsted va Luyisning kislotalari guruhlarini tutadi.

Qumtuproq tarkibida Luyisning kislotalik markazlari hosil bolishi qiyin, chunki OH^- guruhlar SiO_2 sirti bilan ancha qattiq bog'langan. Shu tufayli Bryonsted bo'yicha kislotalik bu moddalarda ustun bo'ladi. O'z-o'zidan qumtuproq sirtida

Bryonsted bo'yicha kislotalik ham juda uyqori emas(sirka kislotasi darajasida). Lekin uni tarkibidagi aluymosilikatlar Luyis bo'yicha kislotaligi ancha kuchli ifodalangan. Silikagel tarkibidagi sirtidagi ishtirok etaligan Bryonsted aktiv markazlari juda uypqa organic qavatlar hosil qilishda ishlatiladi. Bunda sirtning modofikasiyalanish reaksiyasi amalga oshadi:



Shunday qilib, silikagellar malum sinfdagi moddalarga .tish qoboliyatini oshirish uchun ularning sirti o'zgartiriladi. Bu usul xramotografiyada ko'p ishlatiladigan harakatlanmaydigan fazaning sonini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Shisha tarkibidagi OH- guruhi protonlarga sezgir bo'lgan shisha tayyorlashda shisha idishning sathiga ishlov beriladi.

Ko'p katalizator va minerallar sathida Bryonsted va Louri kislotalari bo'lgan aktiv markazlar mavjud.

Organik kimyoda Bryonsted kislotaligi to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi adabiyotlarda berilgan:

Eritmalar²³

Ikki va undan ortiq komponentlardan va ularning o'zaro ta'sir mahsulotlaridan tashkil topgan gomogen sistemaga eritma deyiladi. Eritmalar tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Masalan qon, limfa, va so'lak suyuqliklari eritmalaridir. Eritmalar kimyoviy birikmalar va oddiy mexanik aralashmalar o'rtasida oraliq holatni egallaydilar.

Eritmalar kimyoviy birikmalarga o'xshash bir jinsli ya'ni gomogen bo'ladi.

Erish jarayoni kimyoviy reaksiyaga o'xshash issiqlik yutilishi yoki chiqishi bilan ro'y beradi. Eritmalar kimyoviy birikmalardan farq qilib tarkibi o'zgaruvchan bo'lib, ham erituvchi ham erigan modda xossalarini namoyon qiladi. Erigan moddani erituvchidan fizikaviy usulda ajratib olish mumkin. Bu xossalari bilan eritma mexanik aralashmaga o'xshaydi.

Eritmaning yoki erituvchining hajm yoki massa birligida erigan modda miqdoriga konsentratsiya deyiladi.

²³ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov.

Anorganik kimyo ("Farmasiya " -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.- T."Nohsir",2011.520 b.

Eritmada erigan modda miqdori ko'p bo'lsa, bunday eritma kontsentrlangan, oz bo'lsa, suyultirilgan eritma deyiladi. Kontsentrsiyani ifodalashning bir necha usullari mavjud.

1. **Erigan modda massasining eritmaning umumiy massasiga nisbati erigan moddaning massa ulushi deyiladi.**

$$w = \frac{m_1}{m_2} \quad w \% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$$

$$m_2 = m_1 + m_0$$

w - erigan modda massa ulushi

m_1 - erigan modda massasi, g

m_2 - eritmaning massasi, g

m_0 - erituvchining massasi, g.

2. Bir litr eritmada erigan modda miqdoriga molyar kontsentrsiya deyiladi.

$$C = \frac{n}{V} \quad \text{yoki} \quad C = \frac{m}{M V}$$

C - molyar kontsentrsiya,

m - erigan modda massasi, g

M - erigan modda molyar massasi, g/mol

n - erigan modda miqdori, mol.

0,5 M NaOH – bu ifoda molyar kontsentratsiyasi 0,5 mol/l bo'lgan natriy gidroksid eritmasi ekanligini bildiradi.

4. Bir kilogramm erituvchida erigan modda miqdoriga molyal kontsentrsiya deyiladi.

$$C_m = \frac{n}{m_0} \quad C_m = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot q}$$

C_m - molyal kontsentrsiya, mol/kg

m_0 - erituvchi massasi, kg

m - erigan modda massasi, g

M - erigan modda molyar massasi, g/mol

q - erituvchi massasi, g

n - erigan modda miqdori, mol.

4. **Bir litr eritmada erigan modda ekvivalent miqdoriga normal (ekvivalentning molyar) kontsentrsiya deyiladi.**

$$C_n = \frac{m}{E V} \quad E - \text{erigan moddaning ekvivalent massasi, g/mol.}$$

0,5n H₂SO₄ - bu ibora bir litrda 0,5 ekvivalent miqdor (24,5g) H₂SO₄ bo'lgan eritmani ifodalaydi

5. Ergan moddaning molyar ulushi deb, erigan modda miqdorining eritmadagi barcha moddalar miqdorlari yig'indisiga nisbatiga aytiladi.

$$N_1 = \frac{n_1}{n_1 + n_0} \quad N_0 = \frac{n_0}{n_1 + n_0}$$

N₁ - erigan modda molyar ulushi,

N₀ - erituvchining molyar ulushi,

n₁ - erigan modda miqdori, mol,

n₀ - erituvchi miqdori, mol.

6. Bir millilitr eritmada erigan modda grammlar soniga titr deyiladi.

$$T = \frac{C_n E}{1000} \quad \text{yoki} \quad T = \frac{C_m M}{1000}$$

Eritmaning hajmi, zichligi va massasi quyidagicha o'zaro bog'liq:

$$m = \delta \cdot V$$

m - eritma massasi, g

V - eritma hajmi, ml

δ - eritma zichligi, g/ml.

Agar eritmaning zichligi, massa ulushi ma'lum bo'lsa, uning konsentratsiyalarini quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin.

$$C_m = \frac{w \% \delta 10}{M} \quad C_n = \frac{w \% \delta 10}{E}$$

$$C_m = \frac{w \% \delta 1000}{M (100 - w \%)}$$

Dorixonalarda massa ulushlari ma'lum bo'lgan ikkita eritmada ma'lum miqdor uchinchi massa ulushli eritmani tayyorlash uchun aralashtirish qoidasi ishlatiladi. Bu qoidaga binoan birinchi ustunga mavjud ikkita eritmaning massa ulushlari yoziladi. Tayyorlashimiz lozim bo'lgan uchinchi eritmaning massa ulushi mavjud eritmalar massa ulushlari qiymatlari orasida bo'lishi shart, ya'ni $w_1 > w_2 > w_3$. 2-ustunga tayyorlanishi kerak bolgan eritmaning massa ulushi (w_2) yoziladi.

3-ustunga esa, diagonal bo'yicha massa ulushlari orasigi farq yoziladi. Ho'sil bo'lgan sonlar 1- va 2- eritmalarni qanday nisbatda aralashtirganda 3- eritma hosil bo'lishini ko'rsatadi.

$$W_1 \quad W_3 - W_2$$

$$W_2$$

$$W_3 \quad W_1 - W_2$$

Misol: 360g 5%-li natriy xlorid eritmasini tayyorlash uchun 20%li va 2%li eritmalaridan necha grammdan olish kerak?

$$\text{Echish: } 20 \quad 5-2=3 \quad 3x (20\%) \quad 18x = 360g.$$

$$5$$

$$2 \quad 20-5=15 \quad 15x (2\%) \quad x = 20g.$$

$$20\% \text{ li eritma massasi: } 3x = 3 \cdot 20 = 60g$$

$$2\% \text{ li eritma massasi: } 15x = 15 \cdot 20 = 300g$$


ERUVCHANLIK²⁴

Ayni haroratda ma'lum erituvchida erishi mumkin bo'lgan modda miqdori eruvchanlik deyiladi. Biror bir erituvchida moddaning erishi o'z-o'zicha borib , bunda $\Delta G < 0$, shuning uchun jara'yon o'z-o'zicha boradi.

20 °C da 100 g erituvchida 10 g ortiq modda erisa bu modda yaxshi eriydigan hisoblanadi. Xuddi shu sharoitda 0,01 – 1,0 g atrofida erisa qiyin eriydigan hisoblanadi.

Agar shu sharoitda 0,01 g dan kam erisa amaliy jihatdan erimaydigan hisoblanadi. Umuman erimaydigan modda bo'lmaydi.

Ko'p qattiq moddalarning eruvchanligi temperatura ortishi bilan ortadi. Shuning uchun temperaturaning pasayishi eruvchanlikni kamayishiga va harorat kamaygan sari kristallanishga olib keladi.



²⁴ Martin S.Silberg, Principles of general Chemistry, third edition, New York, 2013, P.391-405.

$$\Delta T_b \propto m \quad \text{or} \quad \Delta T_b = K_b m$$


$$\Delta T_b = T_{b(\text{solution})} - T_{b(\text{solvent})}$$

Solvent	Boiling Point (°C)*	K_b (°C/m)	Melting Point (°C)	K_f (°C/m)
Acetic acid	117.9	3.07	16.6	3.90
Benzene	80.1	2.53	5.5	4.90
Carbon disulfide	46.2	2.34	-111.5	3.83
Carbon tetrachloride	76.5	5.03	-23	30.
Chloroform	61.7	3.63	-63.5	4.70
Diethyl ether	34.5	2.02	-116.2	1.79
Ethanol	78.5	1.22	-117.3	1.99
Water	100.0	0.512	0.0	1.86

*At 1 atm.

$$\Delta T_f \propto m \quad \text{or} \quad \Delta T_f = K_f m$$

$$\Delta T_f = T_{f(\text{solvent})} - T_{f(\text{solution})}$$



Osmotic Pressure





Figure 13.15 An ionic atmosphere model for nonideal behavior of electrolyte solutions.



1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir", 2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, «Anorganik kimyo» ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T., 2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar

- 1) Eritmalar
- 2) Kontsentratsiyani ifodalash usullari
- 3) Gidratlar va kristallogidratlar
- 4) Qattiq, suyuq va gaz moddalarning eruvchanligi
- 5) Osmos hodisasi va osmotik bosim
- 6) Raul qonunlari

7- ma'ruza

3.5. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalari. Oksidlovchi va qaytaruvchining potentsiali. Potensiallar diagrammalar sifatida(Latimer,Frost). Elementlarni kimyoviy ajratib olinishi. Oksidlanish va qaytarilish bilan olinadigan kimyoviy elementlar

Ma'ruzaning maqsadi: talabalarni oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari bilan tanishtirish.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Oksidlanish-qaytarilish-reaksiyalari tushunchasi;
2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining teglash usullari. Ion-elektron usul.
3. Qaytarilish va oksidlanish reaksiyalari bilan olinadigan elementlar;
4. Oksidlanish-qaytarilish potentsiallari;
5. Potensiallar diagrammalar shaklida. Latimer diagrammasi. Frost diagrammasi.
6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining ahamiyati.

Tayanch iboralar: oksidlovchi, qaytaruvchi, kimyoviy elementlarni ajratib olish, Latimer va Frost diagrammasi.

Oxidation and reduction


5

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari²⁵


Ko'pdan ko'p reaksiyalar bir zarrchadan ikkinchisiga elektronlarni ko'chishi bilan amalga oshadi. Elektron qabul qilinishi qaytarilish, elektron berilshi oksidlanish deyiladi. Elektron beruvchi zarrachalar qaytaruvchilar va elektron qabul qiluvchi zarrachalar oksidlovchilar deyiladi.

Qaytarilish natijasida olinadigan elementlar

Odatda sulfidlarni yondirib, ularni oksidlarga aylantirish va qaytarish jarayoni ko'p ishlatiladi:



²⁵ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 147-174.



5.1.Vodorod –mis zanjiri sxemasi.

Elektrni ishlatilishi metallarni uglerod bilan qaytarish imkoniyatlarini kengaytirdi. Uglerod yongandan ko'ra elektr pechlarida uyqori hariratga erishish osonlashdi. Masalan, magniy XX asr metalli magniy pidjeon usulida uglerodni elektrotermik qaytarish usulida olinadi:





Table 5.2 Selected standard potentials at 298 K; further values are included in Resource section 3


Couple	E°/V
$\text{F}_2(\text{g}) + 2\text{e}^- \rightarrow 2\text{F}^-(\text{aq})$	+2.87
$\text{Ce}^{4+}(\text{aq}) + \text{e}^- \rightarrow \text{Ce}^{3+}(\text{aq})$	+1.76
$\text{MnO}_4^-(\text{aq}) + 8\text{H}^+(\text{aq}) + 5\text{e}^- \rightarrow \text{Mn}^{2+}(\text{aq}) + 4\text{H}_2\text{O}(\text{l})$	+1.51
$\text{Cl}_2(\text{g}) + 2\text{e}^- \rightarrow 2\text{Cl}^-(\text{aq})$	+1.36
$\text{O}_2(\text{g}) + 4\text{H}^+(\text{aq}) + 4\text{e}^- \rightarrow 2\text{H}_2\text{O}(\text{l})$	+1.23
$[\text{IrCl}_6]^{2-}(\text{aq}) + \text{e}^- \rightarrow [\text{IrCl}_6]^{3-}(\text{aq})$	+0.87
$\text{Fe}^{3+}(\text{aq}) + \text{e}^- \rightarrow \text{Fe}^{2+}(\text{aq})$	+0.77
$[\text{PtCl}_4]^{2-}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightarrow \text{Pt}(\text{s}) + 4\text{Cl}^-(\text{aq})$	+0.60
$\text{I}_2(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightarrow 2\text{I}^-(\text{aq})$	+0.54
$[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-}(\text{aq}) + \text{e}^- \rightarrow [\text{Fe}(\text{CN})_6]^{4-}(\text{aq})$	+0.36
$\text{AgCl}(\text{s}) + \text{e}^- \rightarrow \text{Ag}(\text{s}) + \text{Cl}^-(\text{aq})$	+0.22
$2\text{H}^+(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightarrow \text{H}_2(\text{g})$	0
$\text{AgI}(\text{s}) + \text{e}^- \rightarrow \text{Ag}(\text{s}) + \text{I}^-(\text{aq})$	-0.15
$\text{Zn}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightarrow \text{Zn}(\text{s})$	-0.76
$\text{Al}^{3+}(\text{aq}) + 3\text{e}^- \rightarrow \text{Al}(\text{s})$	-1.68
$\text{Ca}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightarrow \text{Ca}(\text{s})$	-2.84
$\text{Li}^+(\text{aq}) + \text{e}^- \rightarrow \text{Li}(\text{s})$	-3.04



5.2-rasm. Suvni elektrolizi jarayonida membranali ajratish sxemasi.

Metallar rudalardan kimyoviy qaytarish yoki elektrokimyoviy qaytarish yiki elektroliz usulida olinadi.



Mis metallini ajratib olishning istiqbolli gidrometallurgiya texnologiyalardan biri eritmadagi ionlaridan metallni ajratib olish. Qaytaruvchi sifatida H_2 yoki temir qirrindisi olinadi. Sifati past bo'lgan ruda tarkibidan Cu^{2+} ioni kislota yoki bakteriyalar ta'sirida ajratib olinadi va vodorod bilan qaytariladi.



Qaytaruvchi sifatida Fe ham ishlatish mumkin. Usul ekologik xafvsiz va mis miqdori kam bo'lgan rudani ishlatish imkoniyatini beradi. Suvdan vodorod va

kislorod olishda ham elektroliz jarayonida membranalarni ishlatish orqali vodorod va kislorod ajratiladi(5.2-rasm).


Domna pechida ruda (Fe_2O_3 va Fe_3O_4), koks va ohaktosh(CaCO_3) issiq havo oqimi bilan qizdiriladi. Koksning havoda yonishi nyufayli harorat 2000 °s gacha ko'tariladi. Past qatlamlardagi uglerod mono oksidgacha yonadi. Uyg'oridan solinadigan Fe_2O_3 issiq CO bilan Fe_3O_4 , so'ngra FeO gacha qaytariladi. Temirning oxirgi qaytarilishi 1000-1200 gacha domna markazida amalga oshadi(5.4-rasm):




5.4. rasm. Domna pechining harorati va ko'rinishi.

5.1. Oksidlanish reaksiyalari yordamida olinadigan elementlar

Galogenidlar oksidlanish usuli bilan olinadigan eng muhim elementlardan biridir. Xlor ionining suvda oksidlanish reaksiyasining standart Gibbs energiyasi:




+ qiymatga ega. Reaksiya borishi uchun elektrolizni amalga oshirish kerak. Oksidlanish boshlanishi uchun potentsiallar farqi 2,2 V bolishi kerak. Bu yerda konkurent reaksiya uchun:



1,2 V potensial bilan tok o'tkazish kerak.

Ftoridlar eritmasi elektrolizida ftor hosil bo'lmaydi. Ftor olish uchun suvsiz kaliy ftorid HF aralashmasini 720°S ion otkazgich bilan elektroliz qilinadi.

Galogenidlar suvdagi eritmalariga xloq bilan oksidlash orqali Br₂ va I₂ olinadi. Elementar S olish uchun neft tarkibidagi oltingugurt 2-gidroksietilamin bilan ajratish mumkin:




Ikkinchi bosqichda reaksiyaga kirmagan H₂S ni oltingugurt (IV) oksidi bilan ta'sir etib oltingugurt olish mumkin:




Bu reaksiyada katalizator **Fe₂O₃** yoki **Al₂O₃**.

Oltinni sianid usulida ajratib olish uchun oksidlanib:



so'ngra boshqa metal bilan ajratib olinadi:



Oksidlanish reaksiyalari bilan galogenlar, oltingugurt, va barcha bir qimmatli metallar olinadi,

Б) Nernst tenglamasi

Jarayonning o'z-o'zidan bo'rish y'nalishini bilish uchun reagentlar tarkibi asosida ΔG_r qiymatini hisoblash kerak. ΔG_r qiymatini hisoblashda quyidagi tenglama ishlatiladi:

$$\Delta_r G = \Delta_r G^\circ + RT \ln Q$$

Q quyidagicha aniqlanadi:

$$a\text{Ox}_A + b\text{Red}_B \rightarrow a'\text{Red}_A + b'\text{Ox}_B \quad Q = \frac{[\text{Red}_A]^{a'} [\text{Ox}_B]^{b'}}{[\text{Ox}_A]^a [\text{Red}_B]^b} \quad (8)$$

Agar reaksiyada $\Delta G_r < 0$ bo'lsa jarayon o'z-o'zicha boradi. Bunda potensial $E = -\Delta G_r / \nu F$ va $E^\circ = -\Delta G_r^\circ / \nu F$, bu esa Nernst tenglamasiga olib keladi:

$$E = E^\circ - \frac{RT}{\nu F} \ln Q \quad (9)$$

Agar reaksiya shu sharoitda o'z-o'zicha borsa $E > 0$, bunda $\Delta G_r^\circ < 0$. Muvozanat holatida

$E = 0$ va $Q = K$, (8) tenglama juda muhim bo'lib, ayni haroratda muvozanat konstantasi bilan standart potensialni bog'laydi:

$$\ln K = \frac{\nu F E^\circ}{RT} \quad (10)$$

Potensiallar qiymatini diagrammalar shaklida ko'rsatish

The diagrammatic presentation of potential data


Bir element bir necha oksidlanish darajasiga ega bo'lsa, bu zarrachalarning nisbatan termodinamik barqarorligi diagrammalar shaklida ko'rsatish ancha foydali. Bunday diagrammalardan ikki xili ko'p ishlatiladi. Latimer diagrammasi

ayni element uchun miqdoriy qiymatlarni ifodalashda zarur. Frost diagrammasi bo'lsa turlicha oksidlanish darajasiga ega elementlar uchun zarrachalar barqarorligini nisbiy baholashda ishlatiladi.

Latimer diagrammasi Latimer diagrams

Latimer diagrammasida elementning turli oksidlanish darajasida uning standart potentsiallarini qiymatini (voltlarda) bog'laydi. Eng uyqori oksidlanish darajasiga ega zarracha chapda joylashgan. Diagrammada chapdan o'ngga qarab elementning oksidlanish darajasi sekin asta kamayadi. Latimer diagrammasi ancha ma'lumotlarni o'zida to'playdi va ularni elementlar oksidlanish darajasi bilan bog'laydi.

Masalan xlor uchun kislotali muhitda Latimer diagrammasi ko'rinishi quyidagicha :




Bu misolda oksidlanish darajasi pastga yozib qo'yilgan:




Bu yozuv : $\text{HClO} \xrightarrow{+1,63} \text{Cl}_2$

Quyidagi reaksiya amalga oshayotganligini bildiradi



Bu misol, Latimer diagrammasida mos yarim reaksiyalarga kislotali muhitda mavjud zarrachalardan (H^+ va H_2) o'tishni ko'rsatadi. Reaksiyalar tenglashtirilib kerakli elektronlar qo'shiladi. Bu juftning standart holatida $\text{pH}=0$. Latimer diagrammasida ishqoriy muhitda ($\text{pH}=14$) kollash uchun quyidagi jarayonlar amalga oshadi:



Shuni ta'kidlash kerakki, Cl_2/Cl^- jufti uchun kislotali muhitda ham potesial qiymati bir xil bolaveradi, chunki reaksiyada protonlar ishtirok etmaydi. Ishqoriy muhitda eng asosiy zarrachalar OH^- va H_2O bo'lgani uchun ular yarim reaksiyalarda ishtirok etadi. Misol uchun ClO^-/Cl_2 juftini yarim reaksiyasini misol sifaidda ko'raylik:



Bu reaksiya uchun standart holat $\text{pOH}=0$, shu holatda $\text{pH}=14$.

Latimer diagrammasi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari standart potentsiallarini sxemalar tarzida ifodalaydi: chapdan o'ngga o'tgan sari oksidlanish

darajasi kamayadi, E^0 potentsiallari qiymati shu juftga kiradigan zarrachalarning tagiga yoziladi.

a) Latimer diagrammasiga kirmaydigan zarrachalar

Diagrammada qo'shni bo'lmagan zarrachalar standart potentsiallarini hisoblash uchun quyidagi formula ishlatiladi (5) ($\Delta_r G^0 = -\nu F E^0$)

и тот факт, что суммарная $\Delta_r G^0$ ni yig'inda qiymati ikkita reaksiyadagi bu qiymatlarning yig'indisidir:

$$\Delta_r G^0 = \Delta_r G^{0'} + \Delta_r G^{0''}$$


Murakkab jarayonning standart potentsiali qiymati E^0 alohida qiymatlarini $\Delta_r G^0$ ko'paytirish, so'ngra ko'paytuvchini $-\nu F$, qo'shib summani $-\nu F$ ga bo'lish orqali topiladi:

$$-\nu F E^0 = -\nu' F E^{0'} - \nu'' F E^{0''}$$

Ko'paytuvchidagi F qisqarib $\nu = \nu' + \nu''$, tenglama (14) olinadi.

$$E^0 = \frac{\nu' E^{0'} + \nu'' E^{0''}}{\nu' + \nu''}$$

Frost diagrammasi turli birikmalarni oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida birikmalarni barqaror holatlarini topish imkoniyatini beradi. Ayniqsa oksidlanish-qaytarilish–reaksiyalarida disproporsialanish reaksiyalarida ishtirok etishini oldindan aytish mumkin.



5.5- rasm. Frost diagrammasi bo'yicha azot, kislorod va marganes birikmalarini baholanishi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari²⁶

Oksidlanish darajasi atomning molekuladagi shartli zaryadi bolib, u molekula hosil qilishda atom nechta elektron bergani yoki olganini ko'rsatadi.

1) barcha oddiy moddalar uchun oksidlanish darajasi nolga teng. $P^0, Cl_2^0, H_2^0, C^0, Al^0, Cr^0$ va hokazo.

²⁶ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya –5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.

2) Vodorodni birikmalardagi oksidlanish darajasi +1 ga teng. Faqat metall gidridlarida vodorodni oksidlanish darajasi -1 ga teng ($K^{+1}H^{-1}$, $Ca^{+2}H^{-1}_2, Al^{+3}H^{-1}_3$).

3) Agar murakkab modda ikkita elementdan tashkil topgan bo'lsa bu elementlarning oksidlanish darajasi valentlikka teng, lekin u + yoki - ishoraga ega bo'ladi. Masalan, $H^{+}Cl^{-}$, $H_2^{+}S^{-2}$, $S^{+6}O_3^{-2}$, $Mn_2^{+7}O_7^{-2}$ va bosqalar.


4) Murakkab moddani tashkil etgan atomlarning oksidlanish darajalari yig'indisi nolga teng. Masalan, $H_2^{+1}S^{+6}O_4^{-2} = +2+6-4 \times 2 = +8-8=0$;

H_3PO_4 ; P ning oksidlanish darajasi +5; H +1, O-2. Vodorod va kislorodning oksidlanish darajalari yig'indisidan oksidlanish darajasi noma'lum element topiladi. $HMnO_4$; H+1, O-8; +1-8=+7 Mn ning oksidlanish darajasini ko'rsatadi.

5) Bir elementni oksidlanish darajasining qiymati bir nechta bo'lishi mumkin. $H_2S, S, SO_2, SO_3, H_2SO_3, H_2SO_4$ dagi oltingugurtning oksidlanish darajasi -2, 0, +4, +6, +4 va +6 ga teng. Ularni ichida eng kichik oksidlanish darajasiga ega bo'lgan element qaytaruvchi va eng yuqori oksidlanish darajasiga ega bo'lgan element oksidlovchi bo'ladi.

$NH_3, N_2, N_2O, NO, N_2O_3, NO_2, N_2O_5, HNO_2$ va HNO_3 lardagi N ning oksidlanish darajasi -3, 0, +1, +2, +3, +4, +5, +3 va +5 ga teng. Bu birikmalardan NH_3 qaytaruvchi va HNO_3 hamda N_2O_5 oksidlovchilardir.

Agar kimyoviy reaksiyalar oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan borsa bunday reaksiyalar oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari deyiladi.




OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINING NAZARIYASI

1. Agar atom-molekula yoki ion o'zidan elektron bersa bunday reaksiyalar oksidlanish reaksiyalari deyiladi. Oksidlanish reaksiyalarida ayni elementning oksidlanish darajasi ortadi. Shu zarrachalarning o'zi qaytaruvchilar deyiladi.



2. Agar atom, molekula, yoki ion o'ziga elektron qabul qilsa bunday jarayon qaytarilish deyiladi. Bunda ayni zarrachaning oksidlanish darajasi kamayadi. Shu atom, molekula yoki ion oksidlovchi deyiladi.







3.Oksidlanish- qaytarilish reaksiyalari bir paytni o'zida sodir bo'ladi.

OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINI TENGLASHTIRISH

Bu reaksiyalarni tenglashtirishni ikki xil usuli bor.

- 1) elektron balans usuli;
- 2) yarim reaksiyalar usuli.

Birinchi usulda tenglashtirish maktab dasturi asosida kengroq o'rganilgan.




OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI (OQR) TURLARI




Oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari 4 ga bo'linadi:

- 1)molekulararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari;
- 2) ichki molekular oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari;
- 3) disproporsiyalanish reaksiyalari;
- 4) murakkab oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.



Molekulararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi va qaytaruvchi turli molekullarda bo'ladi.





Molekulararo oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari gazlar orasida:





Qattiq moddalar orasida:




Qattiq moddalar bilan suyuqliklar orasida:





Qattiq moddalar orasida:



Aksariyat oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari eritmada ketadi:




Bunday reaksiyalar qatoriga oksidlanish darajasi turlicha bo'lgan lekin bir xil atomlardan iborat moddalar orasidagi reaksiyalarni ham olish mumkin:






Disproporsiyalanish yoki o'z-o'zidan oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari

Molekula tarkibidagi bir xil element atomining oksidlanish darajasi ham ortadi, ham kamayadi:






Ichki molekulyar-oksidlanish qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi va qaytaruvchi bitta molekulani o'zida lekin har xil element atomlari ba'zan bir xil element atomlari ham bo'lishi mumkin:



Murakkab oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ikkitadan ortiq elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradi.

As_2S_3 ga konsentrlangan HNO_3 ta'sirida quyidagi reaksiya sodir bo'ladi :




Elektron balans usuli maktab dasturi bo'yicha to'la o'rgailganligi uchun faqat yarim reaksiyalar usuli (ion –elektron usulga to'xtalamiz. Bu usulning afzalligi shuki buna asosan suvdagi eritmalar olinadi. Elektron balans usulidan farq qilib oxirgi holatda haqiqiy mavjud ionlar qo'llaniladi. Elektron balans usulida esa faraz qilinadigan ionlar ishlatiladi, chunki eritmada Mn^{+7} , Cr^{+6} , S^{+6} , N^{+5} , N^{-3} , Cl^{+7} va bohqa ionlar mutlaqo uchramaydi. Ayni paytda eritmada haqiqiy bor bo'lgan ionlar Mn^{2+} , Cr^{3+} , MnO_4^- , CO_3^{2-} , ClO_4^- , $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$, SO_4^{2-} va boshqalar hisoblanadi. Yarim reaksiyalar usulida atomlarning oksidlanish darajasini bilish shart emas va reaksiya mahsulotlarini ham reaksiyani tenglashtirish jarayonida chiqarish mumkin.


Yarim reaksiyalar usulida oksidlanish –qaytarilish tenglashtirishda quyidagilarni hisobga olish kerak. Bunda oksidlovchi va qaytaruvchi hamda ularning reaksiya mahsulotlari ion holda yozilib ular asosida yarim reaksiyalar tuziladi. Kuchli elektrolitlar ion holda yozilib, kuchsiz elektrolitlar molekulyar holda (cho'kma, gaz) yoziladi.

Yarim reaksiyalar usulida oksidlanish –qaytarilish reaksiyalarini tenglashtirish uchun jadval ma'lumotlari asosida (2 jadval) yoki moddalarning oksidlanish-qaytarilish xossalari bilan bilgan holda oksidlanish yoki qaytarilish mahsulotlari topiladi. Bunda oksidlovchi va qaytaruvchi uchun 4 ta qoidadan foydalaniladi:


- 1) Kislotali muhitda oksidlovchi tarkibidagi ortiqcha kislorod vodorod ionini bilan bog'lanib suv molekulasi hosil qiladi va qaytariladi.





- 2) Neytral va ishqoriy sharoitda oksidlovchi tarkibidagi ortiqcha kislorod suv molekulasi bilan bog'lanib gidroksid ionini hosil qiladi va qaytariladi




- 3) kislotali va neytral sharoitda qaytaruvchi tarkibidagi yetishmayotgan kislorod suvdan olib vodorod ionini hosil qiladi.




- 4) Kuchli ishqoriy muhitda qaytaruvchi yetishmayotgan kislorodni gidroksid ionidan olib oksidlanadi va suv hosil qiladi.




Reaksiya paytida eritmani pushti rangi o'zgarib rangsizlanadi. Yarim reaksiya usulini ishlatish uchun reaksiyada qatnashgan ionlarni alohida ko'chirib yoziladi.




Oksidlovchining qaytarilgan va qaytaruvchining oksidlangan mahsulotlarini ko'rsatuvchi yarim reaksiyalar tuziladi.




yarim reaksiyaga 1 qoidani (2) yarim reaksiyaga (3) qoidani qo'llaymiz.



Bu reaksiyalardagi strelkalarni tenglik ishorasiga aylantirish uchun o'ng va chap tomondagi zaryadlar sonini tenglashtirish kerak.



Umumiy reaksiyani tuzish uchun oksidlovchi qabul qilgan va qaytaruvchi yo'qotgan elektronlar sonidan foydalanib va eng kichik ko'paytuvchiga ko'paytirib hadma had qo'shamiz.




O'xshash ionlarni qisqartirib reaksiyaning ion tenglamasini hosil qilamiz.

Ion tenglamadan molekular tenglamaga o'tish uchun ion tenglamaning chap va o'ng tomoniga mos keladigan anion va kationlarni qo'shamiz, shundan so'ng ionlarni molekularlarga birlashtirib molekular tenglamani hosil qilamiz.




Oxirgi tenglama oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining to'liq molekular tenglamasi hisoblanadi.



Misol 2.




Yarim reaksiya usulida tenglashtirilsa:



Oksidlovchi uchun (2) qoidani va qaytaruvchi uchun (3) qoidani qo'llab yarim reaksiyalarni yozamiz:




To'liq molekulyar tenglama yozish uchun mos ionlar qo'shiladi.



Vodorod peroksidi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida sharoitga qarab ham oksidlovchi ham qaytaruvchi xossasini namoyon etadi. Kuchli qaytaruvchilar bilan vodorod peroksidi oksidlovchi va reaksiya muhitiga qarab quyidagicha qaytariladi:

1) kislotali muhitda vodorod peroksidi vodorod ionini bilan bog'lanib suv molekulasini hosil qiladi.




2) neytral va ishqoriy sharoitda vodorod peroksidi o'ziga ikkita elektron qabul qilib gidroksid ionini hosil qiladi.






Misol 3.






Bu reaksiya molekula holda quyidagicha yoziladi:










Vodorod peroksidi kuchli oksidlovchilar bilan (KMnO_4 , $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$, $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ va bosqalar) bilan qaytaruvchi bo'lib reaksiyaga kirishadi va oksidlanadi.

1) kislotali muhitda vodorod peroksidi o'zidan ikkita elektron berib kislorod molekulasini hosil qiladi va oksidlanadi.



2) ishqoriy sharoitda vodorod peroksidi o'ziga ikkita elektron biriktirib kislorod va suv molekulasini hosil qiladi.



OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINING AHAMIYATI




Tirik organizmdagi barcha reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan iboratdir. Nafas olish, ovqat hazm qilish, turli biokimyoviy sintezlar asosida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari yotadi. Organizmda mikroelementlar yetishmasligi ana shu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo'nalishida o'zgarishlar ro'y berishi bilan boradi.

Oksidlovchi va qaytaruvchining ekvivalenti


Oksidlovchi va qaytaruvchilar doim ekvivalent miqdorda reaksiyaga kirishadilar.

Oksidlovchining ekvivalenti deb , oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi natijasida oksidlovchining qabul qilgan elektronlar soniga to'g'ri keladigan miqdorga aytiladi. Oksidlovchining ekvivalentini topish uchun uning molekulyar massasini shu reaksiyada oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soniga bo'lish kerak.

Qaytaruvchining ekvivalenti deb, oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida qaytaruvchining bergan bitta elektroniga to'g'ri keladigan miqdorga aytiladi. Qaytaruvchining ekvivalentini topish uchun uning molekulyar massasini shu reaksiyada qaytaruvchi bergan elektronlar soniga bo'lish kerak.



Molekulyar holda yozilsa:



Oksidlovchining ekvivalenti . $\text{O} \text{ K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 = M/6 = 296/6 = 49\text{g/mol}$


Qaytaruvchining ekvivalenti . $\text{O} \text{ FeSO}_4 = M/1 = 152$

Umumiy holda $\text{O} = M/n$ M-oksidlovchining yoki qaytaruvchining molekulyar massasi; n-oksidlovchi yoki qaytaruvchi molekulasidagi atom yoki ionlarning qabul qilgan yoki bergan elektronlar soni.

OKSIDLANISH- QAYTARILISH POTENSIALLARI

Reaksiya uchun olingan oksidlovchi va qaytaruvchi orasida reaksiya ketishi yoki ketmasligini bilish uchun ularning normal oksidlanish –qaytarilish potentsiallarini bilish kerak. Ularning qiymati jadvallarda keltirilgan.

Normal elektrod potentsiyali qancha kichik bo'lsa , metall shuncha aktiv bo'lib, osonlik bilan oksidlanadi tuzlaridan keyinlik bilan qaytariladi. Har bir metall normal elektrod potentsiali o'zinikidan yuqori bo'lgan barcha metallarni ularning tuzlaridan siqib chiqaradi. Galvanik elementlarda ham oksidlanish – qaytarilish jarayonlari ketganligi sababli ularning elektr yurituvchi kuchini normal elektrod potentsiallarini farqidan topish mumkin.



$E_{\text{Zn/Zn}^{2+}} = 0.763 \text{ v}$; $E_{\text{Cu/Cu}^{2+}} = +0.337 \text{ v}$

Unda shu oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uchun

$E_{\text{Cu/Cu}^{2+}} - E_{\text{Zn/Zn}^{2+}} = 0.337 - (-0.763) = 1.1 \text{ v}$


Agar $2\text{FeCl}_3 + \text{SnCl}_2 = 2\text{FeCl}_2 + \text{SnCl}_4$ reaksiyasi olinsa

$E_{\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}} = +0.77 \text{ v}$ $E_{\text{Sn}^{2+}/\text{Sn}^{4+}} = +0.15 \text{ v}$

Bu qiymatlarga ko'ra $\text{Sn}^{2+}/\text{Sn}^{4+}$ jufti qaytaruvchi, $\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}$ jufti esa oksidlovchi bo'la oladi. Bu reaksiya chapdan o'ngga bora oladi.



Reaksiyaning ion tenglamasi:



$2\text{Cl}^-/\text{Cl}_2$ jufti uchun $E = +1.36 \text{ v}$; $\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}$ jufti uchun $E = +0.77 \text{ v}$:

$2\text{Cl}^-/\text{Cl}_2$ jufti oksidlovchi, $\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}$ jufti esa qaytaruvchi bola oladi.

Demak, reaksiya bu erda teskari tarafga boradi.

Demak, elektronlar elektrod potentsiyali musbat metallardan potentsiali manfiy metallga o'tadi. Odatda oksidlanish –qaytarilish reaksiyalarida elektrod sifatida ishlatiladigan metallarning tashqi ko'rinishida o'zgarishlar ro'y beradi. Agar elektrod platinadan yasalgan bo'lsa bu elektrodga o'zgarishlar ro'y bermaydi. Unda faqat oksidlanish-qaytarilish reaksiyasigina ketadi. Shunday qilib, elektr yurituvchi kuch ayni jarayonda musbat bo'lsa oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uning tarafiga ketadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir", 2011. 520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T., 2016.-512 b.

So'rov uchun savollar:

1. Oksidlovchi va qaytaruvchi tushunchasi;
2. Qaytarilish reaksiyasi asosida olinadigan elementlarga misollar;
3. Oksidlanish reaksiyasi asosida olinadigan elementlarga misollar;
4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining potentsiallari.
5. Potensiallar diagrammalar shaklida.
6. Ion elektron usulda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglashtirish.

8- ma'ruza

3.8. Kompleks birikmalar. Koordinatsion kimyo va komplekslarning reaksiyalari. Komplekslarning nomlanishi. Komplekslarning tuzilishi Izomeriyasi va geometriyasi. Komplekslarning eritmadagi holati

Ma'ruzaning maqsadi: Kompleks birikmalar, ularning olinishi, nomenklaturasi, ularda kimyoviy bog'ning tabiati bilan talabalarni tanishtirish. Ularning tibbiyotdagi o'rnini yoritish.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Kompleks birikmalarning ta'rifi. Verner nazariyasi.
2. Kompleks birikmalarni sinflanishi.
3. Kompleks birikmalarning koordinatsion formulasini topish.
4. Kompleks birikmalarni nomlash.
5. Kompleks birikmalarning turlari.

Tayanch so'zlar: Kompleks birikma. Koordinatsion son, ichki sfera, tashqi sfera. Ligand. Beqarorlik konstantasi. Verner nazariyasi. Komplekslar izomeriyasi. Kristall maydon nazariyasi.



Kompleks birikmalar²⁷

Metallar komplekslarida markaziy atom yoki ion, bir qancha atomlar yoki ionlar bilan o'ralgan bo'lib, noorganik kimyoda, ayniqsa d- elementlar kimyosidamuhim rol oynaydi.

Bu bo'limda markaziy atom atrofida ligandlarning turli usullarda joylashuvi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. So'nga ikkita klassik nazariy model asosida metal-ligand bog'ining tabiati muhokama etilgan. Avvalo oddiy kristall maydon nazariyasi bog'ning elektrostatik modeli asosida, keyin bo'lsa anchagina murakkab bo'lgan ligandlar maydoni nazariyasi muhokama etilgan. Ikkala nazariyada ham

²⁷ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 199-219.

asosiy parameter ligandlar maydoni ta'sirida parchalanish energiyasi, u esa o'z navbatida komplekslarning spektroskopik ma'lumotlari va magnit xossalari bilan bog'langan. Ushbu parametr komplekslarning barqarorligi va ular ishtirokida ketadigan reaksiyalarning tushunishda yordam beradi.

d- metallar kimyosida kompleks termini markaziy atom yoki metal ioni va ma'lum ligandlar o'rami tushuniladi. Ligand bu ion yoki molekula, u kompleksga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'la oladi. Misol uchun, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{3+}$, unda ion Co^{3+} oltitta ligand NH_3 bilan o'ralgan. Neytral yoki ion birikmaning hech bo'lmasa bitta kompleks ioni uchun koordinasion birima termini ishlatiladi. Kompleks birikmalarga $[\text{Ni}(\text{CO})_4]$ va $[\text{Co}(\text{MH}_3)_6]\text{Cl}_3$ misol bo'la oladi. Bunday kompleksda Luyis klotasi(markaziy atom) va yonida Luyis asosi (ligand) turadi.

Kompleks markaziy atomidagi bog' hosil qilgan Luyis asosi bo'lgan atom, donor atom deyiladi va u bog' hosil qilishda elektronlar donori hisoblanadi. Ligand rolini o'ynayotgan H_2O da donor atom kislorod hisoblanadi. Metall atomi, ioni yoki Luyis kislotasi kompleksda akseptor vazifasini bajaradi.

Bu bo'limda d-metallar etomi yoki ionlari tutgan komplekslar qarab chiqiladi, lekin va p- elementlarning ham komplekslari borligini e'tiborga olinishi kerak.


Tuzilishi va simmetriyasi

Ichki sferada ligandlar markaziy atom va ion bilan bog'lagan. Markaziy ion bilan bog'lagan ligandlar komplekslarning birlamchi strukturasini hosil qiladi. Kompleks birikmadagi ligandlar soni koordinasion son deyiladi. Kristall birikmalarga o'xshash kompleks birikmalarda ham coordination son 12 gacha borishi mumkin, ana shu kunga ko'ra komplekslarning turi va har[illigi yuzaga keladi.

Bu bo'limda asosiy diqqat komplekslarning ichki sferasi tuzulishiga qaratilgan bo'lsa ham, kompleks kationlar elektratik ta'sirda anionlar bilan bog'langan (erituvchisiz bo'lsa ham) kompleksda(1) mavjud ionlar almashmagan holatda ta'sirlashadi.

Bunday komplekslar tashqi sferali komplekslar yoki ion juftlar deyiladi. Misol uchun $[\text{Mn}(\text{OH}_2)_6]^{2+}$ va SO_4^{2-} tashqi sferali kompleksda muvozanat konsentasiyasi $\{[\text{Mn}(\text{OH}_2)_6]^{2+} \text{SO}_4^{2-}\}$ konsentratsiyaga bog'liq ravishda ichki sferali kompleks $[\text{Mn}(\text{OH}_2)_6\text{SO}_4]$, bunda ligand metal bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. E'tiborga olish kerak, komplekslar hosil bo'lishining muvozanatini aniqlash usullarini ko'pchiligi ichki va tashqi sferali komplekslarni farqlash imkoniyati yo'q, ular faqat bog'langan ligandlarning umumiy summasini aniqlaydi. Barcha holatlarda metal va ligand qarama-qarshi zaryadga ega bo'lsa, ularda tashqi sferali komplekslar hosil bo'lishini hisobga olish kerak.





Kristallik moddaning tarkibidan d- metal ioni yoki atomning koordinasion soni doim ham qniq bolavermaydi, bu holda metal bilan bog' hosil qilmaydigan, lekin strukturadagi bo'sh fazoni elallshi mumkin bo'lgan erituvchi va boshqa zarrachalar bo'lishi ham mumkin. Masalan, $\text{CoCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ rentgenostrukturaviy tahlili , kompleksning kristallik strukturasi tarkibida $[\text{Co}(\text{OH}_2)_4(\text{Cl})_2]$ heytral kompleksi va ikkita koordiasiyalashmagan suv molekulari strukturada aniq joyni egallashini ko'rsatdi. Bunday qoshimcha erituvchi molekulari panjarali yoki kristallizasion erituvchi deyiladi.

Komplekslarning tarkibi va tuzilishi ²⁸

Kompleksning koordinasion soni uch omilga bog'liq:

1. Markaziy atom yoki ionning o'lchamiga;
2. Ligandlarning sterik o'zaro ta'siri;
3. Elektron ta'sir.

Ionlar va atomlar o'lchami jihatidan kata bo'lgan 5 va 6 davr elementlari kata koordinasion songa ega. Sterik faktor tufayli hajmi katta bo'lgan ligandlar koordinasion son kichik bo'lishiga olib keladi. Otish elmentlarining chap tomonidagi radiusi katta bo'lgan metallarda koordinasion son yuqori bo'ladi. Ayniqsa bu ionlar kam sondagi d-elektronlarga ega, chunki bu holatda metal ioni Luyisning asoslaridan ko'proq elektronlar qabul qilishi mumkin. Bunga misol sifatida $[\text{Mo}(\text{CN})_8]^{4-}$ ioni olinishi mumkin. Kichik koordinasion son d-blokning o'ng tarafida joylashgan elemental uchun xarakterli, ayniqsa bu ionlar ko'p sondagi d-elektronlarga ega bo'lsa bu yaqqol ko'rinadi., misol, $[\text{PtCl}_4]^{2-}$. Bu atomlar eng maqbul ligand hisoblangan Luyis kislotalarining elektronlarini qabul qilishga moyilligi kam bo'ladi. Agar ligandlar markaziy atom bilan qo'sh bog'lar hosil qilsa ham koordinasion sonning kam bo'lishi kutiladi, masalan, MnO_4^- va CrO_4^{2-} .

a) Kichik koordinasion sonlar

11 va 12 guruh elementlari odatdagi sharoitda eritmada $\text{KC} = 2$ ga teng komplekslar hosil qilishga moyil bo'lib, ularga: Cu(I), Ag(I), Au(I) va Hg(II) kiradi (sxemaga qarang).

²⁸ 2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.


8.1-jadval. Chiziqli komplekslarlar sxemasi.

11 guruh	12 guruh
$\text{Cu(I)} \quad \text{X} - \text{Cu} - \text{X}^{\neg-}$ $\text{X} = \text{Cl}, \text{Br}$	
$\text{Ag(I)} \quad \text{H}_3\text{N} - \text{Ag} - \text{NH}_3^{\neg+}$	
$\text{Au(I)} \quad \text{R}_3\text{P} - \text{Au} - \text{PR}_3^{\neg+}$	$\text{H}_3\text{C} - \text{Hg} - \text{CH}_3$

Ularga misol qilib, $[\text{AgCl}_2]^-$ kompleksini olish mumkin, bu kompleks ortiqcha Cl^- ionlari ishtirokida qattiq kumush xloridni eritadi. Boshqa misol, $[\text{Hg}(\text{CH}_3)_2]$ (2) olingan, bu juda zaharli kompleks bo'lib tabiatda Hg^{2+} (Aq). Shunigdek Au(I) qator chiziqli komplekslari ma'lum, ular LAuX umumiy formulaga ega, bu erda X-galogen, L- bo'lsa Luyisning neytal asoslari, ularga R_3P foafinlar, R_2S - tioefirlarni olish mumkin. ionini baktrriyalarga ta'siri tufayli hosil bo'ladi. $[(\text{R}_2\text{S})\text{AuCl}]$ kompleksdagi tioefirancha kuchli donor SR^- juda oson almashadi. $\text{KC}=2$ bo'lgan komplekslar qoshimcha ligandlarni biriktirib 3 va 4 koordinasion sonli komplekslar hosil qiladi.

Ba'zi holatlarda koordinasion son 2 ga g birikmada uyqori koordinasion sonli birikma yashiringan bo'ladi. Masalan, $\text{K}[\text{Cu}(\text{CN})_2]$ kompleksi misning koordinasion soni 3 bo'lgan zanjirli anion saqlaydi (3). KC 3 d- elementlar kompleks birikmalari ichida juda kam uchraydi. MX_3 , X - galogen odatda zanjrlardan yoki to'rlardan iborat, ular bir-biri bilan bog'langan umumiy ligandlarga ega uyqori koordinasion sonli metallar tutadi.

Oltinning (I) valentli komplekslari revmatoidli artridni davolashda qo'llaniladi, Au(I) merkpto guruhlar tutganida muhim ahamiyatga ega. [Platinum, gold, and other chemotherapeutic agents. Chemistry and biochemistry, ed. S. J, Lippard, ACS Symposium Series, No. 209. American Chemical Society, Washington, DC, 1983]



KC 2 bo'lgan komplekslar Cu^+ va Ag^+ uchun aniqlangan, bu komplekslar agar ligandlar etarli miqdorda olingan bo'lsa ko'p sonli ligandlarni biriktirad. Empirik formulada ko'zda tutilganidan uyqori koordinasion songa ega bo'lgan komplekslar mavjudligini e'tiborga olish kerak.

6) koordinasion soni 4 ga teng bo'lgan birikmalar



KC =4 kopdan ko'p birikmalar topilgan. Tetraedrik komplekslar , T_d simmetriyaga ega (4) barqaror, ayni paytda markaziy atom kata radiusga ega emas, ustiga kompleks tarkibida legandlar yirik o'lchamga (Cl,Br,I) ega. Bunda ligandlarning bir-birini itarishi hisobiga energiya uytishi sodir bo'libu xilma-xil metal-ligand bog'larining hosil bo'lishiga olib keladi.

Tetraedrik komplekclar jadvalda chapda turgan d-elementlar metallariga uyqori oksidlanish darajasiga ega bo'lgan , $[\text{CrO}_4^{2-}]$ kabi birikmalarda kuzatiladi. Jadvalning o'ng tarafidagi 3-d elenetlar masalan, $[\text{NiBr}_4]^{2-}$ birikmasida M^{2+} ionlar asosan tetraedrik konfigurasiyaga ega.

Shunday komplekslarga misol umumiy sxema 2 da keltirilgan.

A.Verner qator PtCl_2 ning NH_3 va HCl ta'siridan hosil bo'ladigan komplekslarining Pt (II) ning KC=4 bo'lgan komplekslarini o'rgandi. Umumiy formulasi ML_2X_2 kompleks birikma uchun tetraedrik holatda faqat bitta isomer va agar u kvadrat holatda bo'lsa ikkita isomer (5 a) va 5 (b) mavjud.

Tetraedrik komplekslarning umumiy sxemasi 2.



Verner ikkita noelektrolit tarkibni $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$, aniqladi, komplekslar faqat kvadrat bolish (6), lekin tetraedrik bo'lmasligini ta'kidladi. Kvadrat burchaklarida bir xil ligandlarni turishi sis- isomer deyiladi(5 a), kvadrat qarama-qarshi tarafida bir xil ligandlarning joylanishi trans –izomer deyiladi. Turlicha fazoviy joylanish tufayli uyzaga keladigan izomeriya geometric izomeriya deyiladi.

s- va p – elementlarda ham KC=4 ga teng komplekslar ma'llum, agar ularda bo'linmagan elektron juftlar bo'lmasa ular amalda tetraedrik $[\text{BeCl}_4]^{2-}$, $[\text{BF}_4]^-$ va $[\text{SnCl}_4]^{2-}$.



Geometrik izomeriya amaliy ahamiyatga ega saratonning kimoviy terapiyasida Pt(II) ning faqat sis –izomerlari samarali bo'lishi mumkinligi anqlangan. Bu ana shu komplekslarning DNK asoslari bilan uzoq vaqt davomida bog' hosil qilishi bilan bog'langan.

Tetraedrik komplekslar markaziy atom kichik raduysga ega, yoki ligandlar o'lchami katta bo'lganda hosil bo'lishi oson; ular d-blok metallari jadvalning chap tomoni va M^{2+} uchun galogenidlarida oson hosil bo'ladi.Kvadrat komplekslarda geometric izomeriya ehtimoli bor.

a) Koordinasion son 5 bo'lgan komplekslar

KC=5 o'tish elementlarining komplekslari kam tarqalgan. Markaziy atom yoki ionning koordinasion o'ralishi kvadrat piramida yoki trigonal bipiramida holatni tashkil etadi. Amalda bu holatlarni buzulishi ko'proq uchraydi.

[Muetterties E. L, Guggenberger L. J., J. Am. Chem. Soc., 96, 1748 (1974).
 $[\text{CdCl}_5]^{3-}$ (trigonal bipiramida), $[\text{P}(\text{C}_6\text{H}_5)_5]$, $[\text{Co}(\text{C}_6\text{H}_7\text{NO})_5]^{2+}$, $[\text{Ni}(\text{CN})_5]^{3-}$,
 $[\text{Nb}(\text{C}_5\text{H}_{10})_5]$, $[\text{Sb}(\text{C}_6\text{H}_5)_5]$ (kvadrat piramida).



Myoglobin – oqsil strukturasi (7) kislorod tasuvchi rolini bajaradigan strukturadir.

% - koordinasion o'ram polidantant ligandlarda ham kuzatiladi. Metall atomi trigonal bipiramida aksial holatda joylashgan, ayni holatda donor atomlar ekvatorial holatlar bo'yicha joylashgan (8).

Geometrik jihatdan farqlanadigan 5 koordinasiyali komplekslar bir-biridan ozgina farq qiladi. Bu beqarorlikni sababi $[\text{Ni}(\text{CN})_5]$ bitta kristalda kvadrat piramida (9a) va trigonalbipiramida holatida mavjud bo'lishi mumkin (9b)

8.1-jadval. Ko'p uchraydigan tipik ligandlar.

Table 7.1 Typical ligands and their names

Name	Formula	Abbreviation	Donor atoms	Number of donors
Acetylacetonato		acac ⁻	O	2
Ammine	NH ₃		N	1
Aqua	H ₂ O		O	1
2,2'-Bipyridine		bpy	N	2
Bromido	Br ⁻		Br	1
Carbanato	CO ₃ ²⁻		O	1 or 2
Carbonyl	CO		C	1
Chlorido	Cl ⁻		Cl	1
1,4,7,10,13,16-Hexaoxa-cyclooctadecane		18-crown-6	O	6

Table 7.1 (Continued)

Name	Formula	Abbreviation	Donor atoms	Number of donors
4,7,13,16,21-Penta α -1,10-diaza-bicyclo[8.8.5]tricosane		2.2.1 crypt	N, O	2N, 5O
Cyanido	CN ⁻		C	1
Diethylenetriamine	NH(CH ₂ CH ₂ NH ₂) ₂	dien	N	3
Bis(diphenylphosphino)ethane	Ph ₂ P-CH ₂ -CH ₂ -PPh ₂	dppe	P	2
Bis(diphenylphosphino)methane	Ph ₂ P-CH ₂ -PPh ₂	dppm	P	2
Cyclopentadienyl	C ₅ H ₅ ⁻	Cp ⁻	C	5
Ethylenediamine (1,2-diaminoethane)	NH ₂ CH ₂ CH ₂ NH ₂	en	N	2
Ethylenediaminetetraacetato		edta ⁴⁻	N, O	2N, 4O
Fluorido	F ⁻		F	1
Glycinato	NH ₂ CH ₂ CO ₂ ⁻	gly	N, O	1N, 1O
Hydrido	H ⁻		H	1
Hydroxido	OH ⁻		O	1
Iodido	I ⁻		I	1
Nitrato	NO ₃ ⁻		O	1 or 2
Nitrito- κ O	NO ₂ ⁻		O	1
Nitrito- κ N	NO ₂ ⁻		N	1
Oxido	O ²⁻		O	1
Oxalato		ox	O	2
Pyridine		py	N	1
Sulfido	S ²⁻		S	1
Tetraazacyclotetradecane		cyclam	N	4
Thiocyanato- κ N	NCS ⁻		N	1
Thiocyanato- κ S	SCN ⁻		S	1
Thiolato	RS ⁻		S	1
Triaminotriethylamine	N(CH ₂ CH ₂ NH ₂) ₃	tren	N	4
Tricyclohexylphosphine	P(C ₆ H ₁₁) ₃	PCy ₃	P	1
Trimethylphosphine	P(CH ₃) ₃	PMe ₃	P	1
Triphenylphosphine	P(C ₆ H ₅) ₃	PPh ₃	P	1

Table 7.2 Prefixes used for naming complexes

Prefix	Meaning
mono-	1
di-, bis-	2
tri-, tris-	3
tetra-, tetrakis-	4
penta-	5
hexa-	6
hepta-	7
octa-	8
nona-	9
deca-	10
undeca-	11
dodeca-	12

Polidentant ligandlar bo'lmaganda 5 koordinasiyli komplekslar energiya jihatidan ozgina farq qiladi. Bu komplekslar harakatchan boladi.


r) koordinasion son 6

KS 6 elektron konfiguratsiyasi d⁰ dan d⁹ gacha bo'lgan metallar uchun keng tarqalgan.


M³⁺ 3 qatordagi metal ionlarining barcha komplekslari oktaedrik hisoblanadi(10). 6 koordinasion bog'larning komplekslari ushbu misollarda ko'rinadi:

$[\text{Sc}(\text{OH}_2)_6]^{3+}$ (d^0), $[\text{Cr}(\text{MH}_3)_6]^{3+}$, (d^3), $[\text{Mo}(\text{CO})_6]$ d^6 , $[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-}$ (d^5)
 $[\text{RhCl}_6]^{3-}$ (d^6).

f-elementlarning ba'zi bir galogenidlari 6- koordinasion sonli komplekslar hosil qiladi, lekin bunday yirik kationlar uchun uyqori koordinasion son 8 va 9 xarakterlidir. Deyarli barcha komplekslar oktaedrik hisoblanadi. Komplekslarning umumiy formukasi ML_6 (to'g'ri oktaedr



8.1*-rasm. To'g'ri oktaedrning buzilishi: a, δ —tetragonal (D_{4h}); b — rombik (D_{2h}); r —trigonal (D_{3d}). Oxirgi buzulish trigonal prizma hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin (D_{3h}) yana burulish 60° davom ettirilsaqirralardagi strelkalar chegarasiga kelib qoladi.




8.2-rasm. Trigonal- prizmali komplekslar.

Trigonal prizmali komplekslar juda kam uchraydi (11). Ular MoS_2 va WS_2 va qator birikmalar $[\text{M}(\text{C}_2\text{S}_2\text{R}_2)_3]$ (1 2) hamda $[\text{M}(\text{C}_2\text{S}_2\text{R}_2)_3]$ (1 2), $[\text{Zr}(\text{CH}_3)_6]^{2+}$ olinishi mumkin

Juda ko'p 6 koordinasiyali komplekslar oktaedrik yoki bir oz buzilgan oktaedrdir.

Д) **uyqori kooordinasion songa ega bo'lgan komplekslar**

3-d metallar va 4-d va 5-d elementlari yirik markaziy atom bo'la oladi va ular oltitadan ortiq ligandlarni biriktirishi mumkin. Bu birikmalar geometric shakli energiya jihatidan bir xil, ular koordinasion son 5 bo'ladigan birikmalarga o'xshaydi. Bunday birikmalarga to'yingan «ideal» pentagonal



8.3-rasm. Trigonal prizma, pyramidal pentagonal bipiramidal strukturalarning umumiy sxemalari.


bipiramidalar(13), bir qalpoqli ortaedr(14) va bir qalpoqli trigonal prizma (15) (ikkita oxirgi kompleksda ettinchi ligand qirralardan birida joylashgan. O'z-o'zidan oraliq strukturalar ko'p va ular orasida bir-biriga o'tishlar qiyin emas. Misol uchun, d-metallardan $[\text{Mo}(\text{CNR})_7]^{2+}$, $[\text{ZrF}_7]^{3-}$, $[\text{Ta}(\text{PR}_3)_3\text{Cl}_4]$ $[\text{ReOCl}_6]^{2-}$ va f-elementlardan $[\text{UO}_2(\text{OH}_2)_5]^{2+}$.

Elementni koordinasion soni 7 ga oltidan o'tishga majbur qilish uchun 5 donorli atomlar halqasidan (16), akvatrial holatda bo'sh turgan joylarga ligandlar joylashtiriladi. Steoxeometrik qattiqmaslikkoordinasion soni 8 bo'lgan kvadrat antiprizmaga ega komplekslarda (17) bir strukturada va dodekaedr (18) boshqa holatda kuzatiladi. Oxshash geometriyali komplkslar (19) va (20) sxemalarda ko'rsatilgan.

KS = 9 f-elementlar komplekslarida muhim ahamiyatga ega, ular yirik ionlar ko'p sonidagi ligandlarni biriktirishi mumkin. Misol uchun, $[\text{Nd}(\text{OH}_2)_9]^{3+}$ keltirish mumkin. MCl_3 kristallik strukturalar tarkibi tarkibi, bu erda metall atomi La dan Gd gacha, uyqori koordinasion son metall-galogen-metall ko'priqli bog'lar hosil bo'lishi tufayli uyzaga keladi.

KS=9 bo'lgan birikmaga misol qilib, d-elementlardan $[\text{ReH}_9]^{2-}$ (21) olish mumkin, unda o'lcamli kichik ligandlar joylashganligi tufayli koordinasion son uyqoriligi

ta'minlangan. Masalan, $[\text{Ce}(\text{MO}_3)_6]^{2-}$ (22), bu birikma Ce(IV) ni nitrat kislota bilan ta'siridan hosil bo'ladi. Har bir NO_3^- ligandmetall va ikkita kislorod atomi bilan bog'langan.




8.4-rasm. Ba'zi bir komplekslarning umumiy sxemalari.

KS=10 bo'lgan birikmalarda $[\text{Th}(\text{OH}_2)_2(\text{ox})_4]$, unda oksalat ion (ox , $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$) toriy ioniga bog'lanish uchun ikkita O atomi ishlatilgan. Bunday uyqori koordinasion sonli birikmalar d-elementlar ichida M^{3+} juda kam uchraydi.

e) metallarning poliyadroli komplekslari

Tarkibida ikki va undan ortiq metallar tutgan poliyadroli komplekslar tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. (rasm 8.5). Ba'zi holatlarda metal etomlari birgalikda ligand ko'priklari orqali ushlab turiladi, yoki metal-metal bog'lari uyzaga keladi, uchunchi xil komplekslarda uchala holatdagi bog'lar ham uchraydi. Metall-klaster (33-36)termini poliyadroli komplekslarga taaluqli, ularda metal-metal- bog' hosil bo'ladi. Agar metal-metal bogi bo'lmasa bunday komplekslar karkas komplekslar (karkas birikmalar) deyildai.



8.5- rasm. Poliyadroli komplekslarning turlari: a — mis(II) dimer akva kompleksi(33), unda juda bo'sh metal-metal bog'lari mavjud.; b — sun'iy kompleks, Fe-S bog'lari bor, biokimyoviy muhim agentlar, electron utkazuvchilar(34); simob(I) xloridi mustahkam Hg-Hg bog'lari bilan(35); kompleks $[Mn_2(CO)_{10}]$ Mn-Mn bog'lari tufayli uyzaga kelgan(36).

Tipik ligandlar va ularning nomemklaturasi

Dastlabiga monodentant ligandlar tutadigan komplekslar qaraladi, ular markaziy ion yoki atrofida bir joyni egallaydi. Bu bilan ular polidantant ligandlardan, yani markaziy ion atrofida bir joyni egallaydigan ligandlardan farqlanadi.

a) nomenklatura

8.1 jadvalda ko'p uchraydigan oddiy ligandlarning nomi va fomulasi keltirilgan. Bu jadvalda har bir kompleks turida uchraydigan ligandlar sonini belgilaydigan old qo'shimchalar ham berilgan. Komplekslarni nomlashda quyidagi tartib ishlatiladi: anionlar,neytral molekulalar,kationlar (ayni paytda formulada teskari tartibda yoziladi).

Shundan keyin metal nomi keladi, keyin qavs ichida uning oksidlanish darajasi kelad, masalan, geksaamminkobalt(III) $Co(MH_3)_6]^{3+}$, yoki yoki kompleksning umumiy zaryadi yoziladi. Ligandlar sonini belgilash uchun mono-,di-tri, va tetra-prefikslari ishlatiladi. Ular birdan ko'p bo'lsa, masalan, oktaxlorodirenat (III) $[Re_2Cl_8]^{2-}$ (23). Ba'zan ligandlar nomi Chalkasliklar bo'lsa, etilendiamin (En) $H_2NCH_2CH_2NH_2$, ba'zan alternative prefikslar ishlatiladi:bis, tris va tetrakis, ligand nomi qavs ishida ko'rsatiladi. Bunda,dixloroda adashish mumkin emas, tris(etilendiamin) aniq ko'rsatadi, kompleksda uchta ligand bor. Shunday qilib kation tris(etilendiamin)kobalt(II) $[Co(En)_3]^{2+}$ nomga ega. Ko'priqli ligandlar, ikkita markaziy atomni bog'laydi, μ -prefix qoshiladi, μ -oksibis(pentaamminxrom(III)) (24) .

8.2- jadval Tipik ligandlar va ularning nomi

Название	Формула	Обозначение	Дентатность ^{а)}
Ацетилацетонато	$(\text{CH}_3\text{COCHCOCH}_3)^-$	acac	2(O)
Аммин	NH_3		1(N)
Аква	OH_2		1(O)
2,2-Бипиридин		bipy	2(N)
Бromo	Br^-		1(Br)
Карбонато	CO_3^{2-}		1(O) или 2(O)
Карбонил	CO		1(C)
Хлоро	Cl^-		1(Cl)
Циано	CN^-		1(C)
Диэтилентриамин	$\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{NH}_2)_2$	dien	3(N)
Этилендиамин	$\text{H}_2\text{NCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$	en	2(N)
Этилендиаминтетраацетато		edta	6(N,O)
Глицинато	$\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CO}_2^-$	gly	2(N,O)
Гидридо	H^-		1
Гидроксо	OH^-		1(O)
Малеонитрилдитиолато		mnt	2(S)
Нитрилотриацетато	$\text{N}(\text{CH}_2\text{CO}_2^-)_3$	nta	4(N,O)
Оксо	O^{2-}		1
Оксалато	$\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$	ox	2(O)
Нитрито	NO_2^-		1(O)
Тетраазациклотетрадекан		cyclam	4(N)
Тиоцианато	SCN^-		1(S)
Изотиоцианато	SCN^-		1(N)
2, 2', 2''-Триаминотриэтиламин	$\text{N}(\text{C}_2\text{H}_4\text{NH}_2)_3$	tren	4(N)

^{а)} Буквы в скобках указывают донорный атом.

8.3- jadval. Komplekslar nomida prefikslar

Prefiks	Qiymati	Prefiks	Qiymati
Mono-	1	Hepta-	7
Di-,bis-	2	Okta-	8
Tri-,tris-	3	Nona-	9
Tetra-, Tetrakis-,	4	Deka-	10
Penta-,	5	Undeka-	11
Geksa-	6	Dodeka-	12


Kvadrat qavs ichida kompleks formulasi yoziladi va uning zaryadi ko'rsatiladi. Oksoanionlar karbonillar qavssiz ham yozilishi mumkin: $\text{Ni}(\text{CO})_4$ — Nikel tatrakarbonili. MnO_4^- —tetraoksomanganat(VII) («permanganat»).

Avval metallning simboli, keyin kation, neytral va anion ligandlar nomlanadi, masalan, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_4]\text{Cl}_2$ — дихлоротетраамминкобальт(III) (ba'zan qaysi ligandlar reaksiyada qatnashishi mumkinligini ko'rsatadi). Ko'p atomli ligandlarni ba'zan boshqacha yoziladi (masalan. suv OH_2 formula $[\text{Fe}(\text{OH}_2)_6]^{2+}$ — geksaakvatemir(II)), nomad avval donor atom kelyapti, u

kompleks strukturadagi bog'lanish tartibini ham korsatyapti. Ligandlar nomi 7.1 - jadvalda keltirilgan.

Kompleks hosil bolishida muvozanat

Kompleks hosil bo'lishida o'ziga xos reaksiya qizil kompleks $[\text{Fe}(\text{OH}_2)_5(\text{NCS})]^{2+}$ ning hosil bolishidir. Bu reaksiya III valentli temir ioni hosil bo'lishi uchun va tiosianat ionlari sifat reaksiya hisoblanadi:




Muvozanat konstantasi K_f kompleks hosil konstantasi hisoblanadi. Suv K_f tarkibiga kirmaydi, chunki uning miqdori doimiy hisoblanadi. K_f qiymati kata bo'lganda ligand suvga nisbatan markaziy atom bilan mustahkam bog'langan. K_f ning qiymati kichik bo'lsa suv molekulasini ligandga nisbatan markaziy atom bilan kuchli bog'langan.

a) Hosil bo'lish konstantasi

Kompleks hosil bo'lishi ligandlar soni ko'p bo'lganda albatta murakkablashadi, Masalan,

$[\text{Ni}(\text{OH}_2)_6]^{2+}$ kompleksida ammiak molekulasining suvga almashinishi tufayli $[\text{Ni}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$, hosil bolishida cis va trans izomeriya uyzaga kelmasa ham; arayon 6 ta bosqichda amalga oshadi.

Umumiy holatda ML_n kompleksi hosil bo'lishida quyidagi reaksiyalar boradi:



Bu bosqichli konstantalar komplekslarning reaksiya qobiliyati va strukturasi baholash uchun ahamiyatga ega.


Oxirgi mahsulotning konsentratsiyasini aniqlash uchun (ML_n kompleksi uchun) to'la hosil bo'lish konstantasi:

$$\beta_n = \frac{[\text{ML}_n]}{[\text{M}][\text{L}]^n}$$

Umumiy konstanta bosqichlar konstantalarining ko'paytmasiga teng:

$$\beta_n = K_1 K_2 K_3 \dots K_n$$

Ba'zan K_f ga teskari qiymat ham foydali bo'lib qoladi u dissotsilanish konstantasi bolib qoladi.



Komplekslarning barqarorligi hosil bo'lish konstantasi bilan tavsiflanadi, komplekslarning hosil bo'lish konstantasi ligandlarning bog'lanishi barqarorligi va suvga nisbatan boglanish barqarorligini ko'rsatadi.

Kompleks birikmalarda kimyoviy bog'lanishning tabiati

Kompleks birikmalarning tuzilishini 3 xil yo'l bilan tushuntirish mumkin.

- 1) kristall maydon nazariyasi
- 2) valent bog'lanish usuli (VBU)
- 3) molekulyar orbitalar usuli (MOU)

1. Kristall maydon nazariyasi kompleks hosil qiluvchi va ligandlar orasidagi elektrostatik ta'sir kuchlariga asoslangan. Bunda kompleks hosil qiluvchining d-orbitallarining fazoviy shakli hisobga olinadi. Ligandlar hosil qilgan elektr maydoni kuchiga qarab kompleks hosil qiluvchining d-orbitallari har xil energetik orbitalga ajraydi. Shu tufayli kompleks birikmaning fazoviy shakli ham turlicha bo'ladi. Erkin ionda markaziy atomning d-orbitallari bir xil energiyaga ega bo'ladi:

Agar markaziy ion atrofida ligandlarning oktaedrik joylashuvi yuzaga kelsa markaziy atomdagi d_{z^2} va $d_{x^2-y^2}$ ligandlarga nisbatan kuchliroq itarilishga uchrab ularning energiyalari doira maydon ta'siridagi iondan anchagina yuqori bo'ladi.

Ayni paytda, d_{xy} , d_{xz} va d_{yz} orbitallarning energetik holati doira maydon ta'siridan kuchsiz bo'ladi. Shu sababga kora markaziy atomning d orbitallari oktaedrik maydon ta'sirida ikkiga bo'linadi (d_{γ} va d_{ϵ}). Bu energiyalarning farqi (Δ) – parchalanish energiyasi deyiladi. Bu qiymat kompleks birikmalarning yutilish spektrlari orqali aniqlanadi.

8.4-jadval. Kristall maydon nazariyasini $[\text{CoF}_6]^{3-}$ va $[\text{Co}(\text{CN})_6]^{3-}$ ionlari uchun qo'llanilishi



a) sferik ion $d_{xy} d_{xz} d_{yz} d_{z^2} d_{x^2-y^2}$	b) ligandning oktaedrik maydoni ta'siridagi ion
	d_{γ} d_{ϵ} $[\text{CoF}_6]^{3-}$ d_{γ} d_{ϵ} $[\text{Co}(\text{CN})_6]^{3-}$

$[\text{CoF}_6]^{3-}$ paramagnit kompleks hosil qilishi va $[\text{Co}(\text{CN})_6]^{3-}$ ning diamagnit kompleks hosil qilish sababini ligandlarning spektrokimyoviy qatori asosida tushuntirish mumkin. CN^- ioni kuchli maydon hosil qiluvchi ligandlar qatorida joylashganligi uchun uning parchalanish energiyasi anchagina yuqori bo'ladi (26 – jadval). $[\text{CoF}_6]^{3-}$ yuqori spinli kompleksga kirib paramagnit xossaga ega. $[\text{Co}(\text{CN})_6]^{3-}$ da bo'lsa elektronlarning joylashuvi boshqacha yuzaga keladi. F^- ioni kuchsiz maydon hosil qilganligi sababli kompleks hosil qiluvchi d-orbitallarning ajralish energiyasi kichik bo'ladi. Shuning uchun elektronlar Xund qoidasiga binoan dastlab bo'sh orbitallarga bittadan joylashadi. CN^- ioni kuchli maydon hosil qilganligi sababli kompleks hosil qiluvchi d-orbitallarning ajralish energiyasi katta bo'ladi, shuning uchun elektronlar dastlab energiyasi kichik bo'lgan d_{ϵ} orbitallarga joylashadi, natijada unda juftlashmagan elektronlar qolmaydi.

2. Valent bog'lanishlar usuli. Bu nazariyaga binoan kompleks hosil qiluvchi va ligandlar orasida kovalent bog' donor-akseptor mexanizm bo'yicha sodir bo'ladi. Kompleks hosil qiluvchining bo'sh orbitallari bor, ya'ni u akseptor bo'ladi. Ligandlarda esa bo'linmagan elektronlar jufti bo'lib uni kompleks hosil



qiluvchining bo'sh orbitallariga joylashtiriladi, ya'ni ligandlar elektronlar donoridir. Ammiak molekulasida azot atomi sp^3 gibridlangan holda bo'lib, gibrid orbitallaridan birida bo'linmagan elektron jufti bor. Shu tufayli ammiak molekulasida H^+ ioni bilan NH_4^+ ni hosil qiladi va u tetraedrik konfiguratsiyaga ega.

$[NiCl_4]^{2-}$ ioni ham xuddi shunday tuzilishga ega. Bunda Cl^- ioni elektrondonor, Ni^{2+} ioni akseptor bo'ladi.




Cl^- ioning elektronlari (x) $4s4p$ gibrid orbitallarga joylashuvi oqibatida $[NiCl_4]^{2-}$ ionida sp^3 gibridlanish yuzaga kelib, markaziy atom va uning atrofida ligandlarning joylanishi tetraedrik qurshovga ega bo'lib qoladi. 3 d orbitallardagi ikkita juftlashmagan elektron hisobiga bu kompleks birikma magnit xossaga ega.

$[Zn(NH_3)_4]Cl_2$ kompleks birikma ham tetraedrik tuzilishga ega:



Bu holatda Zn^{2+} ioni uchun 3d orbitallar band, shuning uchun gibridlanish sp^3 hisoblanadi.

Agar atomdagi d- orbitallarning to'rttasi band bo'lgan ionlarda, koordinatsion soni 4 ga teng bo'lsa, bitta d, bitta s va ikkita p-orbital ishtirok etadi. Bunda dsp^2 gibridlanish bo'lib, molekula tekis kvadrat shakliga ega bo'ladi. Markazda kompleks hosil qiluvchi ion, ligandlar bo'lsa kvadratning uchlarida joylashadi:




Koordinatsion son 6 ga teng

bo'lganda d^2sp^3 gibridlanish bo'ladi

Shunga o'xshash konfiguratsiya $[Co(NH_3)_6]^{3+}$, $[Fe(CN)_6]^{3+}$ larda ham kuzatiladi.

Agar koordinatsion son 2 ga teng bo'lsa, sp gibridlanish kuzatiladi, chiziqli konfiguratsiya amalga oshib:



Bu misollarda valent bog'lanish usuli kompleks birikmalarning koordinatsion soni, geometrik shakli va magnit xossalari to'g'ri tushuntiradi. Lekin yutilish spektrlarini valent bog'lanish usuli bilan tushuntirib bo'lmaydi. Shunday ligandlar borki, ular metaldagi elektronlarni o'zining vakant orbitallariga qabul qila oladi.

PF_3 yoki SnCl_4 ioni o'zining bo'shashtiruvchi orbitallariga CO, NO kabi molekulalarni qabul qila oladi. Bu kompleks birikmalarning tuzilishini molekulyar orbitallar nazariyasi tushuntirib beradi.

Kompeks birikmalarning farmatsiyadagi ahamiyati. Odam organizmida 3% atrofida metallar borligi ma'lum. Ana shu metallar inson hayot faoliyatini to'la ta'minlaydi. Ishqoriy va ishqoriy – yer metallari kaliy, natriy, kalsiy, magniy eritmada akva ionlar hoatida uchraydi. Ular qon, limfa, to'qimalardagi suyuqliklarda nerv impulslari harakatini ta'minlaydi.

Odam organizmida 100 mg atrofida siankobalamin (yog'da eriydigan vitamin B_{12}) uchraydi. Bu modda gemlarga o'xshash makrosiklik kompleks birikmadir (28-rasm). Bu birikmada makrosiklik ligand sifatida tetradentant azot tutgan ligand porfin turadi. B_{12} vitamini eritrositlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. B_{12} etishmasligi og'ir kasallik - kamqonlikka olib keladi.

d- elementlarning organik ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari organizmdagi oksidlanish –qaytarilish jarayonlarida katalizator sifatida ishtirok etadi. Bu metallardan odam organizmida eng ko'p tarqalgani temirdir. Ligandlar tabiatiga qarab, temir +2 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan kompleks birikmalar (mioglobin, gemoglobin) va +3 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan katalaza va oksidazaga o'xshash kompleks fermentlar hosil qilgan.

O'simliklar hayotidagi muhim modda xlorofil ham tuzilishi jihatidan gemoglobinga o'xshab ketadi, lekin bu birikmada kompleks hosil qiluvchi ion Mg^{2+} hisoblanadi.

Saraton kasalligidagi xavfli o'smalarning o'sishini platina(II) kompleks birikmalari sekinlashtirishi aniqlangan (sis- $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$). Iridiyning kompleks birikmalaridan $(\text{NH}_3)_2[\text{IrCl}_6]$ ham saraton kasalligida foyda beradi. Oltinnig α -tiospirtlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari esa sil va moxov kasalligini davolashda qo'llaniladi.

Kompleks birikmalar holatida juda ham ko'p dori moddalari ma'lum. Ulardan vitamin B_{12} , feramid, koamid, krizanol, temir(III) gliserofosfati, temir(II) laktati va boshqalar kompleks birikmalar holatidagi dorilarga kiradi. Ayniqsa temir yetishmaydigan anemiya kasalligida ishlatiladigan feramid Toshkent farmatsevtika institutining markaziy ilmiy laboratoriyasida ishlab chiqazilgan. O'zbekistondagi Toshkent kimyo-farmatsiya zavodida ishlab chiqariladi.

Kompleks birikmalar farmatsevtik tahlilda keng qo'llaniladi. Nesler reaktivi, vismut birikmalarini, temir birikmalarini aniqlashda ishlatiladi.

Kompleks birikmalar yordamida platina metallari, oltin, kumush, mis, xrom, nikel va kobalt olinadi va tozalanadi. Siyrak-yer elementlarini ajratishda ular juda qo'l keladi.

Azizov Manon Azizovich-(1913-1987) -O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, kimyo fanlari doktori, professor. U Toshkent farmatsevtika institutida yangi koordinatsion birikmalar olish va ular orasidan istiqbolli fiziologik faol moddalar yaratish borasida dunyoga mashhur maktab yaratgan olimdir. Hozirgi kunda M.A.Azizov maktabi tomonidan koamid, kobalt-30, feramid, kupir va boshqa preparatlar anemiya, qon kasalliklari, gepatit, vitiligo, sil, radoiprotektor preparatlar sifatida keng qo'llanilmoqda va turli kasalliklarda tavsiya etilgan.

Parpiyev Nusrat Ag'zamovich(1931 yilda tug'ilgan). O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, kimyo fanlari doktori, professor. Mamlakatimizda anorganik kimyo fanining koordinatsion birikmalar sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi yirik olim. Kompleks birikmalarning tuzlishi, fiziko-kimyoviy xossalari, biologik xossalari, katalitik ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanuvchi yirik maktab yaratgan. N.A. Parpiev yaratgan koordinatsion birikmalar xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilmoqda.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W.Atkins, T.L.Owerton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaqov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T., "Ozbekiston", 2002.
5. Д.А.Князев. Неорганическая химия: учеб. для ВУЗов /Д.А.Князев, С.Н.Смарыгин.-3-изд.испр.-М.:Дрофа, 2005.- С.591.
6. Общая химия. Биофизическая химия. Химия биогенных элементов: Учебник для ВУЗов/ Ю.А.Ершов, В.А.Попков, А.С.Берлянд и др.; под ред. Ю.А.Ершова- 4 изд.,-М.: Высш.шк.,2003.- 560 с. ил.
7. Е.Я.Левитин, А.Н.Бризицкая, Р.И.Клюева Общая и неорганическая химия: Учебник для студентов фармац. ВУЗов и фармац. Фак. медВУЗов.Х.:Изд-во НФАУ: Золотые страницы, 2002.- С. 536 .
8. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya " -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
9. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar

1. Kompleks birikmalarning ta'rifi. Verner nazariyasi;
2. Kompleks birikmalarni sinflanishi;
3. Kompleks birikmalarning koordinatsion formulasini topish;
4. Kompleks birikmalarni nomlash;
5. Kompleks birikmalarning turlari;
6. Kompleks birikmalarda izomeriya va ularning eritmadagi holati, beqarorlik konstanratsi;
7. Kompleks birikmalarning farmatsiyadagi ahamiyati.

9 - MA'RUZA

3.8. Noorganik kimyoda fiziko-kimyoviy usullar. Vodorod, gidridlar. Davriy jadvaldagi s-blok metallar


Ma'ruzaning maqsadi: s-blok elementlari va vodorod peroksidi mavzularidagi nazariy masalalar bilan talabalarni tanishtirish va bunda olingan bilimlarni farmatsiya fanlari sohasiga qo'llay bilish. Ushbu guruhdagi moddalarning xossalari asosida dori moddalar bilan ishlash sohalarini yaxshi o'rganish.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Vodorod. Tabiatda uchrashi va olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari.
2. Suv va uning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Og'ir suv.
3. Vodorod peroksidi, olinishi, xossalari va ishlatilishi.
4. Vodorod peroksidi -oksidlovchi va qaytaruvchi.
5. I s guruh ishqoriy metallari.
6. II s guruh ishqoriy-yer metallari. Ularning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati.
7. S-blok elementlari va vodorod peroksidi asosida farmakopeyaga kiritilgan dorivor moddalar to'g'risida qisqacha ma'lumot.


Tayanch so'zlar: Fiziko-kimyoviy usullar, s-elementlar, vodorod, suv, vodorod peroksidi, vodorodning oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalari.




Noorganik kimyoda fiziko-kimyoviy usullar²⁹

Difraksiya usullari. Difraksiya usullarida rentgen nurlari ishlatiladi. Modda tusulishini aniqlashda juda muhim usul hisoblanadi. Noorganik moddalar tuzilishini tekshirishda ishlatiladigan difraktometr va difraktogramma sxemasi 9.1-rasmda berilgan. TiO_2 rentgenogrammasi 9.2 -rasmda ko'rsatilgan.

²⁹ *Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 224-248.



9.1- rasm. Difraktometr sxemasi va difraktogramma sxematik berilgan.




9.2-rasm. Polimorf TiO_2 ning rentgenogrammasi.

Absorption spectroscopy

Adsorbsion spektroskopiya

Adsorbsion spektroskopiya elektromagnit radiasiya natijasida noorganik moddalarni adsorbsiyasi orqali moddalar tarkibini aniqlash usulidir. Ultrabinafsha nurlar ham moddalar tuzilishini aniqlashda ishlatiladi. Ultra binafsha spektrning ko'rinishi va UF-spektrometr sxemasi F-spektrometrning sxemasi 9.3-rasmda ko'rsatilgan.




9.3-rasm. UF-spektrometrning sxemasi va moddaning UF- spektri ko'rinishi.


10 Hydrogen

1. Vodorod yadrosining xossalari¹

Vodorod uchun 3 ta izotip bor: protiy (${}^1_1\text{H}$), deyteriy (${}^2_1\text{D}$, 2 H) va tritiy (${}^3_1\text{T}$, 3 H); Tritiy radioaktiv. Deyteriy tabiatda ${}^2_1\text{D}$ radioaktiv emas, tritiy geliy hosil qiladi:



Termo yadro reaksiyasi:



Izotoplar xossalariining farqi 9.1da ko'rsatilgan.

Jadval 9.1. Deytrilashning fizikaviy xossalarga ta'siri

Xossalar	H ₂	D ₂	H ₂ O	D ₂ O
Qayn. harorati.	-252,8	-249,7	100,00	101,42
O'rtacha entropiya bog'i, кДж/моль	436,0	443,3	463,5	470,9



Vodorodning uch izotopi (H, D va T) atom massalari, yadro spini, UQ,KP va PMR o'zgarishi bilan farq qiladi.





Molekulyar kationlar H₂⁺ va H₃⁺ gaz fazada borligi bir lahzada eritmada turishi aniqlangan. Spektroskopik usullar yordamida H₃⁺ teng tomonli uchburchak shakldaligi aniqlangan.

Molekulyar vodorod

Bog' entalpiyasi uyqori bo'gani uchun uyqori aktivlanh energiyasga ega elementlar bilan sekin reaksiyaga kirishadi. Lekin ma'lum sharoitda aktivlansa reaksiya tez boradi. Aktivlanish shartlari:

1. Molekulani metal sirtida yoki metal kompleksida gomolitik aktivlsh (1);
2. Metall ioni va uni sirtida geterolitik dissotsilanish (2,3,4);
3. Radikal zanjir reaksiyalarini inisirlash.(5)





Vodorod birikmalarini sinflash

Uch xil sinf vodorodning binary birikmalari ko'rib chiqilgan:

1. Elementning va vodorodning binar birikmalari individual va diskret holatda mavjud birikmalar.
2. Ion (tuzsimon) gidridlar — uchmaydigan elektr tokini o'tkazmaydigan qattiq kristall moddalar.
3. Metallsimon gidridlar – nostexseometrik elektr tokini otkazuvchi qattiq birikmalar.

Molekulyar birikmalar

Molekulyar birikmalar elektromanfiy elementlar bilan hosil bo'ladi, masalan, 13/III— 17/VII, elementlaridan: B_2H_6 , CH_4 , NH_3 , H_2O va HF .

a) Nomlash va sinflash

Vodorodning molekulyar birikmalari element nomiga an qo'shimchasi qo'shish qrqali yasaladi, fosfor , fosfan PH_3 . Doimiy ishlatib kelinadigan nomi fosfin va vodorod sulfid (H_2S , sulfan). NH_3 ammiak azan deyilishi kerak (jadval 2).

Molekulyar vodorod birikmalari 3 turga bo'lish mumkin:

1. Markaziy atomning barcha elektronlari bog' hosil qilishda ishtirok etadi.
2. Elektronodefisit birikmalar, ularda elektronlar juda kamva luyis struktasi hosil qilish uchun elektronlar etmaydi.
3. Elektroni ko'p bo'lgan birikmalar bog' hosil qilish uchun zarur miqdordan ko'ra ko'p elektronga ega bo'lgan birikmalar.


Uglevodorodlar, metan, etan, silan, german I xil birikmalarga kiradi. Har molekulaga ikki yadroli ikki elektroli bog'lar to'g'ri keladi. Markaziy atomda erkin elektronlar mavjud emas. Diboran (5) electronefisisid birikmalatga misol bo'ladi.

9.2- jadval. Vodorodning molekulyar birikmalari

Guruhlar	Formula	Tradision Nomi	IUYPAKH nomenklaturasi
13/III	B_2H_6	Diboran	Diboran(6)
14/IV	CH_4	Metan	Metan
	SiH_4	Silan	Silan
	GeH_4	German	German

	SnH₄	Stanan	Stanan
15/V	NH₃ PH₃ AsH₃ SbH₃	Ammiak Fosfin Arsin Stibin	Azan Fosfan Arsan Stiban
16/VI	H₂O H₂S H₂Se H₂Te	Suv Vodorod sulfid Vodorod selenid Vodorod tellurid	Oksidan Sulfan Sellan Tellan
17/VII	HF HC1 HBr HI	Vodorod ftorid Vodorod xlorid Vodorod bromid Vodorod iodid	Ftorovodorod Xlorovodorod Bromovodorod Iodovodorod

Luyis strukturasi bo'yicha B_2H_6 uchun hech bo'lmasa 14 valent elektron kerak bo'ladi, lekin molekulada bor yo'g' 12 valent elektron bor. Bunday birikmalar elektron oqadigan birikmalar ham deyiladi (electron-precise).




Bor va aluiminiyning elektron defisit birikmalari 15/V — 17/VII guruh elementlariga tegishli bo'lib, misol sifatida ammiak va suv, ularda azotda I juft va kislorodda ikki juft bo'linmagan elektronlari bor.

I va 3 tip birikmalarning molekulari shakli OЭПВО modeli asida oldindan aytib berish mumkin. CH₄ tetraedrik(6) NH₃ –piramidal(7), suv burchakli (8) va HF chiziqli molekularlar hosil qilgan. Vodorodli birikmalarda og'ir analoglarga o'tgan sari valent burchaklar keskin o'zgaradi. 3 jadvalda valenburchaklar o'zgarishi ko'rsatilgan.


9.3- jadval. 15/ 5 va 16/6 guruhlar elementlarining vodorodli birikmari valent burchaklari qiymati³⁰



³⁰ Уэллс А. Структурная неорганическая химия. В 3-х т. Пер. с англ. — М.: Мир, т. 2, 1987.

Molekulalar	Valent burchaklar	Molekulalar	Valent burchaklar
NH_3	106,6	H_2O	104,5
PH_3	93,8	H_2S	92,1
AsH_3	91,8	H_2Se	91
SbH_3	91,3	H_2Te	89




Vodorod bog'ning qiziq taraflarini ochib beruvchi muzning kristall strukturasi ko'raylik. Muz uchun 7 xil shakl o'zgarish uchraydi. Ulardan faqat bittasi past bosimda barqaror. Odatdagi faza past bosimda geksagonal strukturaga ega, har bir kislorod atomi tetraedrik qurshovga ega va uni 4 ta kislorod o'rab turadi. Kislorod atomlari biri-biri bilan H bog'lari orqai ushlab turiladi. $\text{O}-\text{H}\cdots\text{O}$ bog'lari va $\text{O}\cdots\text{H}-\text{O}$ bu strukturada tasodifiy bog'langan va taqsimlangan. Muzning erib ketishida vodorod bog'lari setkasi qisman buziladi.






9.4-rasm. Guruhlar va bog/ energiyasi orasidagi bog'lanish.


9.5- rasm. p-elementlarning vodorod bilan binar birikmalari qaynash haroratini o'zgarishi.



9.6 rasm. Muzning strukturasi. Katta doirachalar O atomlari H atomlari kislorodni bog'lab turgan chiziqlarda joqlashgan.



Suv shuningdek, suv molekulalarining kristall karkasi vodorod bog'lari bilan bog'langan klatratlar hosil qilishi mumkin. Karkasning ichida «begona» molekulalar va ionlar joylashadi. Bu strukturaning asosi suv molekulalari karkasidan iborat 14 qirrali va 12 qirrali poliedrlaening 3:2 nisbatda birikishidan hosil bo'lgan. Boshliqlarda Cl₂(H₂O)_{7,25} joylashgan.



9.7- rasm. Gaz gidrat klatratida suv molekulalarining joylanishi $\text{Cl}_2(\text{H}_2\text{O})_{7,25}$. Har bir nuqta O atomlari turgan nuqtalar tutashgan joyda turadi, H atomlari chiziqlarda joylashadi. Ikkita markaziy 14 qirrali poliedrining 80 % Cl_2 bilan to'ldirilgan.


Ion gidridlar

I guruh elementlarining gidridlari osh tuzi strukturasiga ega. II guruh elementlarining gidridlari og'ir metallar galogenidlari strukturasiga ega bo'ladi. Berilliydan boshqa barcha birikmalar ionli gidridlarga kiritilgan (4-jadval).


9.4- jadval. S-blok metallarining gidridlari strukturasida³¹

Birikmalar	Kristallik strukturalar
LiH , NaH , KH , RbH , CsH	Osh tuzi
MgH_2	Rutil
CaH_2 , SrH_2 , BaH_2	Buzilgan PbCl_2

Ionli gidridlar suvsiz erituvchilarda erimaydi, lekin ishqoriy metallarning galogenidlari suyqlanmasida eriydi. Elektroliz qilinganda anodda vodorod ajraladi:




Bu reaksiya H^- mavjudligini isbotlaydi. Ion gidridlar suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Laboratoriyada suv qoldig'ini (argon, azot) yo'qotishda shu reaksiyadan foydalaniladi:

³¹ Уэллс А. Структурная неорганическая химия. В 3-х т. Пер. с англ. — М.: Мир, т. 2, 1987, с. 9.



Gidridlardan boshqa turdagi gidridlar sintezida foydalaniladi:



Bu erda s dietilefir eritmasidagi eritma.

Vodorodning elektromusbat metallar bilan birikmasi metal giridlari M^+H^- ; ular kislotalar bilan ta'sirda H_2 ajratadi va H^- ionini elektrofil moddalarga beradi.


Metallsimon gidridlar

Nosteoimetrik metallsimon gidridlarni barcha o'tish metallari 3,4,5, va f-elementlar hosil qiladi. VI guruhda faqat CrH ma'lum. 7,8,9 gereh metallarining toza gidridlari noma'lum. Juda uyqori bosimda temir tarkibida vodorodning erishi to'g'risida ma'lumotlar bor, bundan tashqari yer yadrosida ancha miqdorda temir gidridi borligi ham ma'lum. 7-9 guruh elementlarini gidridlar hosil qilmaydigan birikmalar ham deyiladi. Ular juda kam birikmalar hosil qiladi, va bu birikmalar ancha barqaror bo'ladi.


Olinishi

Uch xil usul mavjud:


1. Elementlar sintezi orqali:



2. Bryonsted asosini protonlash:




3. Galogenid yoki psevdogalogendlarni almashinish reaksiyalari orqali:




Tog'rodan to'g'ri sintezga NH_3 , litiy, natriy va kalsiy gidridlarini olish mumkin.


Bryonsted bo'yicha protonlashga misol qilib litiy ntrida gidrolizini olish mumkin.



Asos Cl^- protonlash uchun H_2SO_4 kuchli kislota olinadi:



Bu almashinish reaksiyasiga misol bolladi:




Vodorod birikmalari ishtirok etadigan reaksiyalarning mexanizmi³²


E-H bog'ini uzishni uch xil usuli bor:

1. Gidrid ion o'tishi bilan boradigan geterolitik uzilish:


³² Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с



2. Bog'ning gomolitik uzilishi:




2. Geterolitik uzilish priton ko'chish bilan amalga oshiriladi:




Masalan, E-H ni qo'sh bog'ga birikishi:




a) Bog'ning geterolitik uzilishi gidrid ion ko'chishi bilan amalga oshadi. Bunday gidridlar shiddatli Bryonsted kislotalari bilan reaksiyaga kirishadi va vodorod hosil qiladi:



1. galogenidlar bilan almashinish reaksiyalari, masalan. SiCl₄ litiy gidrida bilan quruq efirda (sol-efirga tegishli):




3. Luyis kislotasiga birikish:




4. Proton tutuvchi birikma bilan reaksiya H₂ hosil bo'lishi bilan boradi:

5. Proton tutuvchi birikma bilan reaksiya H₂ hosil bo'lishi bilan boradi:



Reaksiyada H OH guruhdan ishtirok etyapti.


BH₄⁻ hosil bo'lish reaksiyasi:




Bor gruppasi elementlarining gidridlari

Bor guruhi elementlari electron etishmaydigan moddalar, ular Luys kislotalaridir:


Simmetrik B₂H₆ ni parchalanishida ikkita mahsulot hosil boladiular biriki bir xil moddani hosil qilad: trimetilborazan




Agar parchalanish nosimmetrik amalga oshsa, ikkita mahsulot hosil bo'ladi:




Borgidrid komplekslar juda ko'p, ular elektromusbat metallar bilan hosil bo'ladi. Ularning ichida $\text{Al}(\text{BH}_4)_3$ (10) ikkita gidrid ko'oprik tutgan $\text{Zr}(\text{BH}_4)_4$ (11) tarkibida uchta gidrid kopriklar bor.




10 $[\text{Al}(\text{BH}_4)_3]$



11 $[\text{Zr}(\text{BH}_4)_4]$




12 $[(\text{CH}_3)_3\text{N}]_2\text{AlH}_3$, $\text{R} = \text{CH}_3$




13 $\text{Al}_2(\text{C}_2\text{H}_5)_4\text{H}_2$

Aluymimiyning 5 koordinasiyalı gidrid kompleksi(12) va alkilamin gidridlari(13)



14



15

Gidrid va proton atomlarining ta'siri(14)alken, silan va metal intermediate(15).




Figure 10.12 The cages of water molecules in clathrate hydrates; in this case $\text{Xe}_6(\text{CCl}_4)_6(\text{H}_2\text{O})_{18}$.

9.8-rasm. CCl_4 va Xe ning akva komplekslari.





Figure 10.11 The orientation of lone pairs as indicated by VSEPR theory compared with the orientation of HF in the gas-phase hydrogen-bonded complex. The HF molecule is oriented along the threefold axis of NH_3 , collinear with HCN, out of the H_2O plane in its complex with H_2O , and off the HF axis in the HF dimer.



The Group 1 elements



11

Davriy jadvalning s-blok elementlari

1950 yilgacha isqoriy metallarning kompleks birikmalari juda kam edi, lekin polidentant ligandlarning sintez qilinishi 1- va 2- guruh elementlarining qator komplekslari hosil bolishiga olib keldi. Suv va havo bo'lmaganda bu elementlarning manfiy oksidlanish darajasiga ega elementlari ham olinishi ma'lum bo'ldi, masalan Na^- .

Oksidlanish-qaytaliish reaksiyalari

Isqoriy va isqoriy-yer metallari elektrod potentsiallari qiymatiga ko'ra suv bilan oksidlanishi mumkin:



Bu reaksiya juda tez boradi va ekzotermik natriy va undan keyingi elementlar uchun vodorod yonib ketadi. Bu reaksiyadagi faollik metallarning suyqlanish harirati pastligi bog'langan, suqlantirilgan metall sirti juda oson reaksiyaga kirishadi.

9.2 jadval. 1- va 2- guruh elementlarining elektrod potentsiallari

1-guruh		2-guruh	
Li	-3,04	Be	-1,97
Na	-2,71	Mg	-2,36
K	-2,94	Ca	-2,87
Rb	-2,92	Sr	-2,90
Cs	-3,06	Ba	-2,92

Isqoriy metallarning standart elektrod potentsiallari bir-biriga juda yaqin (3 v atrofida).


1-va 2- guruh metallari kucli qaytaruvchilar.

Binar birikmalar

Standart potentsiallarining qiymati doimiy bo'lishiga qaramasdan ishqoriy metallar ichida eng barqarori Li:N. s-blok elementlarining kimyoviy inividualligi ularning kislorod bilan reaksiyalarida ham namoyon bo'ladi.

Galogenidlar uchun kimyoviy xossalarning o'zgarishi ancha oddiy. Galogenlar va isqoriy metallarning binary kombinasiyasi birikmalari ma'lum. Ko'p galogenidlar NaCl (osh tuzi strukturasiga ega, kation va anionning koordinasion soni teng bo'lib 6 ga teng.

Faqat CsCl , CsBr va CsI ancha zich tuzilishga ega (8,8 CsCl koordinasiyasiga ega) Uyqori bosimda Rb, Na va K galogenidlari CsCl struktasini qabul qiladi. Amaliy jihatdan barcha oksidlar va sulfidlar asosiy oksidlanish darajasiga ega(+1 yoki +2). Lekin anionlarning zanjir hosil qilishi (katenasiyasi) ;juda ko'p turli birikmalar hosil bo'lishiga olib keladi. Masalan, Na₂O₂ da O⁻¹va KO₂ subperoksidlarda O⁻² Peroksidlar 2- gueuhdagi boshqa yirik kationlarda ham hosil bo'ladi.




9.9-rasm. NaCl va Seziy xloridning kristall strukturalari.

Isqoriy metallarning o'zga xos tarafi ularni oddiy tuzlarining yaxshi eruvchaligi. bu qoidadan chetlanish katta kationlar va katta anionlar orasida boradi. Og'ir metallarning perxloratlari engilga qaraganda kam. CsClO_4 uchun to'yingan eritma konsentrasiyasi 0,09 mol/l, KClO_4 4,5 mol/l.

Rentgenostrukturaviy analiz ko'rsatishicha Li^+ ionni tetraedrik yoki oktaedrik qurshovda bo'ladi. Masalan, Li_2O koordinasion soni 4 ga teng (antifluyrit strukturasini) LiF KS 6 (NaCl strukturasini). Ishqoriy metallarning og'ir ionlari xilma-xil koordinasion soniga ega.

Berillyning birikmalarikovalent bog' hosil qilishga moyil, uni radiusi kichikligi va polarizatsiyasi uyqoriligi bilan tushuntiriladi. Ko'p takrorlanadigan strukturalardan metal atomi markazda joylashgan tetraedr hisoblanadi. Masalan. past haroratli shakl BeO vuyrsit strukturaga ega, u tetraedrik koordinatsiyaga ega. Agar Be ni zaharliligi bo'lmasa edi, berilliy oksidi asosidagi keramika amaliyotda juda kichik elektr o'tkazuvchanligi va uyqori issiq o'tkazuvchanligi tufayli keng qo'llanishga ega bo'lar edi. Be farq qilib boshqa ishqoriy-yer metallari oksidlarida KS 6 ga teng va ularning strukturasini I osh tuzi strukturasini takrorlaydi.



9.10-rasm. MeO_2 va Li_3N kristall tuzilishi.


2- guruhning eng kichik ionni Be^{2+} odatda KS 6 ga teng, katta o'lchamdagi ionlar bo'lsa koordinasion soni 6 ga teng.

Kompleks hosil qilishi


s-elementlar ionlari oksidlanish darajasi guruh nomeriga mos keladi, kimyoviy nuqtai nazardan juda qattiq kislotalar hisoblanadi. Shuning uchun ular juda qattiq donorlar, ya'ni O va N bolgan moddalar bilan komplekslar hosil qiladi. Odatda ion

o'lchmi kichik, lekin zaryadi katta bo'lsa u barqaror komplekslar hosil qiladi. Shu tufayli Be^{2+} va Mg^{2+} ionlarining qattiq ligandlar bilan kompleksi boshqa s-elementlarga nisbatan juda mustahkam birikmalar. Bu komplekslar uchun inertlik barqarorlikdir. Haqiqatda $\text{Be}^{2+}(\text{aq})$ va $\text{Mg}^{2+}(\text{aq})$ komplekslar hosil bo'lish tezligi ularning to'qnashuvlar sonidan kam.


1-guruh va 2-guruh og'ir ionlarining (Ca dan Ba gacha) polidentat ligandlar bilan hosil qilgan birikmalari katta ahamiyatga ega. Monodentat ligandlar bilan bu birikmalar elektrostatik ta'sir tufayli bog' barqarorligi kam kovalent bog' hosil qilish imkoniyati deyarli yo'q. Kraun efirlar, masalan, 18-kraun-6 (1) isqoriy metallar ionlari bilan komplekslar hosil qiladi, ular suvsiz erituvchilarda ancha uzoq vaqt mavjud bo'la oladi.




1 18-kraun-6




2 2,2,1 kriptand




3 2,2,2-kriptand



a



b



4 2.2.2-crypt complex


9.11-rasm. Makrosiklik poliefir 18-kraun-6(a) va kation $[\text{K}(\text{18-kraun-6})]$ (b)

Bisiklik kriptandligandlar

Bisiklik kriptandlar (2) va (3) ancha barqaror komplekslar hosil qilib, ular hatto suvda ham barqaror. Bu ligandlar metallar ionlarini tanlab ta'sir etadi, asosiy ta'sit etuvchi faktor kationning o'lchami va joylanishi kerak bo'lgan ligandning sig'imi hisoblanadi (9.10-rasm).

2-guruh kationlari ham kraun-efirlar va kriptandlar hosil qiladi. Bu birikmalarning kompleksi polidentat ligandlar, masalan, etilendiamintetraasetat $[(\text{OOC})_2\text{NCH}_2\text{CH}_2\text{N}(\text{COO}^-)_2]$ qisqacha edta analitik kimyoda katta ahamiyatga ega. Edta bilan komplekslarning barqarorligi quyidagicha o'zgaradi: $\text{Ca}^{2+} > \text{Mg}^{2+} >$

$\text{Sr}^{2+} > \text{Ba}^{2+}$. Qattiq holatda edta va Mg^{2+} kompleksi $\text{KS}=7$ ga teng(4) va 1 koordinasion joyini suv egallagan.




Shu taqlid komplekslarda kalsiyning koordinasion soni 8 ga teng, qarshi ionga bog'liq ravishda ligandlarning bittasi yoki ikkitasi suv bo'lishi mumkin. Ca^{2+} va Mg^{2+} komplekslari tabiatda uchraydi, eng mashuri xlorofil.

Past oksidlari, elektridlari va alkidlari

S elementlarning oksidlanish darajasi guruh nomeridan kichik bo'lishi uchun alohida sharoit uyzaga keltirish kerak. Bunaqa birikmalar suv, havo va boshqa oksidlovchilar bo'lmaganda olish mumkin. Misol uchun rubidiy va seziyning qator past oksidlanish darajasiga ega oksidlarimetallarning aniq miqdordagi chegaralangan kislorod bilan reaksiyasida hosil bo'ladi.

Bu moddakar klasterlar hisoblanib, qora rangli, reaksiya qobiliyati juda uyqori, metallik otkazuvchanlikka ega, fayri tabiiy formulalarga ega birikmalar: Rb_2O , E_9O_2 Cs_4O_4 , Cs_7O .


Rb_9O_2 tuzilishini tushuntirish uchun kislorod atomi rubidiyning oktaedrik qurshovida ekanligini e'tiborga olib, ikkita oktaedr ham qirralari bilan bog'langanligini e'tiborga olish kerak (9.8 rasm).




9.12-rasm. Rb_9O_2 strukturasi. Bu klasterda har bir kislorod atomi Rb dan iborat oktaedrning markazida turadi.

Bunday klasterlar M^+ va O^{2-} orasidagi elektrostatik boglar borligi, shuningdek M-M bog'lari bo'shligi, ayni paytda butun metallic sistemada ishlab turgani ushun mavjud hisoblanadi. Bu moddalarning metallik bog'lari ular da valent elektronlar delokallshmaganligi va Rb_9O_2 klasterida izolilanmagan butun kristallda mavjudligi to'g'risida taxmin qilish mumkin.

Natriyning suyuq ammiakda erishidan juda qiziq keying misolni keltirish mumkin. Oz miqdordagi natriyni toza, tarkibida suvi bo'lmagan ammiakda erishidan tim ko'k eritma hosil bo'lishi aniqlangan. Bu eritmaning rangi (bu reaksiyada vodorod ajralmaydi) kuchli uytish cho'qqisining «dumi», bu choqqi yaqin infra qizil sohasida joylashgan. Boshqa elektromusbat metallar kichik entalpiya sublimasiyasiga ega bo'lganda suyuq ammiakda eriydi, hosil bo'lgan eritmaning rangimetallning tabiatiga bog'liq emasligi aniqlangan. Qator tajribalar, elektronning NH_3 molekulalaridan iborat guruhlar sohasiga o'tishi bu sistemaning energetik pog'onalari sferik potensial o'raga o'xshaydi. Natriyning juda suyultirilgan suyuq ammiakda erishiqiyidagi tenglama bilan ifodalanadi (sol-ammiakdagi eritma hisoblanadi):




Bu eritmalar ammiakni qaynash haroratida (-33°S) havo ishtirok etmaganda ancha barqaror. Lekin ular metastabil bo'lib, d- elementlar ularni parchalanishida katalizator hisoblanadi.



Konsentrlangan eritmalarda $\text{e}^-(\text{sol})$ kationlar bilan asosilangan va u bronza rangga ega. Optik spektrlar va elektr o'tkazuvchanlikni o'rganish bu eritmalarda elektronlar metallardagi kabi delokallshmaganligini ko'rsatadi.

Ammiakdagi isqoriy metallarning ko'k eritmaları a'lo darajada qaytaruvchila hisoblanadi. Masalan, nikelning (I) valentli kompleksi $[\text{Ni}_2(\text{CN})_6]^{4-}$ Ni(II) birikmasidan qaytarish bilan kaliyning suyuq ammiakdagi eritmasidan olinishi mumkin:





Reaksiya ammiakni qaynash haroratida va havo ishtirok etmaganda amalga oshiriladi.


Isqoriy metallar efir va alkilaminlarda ham eriydi, eritmaların uytilish spektrlari isqoriy metallning tabiatiga bog'liq boladi. Buday spektrlar zaryad o'tishi bilan bog'liq bo'lib alkid ion (M^-) hosil bo'lishini va zaryad erituvchiga o'tishini ko'rsatadi. Alkid ion borligini isbotlovchi ikkinchi misol diamagnetizm,

M⁻zarracha ikkita juftlashmagan elektronga ega va ular s^2 konfiguratsiyaga ega. Bu kuzatuvlar bilan mos keladigan yana bir holat, natriy va kaliyni eritgandagi spektrlar toza natriyning erishidagi spektrlar bilan bir xil.

Ayni paytda qotishma etilendiaminda eritilsa, spektrda solvatlangan elektronlarga tegishli uytilish spektrlari mavjud emas. Erish jarayoni quyodagicha izohlanishi mumkin (sol- etilendiamin eritmasi):



Kationlarning kriptandlar bilan ligand sifatida kompleks hosil qilishi orqali qattiq natridlar olinadi, ular $[\text{Na}(2.2.2)]^+$ $[\text{Na}^-]$, (2,2,20 kriptandni ko'rsatadi. Rentgenostrukturaviy analiz $[\text{Na}(2.2.2)]^+$ va $[\text{Na}^-]$ ionlar kristallning(9.9 rasm) bo'shliqlarida joylasganligini ko'rsatadi, buning ustiga $[\text{Na}^-]$ ionlari kristall bo'shliqlariga joylashgan va uni o'lchami I^- dan katta. Natridlarning va boshqa alkidlarning olinishi erituvchining va ligandning metallning kimyoviy xossalariga kuchli ta'sir qilishini korsatadi.



9.13-rasm. $[\text{Cs}(\text{18-Kraun-6})_2]^+$ e-tarkibli kristall strukturaning tuzilishi. Doirachalar elektron zichliklar cho'qqilarini va anionlarning holatini ko'rsatadi. [Dawes S.B., Ward D.L., Huang R.H., Dye J.L., J. Am. Chem. Soc., 108, 3534 (1986)].

The Group 2 elements

12


Bundan tashqari solvatlangan elektronlar tutgan birikmalarni kristallash mumkin va ularni strukturasi rengenostukturaviy tahlil qilingan.s-elementlar qator metallorganik birikmalar ham hosil qiladi, ular organik va noorganik sintezda ishlatiladi. Ularni ichida Grinyar reaktivi CH_3MgBr va metil litiy ko'p ishlatiladi.

1-va 2- chi guruh metallari oksidlanish darajasi past oksidlari (suboksidlar) hosil qiladi va suyuq ammiakda eriydi; oksidlovchilar bo'lmaganda yoki ular


chegaralanganda ular kriptandlar hosil qiladi, bu birikmalarning ko'pi metallik o'tkazuvchanlikka ega.

Isqoriy metallar kriptandlar, kraun efirlar hosil qiladi.


9.14-rasm. $K_2[Mg(CO_3)_2]$ kompleksi fragmenti strukturasi.



9.15-rasm. Kalsitning kristallari shakli va kalsiy atomining kalsit(a) va aragonite(b) da o'ralishi. Aragonit kalsitning shakl o'zgarishi lekin kristall shaklda o'zgarish bor.



9.16- rasm. Etilendiamintetrasirka kislotasini (a) va kompleksini tuzulishi [CaQ]²⁻ (b) tuzulishi.



Hlorofil molekulasining tuzilishi unda markaziy atom magniy azot bilan koordinasion bog'langan.

S-BLOK ELEMENTLARI VA ULARNING BIRIKMALARI³³

Vodorod XV1 asrning birinchi yarmida nemis vrachi Paratsels tomonidan kashf etilgan. 1776 yilda ingliz olimi G.Kavendesh uning xossalarini va bosqra gazlardan farqini o'rgandi. 1783 yilda A.Lavuaze vodorodni birinchi marta suvdan oldi va suv ham vodorod va kisloroddan tashkil topishini ko'rsatdi.

Vodorodni qaynash temperaturasi -252°S , suyuqlanish temperaturasi $-259,2^{\circ}\text{S}$. Vodorodni 3 ta izotopi bor: ^1_1H protiy, ^2_1H deyteriy, va ^3_1H tritiy.

Tabiatda 99,985 % protiy va 0,015 % deyteriy bo'ladi.

H atomi yadrosi 1 e dan iborat, atom massasi 1,00797 vodorod atomi musbat va manfiy zaryadlangan ionlar xosil qilishi mumkin.



H^+ bu, yadro, ya'ni erkin proton. H^- inert gaz neonni elektron qavatiga o'xshash. H^- anchagina beraror. H^+ farat kovalent boq' hosil qiladi.



TABIATDA UCHRASHI

³³ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.

Vodorod tabiatda keng tarqalgan kimyoviy element. Yer sharida uning miqdori 17 %(atmosfera, litosfera va gidrosfera). U torpf va qo'ng'ir ko'mir tarkibiga, neft, suv, tuproq va boshqalarni tarkibida bor. Erkin holda vodorod juda kam uchraydi. Vodorod eng ko'p tarqalgan kimyoviy element. U quyoshning yarmini, yulduzlarning asosiy qismini tashkil etadi. U ko'p planetalar atmosferasida, kometalarda, gaz va tumanlarda bor.


SANOATDA OLINISHI

1. Tabiiy gazdan olinadi :





2. Kuchli sovutish usuli . Vodorodni koks va suv gazidan gazlar aralashmasini sovutish usuli past temperaturada olinadi.

3. Konversiya usuli



Reaksiya 500 °C da 25 atmosfera bosimda katalizator Fe_2O_3 yoki Cr_2O_3 ishtirokida amalga oshiriladi.


4. Temir bug' usuli (MHM) da keng tarqalgan usul. Bu usulda 600-700 °C cho'g' holidagi temirni suv bug'i bilan ta'sirlanishiga asoslangan. Bunda temir bir necha mahsulotlar hosil qiladi. Suv bugi qaytarilib vodorod hosil qiladi.



Laboratoriyada vodorod quyidagi usullar bilan olinadi:

1. Natriy gidroksid yoki KOH ni(34%) eritmasini elektroliz qilish orqali olinadi.

NaOH yoki KOH suvni elektr o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun kerak.




Xuddi shunaqa reaksiyalar Be, Pb, Sb, Ga bilan ham boradi.

Xossalari: Tarkibida bitta elektron belgan vodorod 2 atomli. H_2 - protiy, D_2 -deyteriy, T_2 -tritiy, HD, HT, DT molekulalarini hosil qiladi. $\text{H}_2 = 2 \times 435 \text{ kJ/mol}$.


Vodorod ham oksidlovchi, ham qaytaruvchilik xossalari namoyon qiladi.

Odatdagi haroratda faqat fluor bilan reaksiyaga kirishadi:



Qizdirilganda xlor, brom, kislorod bilan reaksiyaga kirishadi.

Vodorodning qaytaruvchilik xossasidan ba'zi oddiy moddalarni ularning oksidlari va galidlaridan qaytarish uchun foydalaniladi:



Oksidlovchi sifatida vodorod aktiv metallar bilan reaksiyaga kirishadi:



Vodorod kimyo sanoatida ammiak, metanol, xlorid

kislota, yog'larni, suyuq yog'larni gidrogenlashda ishlatiladi.

SUV


Vodorod va kislorodning kimyoviy birikmasi. Yer sharining 3/5 qismi suv bilan qoplangan. Miqdori 2.10^{18} t. Ko'p moddalarning 90% miqdori suv bo'ladi. hayvon va o'simlik organizmida 75-76% suv bo'ladi.

Fizik xossalari: suv suyuq holatda rangsiz. 18°C da toza suvning elektr o'tkazuvchanligi $4,4 \cdot 10^{-8} \text{ om}^{-1} \text{ sm}^{-1}$. Toza suv elektr tokini deyarli o'tkazmaydi. Agar $P = 1 \text{ atm}$ bosim, 0°C haroratda u muzga aylanadi. 100°C dan yuqorida suv bug'ga aylanadi. 4°C da suv eng katta zichlikka ega bo'lib, 1 ga teng deb qabul qilingan.

Muz - rangsiz, $d = 0,9168 \text{ g/sm}^3$. Suvdan yengil. Bosim 2000 dan 6500 atm gacha borsa, muz har xil formalarga o'tadi. 21700 atm bosimda muzning 7 xil modifikatsiyasi bor. Uning zichligi $d = 1,5$; suyuqlanish harorati $T_{\text{suyq.}} = +76^{\circ}\text{C}$ u issiq muz deyiladi.


Kimyoviy xossalari: Suv molekulasi dipol momenti $m = 1,74 \cdot 10^{-18}$

sp^3 gibridlanish, lekin gibrid orbitallarning 2 tasida bog'lanmagan 4 elektron jufti aylanadi. Suvning dielektrik doimiysi 81 ga teng. Etanolniki 27, efirniki 2. Qattiq va suyuq holatda suv molekulasini $(\text{H}_2\text{O})_n$ 4°C da $n=2$, 0°C da $n=3$. Molekulalarning assotsiatsiyanishi vodorod bog'lari hisobiga sodir bo'ladi.






1000°C da suv parchalanadi: $2\text{H}_2\text{O} = \text{H}_2 + \text{O}_2 - 245,2 \text{ kJ./mol}$. Peaksiya qaytar.

5000°C da suv vodorod va kislorodga to'la parchalanadi. Suv kuchsiz elektrolit. 555 mln molekuladan bittasi ionlarga ajralgan bo'adi.





Oksidlanish -qaytarilish reaksiyalarida suv odatda muhit vazifasini bajaradi.

Kuchli qaytaruvchilar ta'sirida odatdagi va yuqori haroratlarda suv oksidlovchi bo'ladi. Masalan: ishqoriy va ishqoriy-yer metallari bilan sovuq holda, Fe, C va boshqalar yuqori haroratda ta'sirlashadi.






Kuchli oksidlovchilar ta'sirida suv qaytaruvchilik xossalarini namoyon qiladi. $\text{F}_2 + \text{H}_2\text{O} = 2\text{HF} + \text{O}$ (yonadi)




Boshqa moddalarning molekulariga suvni birikishining 3 xil turi ma'lum: 1) ion, 2) koordinatsion, 3) adsorbtsion.

1. Ishqoriy va ishqoriy-yer metallari, ularning oksidlari va kislotali oksidlar bilan suv ion tipidagi reaksiyaga kirishadi.



2. Akvakomplekslarda dipol xarakterga ega belgan suv molekulari musbat zaryadlangan kompleks hosil qiluvchi ionga tortilish xususiyatiga ega bo'lib, bu koordinatsion birikish bo'ladi.



